


**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# **TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI (Tasviriy san'at)**

**Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda  
zamonaviy yondashuvlar**

**MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY  
MAJMUA**



**TOSHKENT**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligining 2023 yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan  
tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi(lar):** U.N.Nurtaev - TDPU,  
“Tasviriy san’at” kafedrası mudiri, p.f.n., dotsent  
N.X.Talipov - TDPU,  
“Tasviriy san’at” kafedrası dotsenti, p.f.n.

**Taqrizchilar:** R.Sh.Xalilov-TDPU, “Tasviriy san’at” kafedrası dotsenti  
**Xorijiy ekspert:** p.f.d., professor K.Eralin – “K.A.Yassaviy nomidagi  
xalqaro qozoq-turk universiteti”.

***O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2023 yil “27” iyundagi  
11 - sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.***

## MUNDARIJA

<b>I. IShChI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	<b>8</b>
<b>III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI .....</b>	<b>20</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>68</b>
<b>V. GLOSARIY.....</b>	<b>140</b>

## **I. IShChI DASTUR**

### **KIRISH**

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli Qarori, 2020 yil 30 sentyabrdagi O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “O‘qituvchi va murabbiylar–yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” nomli nutqi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Mazkur dastur doirasida berilayotgan mavzular tasviriy san‘at fanlarini o‘qitishning innovatsion muhitini loyihalash modul bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan tasviriy san‘at fanlarini o‘qitishning innovatsion muhitini loyihalash moduli bo‘yicha, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari, so‘nggi yutuqlari, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, tasviriy san‘at fanlarini o‘qitishning innovatsion muhitini loyihalash moduli bo‘yicha masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar,

onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

**Modulning maqsadi va vazifalari** Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha pedagog kadrlarni innovatsion yondashuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

**Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish, "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish", "Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish", "Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish", "Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili" modullari bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar modulini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy tamoyillarini;

- ilg'or ta'lim texnologiyasi va axborot-kommunikatsiya vositasini yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlashda ta'lim jarayonida qo'llay olish;

- intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash texnologiyasi va ta'limining mazmunini yaratish;

- tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish;

- ijodiy ishlarni muhokama qilish va tanqidiy tahlil qilish;

- talabani ijodiy jarayonga yo'naltirishda pedagogning kasbiy rivojlantirish;

- pedagogik tadqiqotlarda statistik metodlarni o'z tadqiqotlarida qo'llash;

- tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari va dasturlarga statistik funksiyalarini kiritish va natijalar tahlilini o'tkazish *kompetensiyasiga* ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar modul bo'yicha mazmuni o'quv rejadagi "Tasviriy san'at fanining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari", "Kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish", "Pedagogik tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari" o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so‘ngi yutuqlari e‘tiborga olinishi tavsifa etiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar moduli bo‘yicha zamonaviy konsepsiyalari va fanning dolzarb nazariy muammolari, taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalarini o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Umumiy soat	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Tasviriy san’atda o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta’lim texnologiyalari.	4	2	
2.	Tasviriy san’at fanlaridan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish metodikasi.	2		2
3.	Intellektual salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash texnologiyasi va ta’lim mazmunini yaratish. Amaliy ishlardan ko‘rgazmalar tashkil etish masalalari.	4	2	2
4.	Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda ilg‘or ta’lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy tamoyillari. Ijodiy ishlarni muhokama qilish va tanqidiy tahlil qilish.	4	2	2
5.	Ilg‘or ta’lim texnologiyalari va vositalariga asoslangan ta’lim jarayonini loyihalashtirish. Talabani ijodiy jarayonga yo‘naltirishda pedagogning kasbiy kompetentligi.	4	2	2
6.	Oliy ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlardan o‘quv jarayonlarini tashkil etishning mazmuni va shakliga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar	2		2
7.	Talabalarning amaliy mashg‘ulotlarda o‘zlashtirishlarini tahlil qilish va baholash	2		2
8.	Oliy ta’limda maxsus va mutaxassislik fanlarni o‘qitishning pedagogik jarayonini loyihalash. Amaliy mashg‘ulotlarni “Ustoz-shogird” tizimi asosida loyihalashtirish.	2	-	2
<b>Jami</b>		<b>24</b>	<b>10</b>	<b>14</b>

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

**“INSERT” METODI. Metodning maqsadi:** Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>	<b>3-matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga			



qarshiman?			
------------	--	--	--

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

**TRENING.** Trening zamonaviy ta'lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning o'ziga xos ko'rinishidir.

Treninglar o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o'zlashtirish imkoniyatini beradi va ta'lim oluvchilarda shaxslararo o'zaro hamkorlikning samarali ko'nikmasini shakllantirishga, shuningdek, mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo'naltiriladi.

Har qanday pedagogik treningni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Tashkiliy bosqich: guruhni yig'ish yoki shakllantirish.
2. Boshlang'ich bosqich: guruh me'yorlarini ishlab chiqish, tanishuv va mashg'ulotdan kutuvlarni aniqlash.
3. Faoliyatli bosqich: trening turi va o'tkazish metodikasini belgilash.
4. Yakuniy bosqich (refleksiya). Trening mobaynida talabalar nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emmotsional va xulq-atvor ko'nikmalari ham rivojlanib boradi.

**“MUAMMOLI VAZIYAT” METODI** - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan

muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

**“SWOT-TAHLIL” METODI.** **Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish

yoʻllarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• кучли томонлари
<b>W – (weakness)</b>	• заиф, кучсиз томонлари
<b>O – (opportunity)</b>	• имкониятлари
<b>T – (threat)</b>	• тўсиқлар

#### **XULOSALASH» (REZYuME, VEER) METODI. Metodning maqsadi:**

Bu metod murakkab, koʻptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni oʻrganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari boʻyicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari boʻyicha oʻrganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda oʻquvchilarning mustaqil gʻoyalari, fikrlarini yozma va ogʻzaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan maʼruza mashgʻulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashgʻulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

• trener-oʻqituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;

•trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur

bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

•har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

•navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

## **O‘ZARO O‘RIN ALMASHINUVCHI JUFTLIKLAR VA GURUHLAR**

### **Maqsadi:**

- tinglovchilarni materialning tuzilishi, asosiy fikrlarni belgilay olish, esda saqlab qolish mumkin bo‘lgan shaklda ularni tasavvur etishga o‘rgatish;

- nutq madaniyatini rivojlantirish;

- fasilitatorlik qobiliyatini tarkib toptirish.

1. Birinchi bosqichda pedagog asosiy fikrlarni tasavvur etishning turli shakllari haqida hikoya qilib beradi.

Asosiy fikrlarni tasavvur etishning birinchi turi oddiy – bu asosiy fikrlarni so‘z yoki qisqa gaplar tarzida tasavvur etishdir. Mazkur so‘z yoki gaplar ustunlar tarzida nomer qo‘yish orqali yoziladi.

Asosiy fikrlarni tasavvur qilishning ikkinchi shaklida o‘zak belgilab olinadi va ana shu o‘zak atrofida asosiy fikrlar jamlanadi.

Asosiy fikrlarni shakllantirishning uchinchisi shakli – bu ularni qisqartirish yoki shartli belgilar bilan almashtirishdir.

2. Ikkinchi bosqichda tinglovchilar kichik guruhlariga birlashadilar. Har bir kichik guruh o‘ziga berilgan matnni oladi va uni o‘qiydi. Matnlar hammada har xil.

3. Shundan so‘ng guruhda har bir tinglovchi mustaqil ravishda mazkur matnga doir tayanch konspektini tuzishadi.

4. Navbatdagi bosqichda tinglovchilar juftliklarda o‘zlarining tayanch konspektlari haqida fikr almashishadi. Mazkur bosqichda o‘zining tayanch konspektini o‘zgartirish imkoniyati mavjud.

5. Navbatdagi bosqichda tayanch konspekt guruhiy muhokama etiladi. Guruh o‘zaro kelishgan holda qandaydir yaratilgan tayanch konspektini qabul qiladi. Mazkur bosqichda guruh butun jamoaning oldida “ovoz chiqarib” aytib beruvchi tinglovchini aniqlab olishi kerak.

6. Mazkur bosqichda guruhning bir a‘zosi aniqlangan tayanch konspekt bo‘yicha chiqish qiladi va o‘qilgan matnning mazmunini bayon etadi. Barcha tinglovchilar eshitishlari kerak. Mazkur davrda me‘yorlarning bajarilishini ta‘minlaydigan texnik ekspertning majburiyati namoyon bo‘ladi.

7. Birinchi guruh a‘zosi chiqishini tugatgandan so‘ng boshqa guruh savol berishi mumkin. Savollarga javob beriladi. Mazkur turdagi ish baholanishi mumkin (ballar jadvalda qo‘yiladi). Savollarning navbat bilan berilishini texnik ekspert yo‘lga qo‘yadi.

8. Sakkizinchi bosqichda boshqa guruhning vakili agar asosi mavjud bo‘lsa, qilingan chiqishni to‘ldiradi.

9. To‘qqizinchi bosqichda boshqa guruh vakili chiqish, savollarga javoblar bo‘yicha noroziligini ifoda etadi.

Ana shu yerda birinchi matn bilan ishlash yakunlanadi. Pedagog yoki ilmiy ekspert yakunlarni chiqaradi.

Keyingi bosqichda boshqa guruh vakili o‘zining tayanch konspektini namoyish etadi. Mazkur harakat hamma chiqishlar tugaguncha davom etadi.

Inssenirovka yakunlarni chiqarish bilan tugallanadi. Har bir guruh to‘plagan ballarni hisoblash va jami ballar ustuniga yozib qo‘yilishi kerak. Ana shu asosdan kelib chiqib, o‘rinlarni ham belgilash mumkin.

**T-Chizma.** T-chizma munozara vaqtida qo‘shaloq javoblar (ha/yo‘q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash-zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Masalan, “Pedagogik loyihalash shakllari” matnini “tarafdor va qarshi” tamoyiliga asoslanib o‘qilganidan so‘ng, bir juft tinglovchi quyida keltirilganidek, T-chizmani tuzishi va besh daqiqadan keyin, chizmaning chap tomonida pedagogik loyihalash shakllarining afzalliklarini yozishi mumkin. So‘ngra besh daqiqa mobaynida ular bu fikrga qarshi iloji boricha ko‘p sababni keltirishlari kerak. Ana shu vaqt oxirida ular yana besh daqiqa mobaynida o‘z T-chizmalarini boshqa juftlik chizmalari bilan taqqoslashlari mumkin.

<b>Pedagogik loyihalash shakllarining afzalliklari</b>	<b>Pedagogik loyihalash shakllarining kamchiliklari</b>

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta‘lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta‘lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta‘lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yoʻnalishi aniqlanadi. Mavzu boʻyicha bir-biriga bogʻliq boʻlgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Taʼlim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan boʻlinishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Taʼlim beruvchi tomonidan aniq koʻrsatmalar beriladi va yoʻnaltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- oʻqitish mazmunini yaxshi oʻzlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish koʻnikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha taʼlim oluvchilar jalb etiladi;
- oʻz-oʻzini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud boʻladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- baʼzi kichik guruhlarda kuchsiz taʼlim oluvchilar boʻlganligi sababli kuchli taʼlim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha taʼlim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past boʻladi;
- guruhlararo oʻzaro salbiy raqobatlar paydo boʻlib qolishi mumkin;
- guruh ichida oʻzaro nizo paydo boʻlishi mumkin.

**“ASSESSMENT” METODI. Metodning maqsadi:** mazkur metod taʼlim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, oʻzlashtirish koʻrsatkichi va amaliy koʻnikmalarini tekshirishga yoʻnaltirilgan. Mazkur texnika orqali taʼlim oluvchilarning bilish faoliyati turli yoʻnalishlar (test, amaliy koʻnikmalar,



muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:** "Assesment" lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



### Тест

Аниқ мавжуд предметлар, воқеалар ва тузиладиган объектларнинг тавсифини аниқлаш ёки бошқариш...

- А) Башоратлаш
- В) Моделлаштириш



### Қиёсий таҳлил

“Лойиҳалаш” ва “моделлаштириш” тушунчалари ўртасидаги ўхшашлик ва фарқли жиҳатларни таҳлил этинг.



### Симптом

Педагогнинг лойиҳавий фаолиятга амалий тайёрлиги...




### Амалий кўникма

Лойиҳавий фаолият алгоритмини тузинг.

**“LOYIHA” METODI** - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot

o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak. Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



**“Loyiha” metodining bosqichlari**

### **“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o‘zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi.

6. Muhandis-pedagog va ta’lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarida erishilgan ko‘rsatkichlarni me‘yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me‘yoriy ko‘rsatkichlarga erisha olinmagan bo‘lsa, uning sabablari aniqlanadi.

### III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-Mavzu: Tasviriy san’atda o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta’lim texnologiyalari.

##### Reja:

1. Kirish. O‘quv jarayoni faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta’lim texnologiyalarining ta’riflari
2. Pedagogik texnologiyaning ko‘rinishlari, darajalari, tasnifi.
3. Tasviriy san’at o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dolzarb masalalari.

**1. Kirish.** Ilmiy-texnik taraqqiyot nafaqat aksariyat ishlab chiqarish sohasinigina texnologiyalashtiradi, balki u madaniyat, ta’lim soqalariga ham kirib bormoqda. Bugungi kunda tasviriy san’atdan o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish, ta’lim va boshqa texnologiyalar to‘g‘risida fikr yuritish mumkin.

Tarixan texnologiya tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan va bu tushuncha san’at, hunar va fan haqidagi ta’limotga muvofiq keladi.

Texnologiya deganda, odatda ashyolarni qayta ishlash metodlari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning ilmiy tavsiflarining majmui tushuniladi.

Siyosiy lug‘at (M., 1989)da texnologiyaga shunday izoq beriladi:

1) ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor ashyolarni qayta ishlash, tayyorlash holati, xususiyati, shaklining o‘zgarish metodlari yig‘indisi;

2) ashyolar, materiallar va yarim xom ashyolarga muvofiq ishlab chiqarish qurollari orqali ta’sir o‘tkazish usullari to‘g‘risidagi fan.

«Qomusiy lug‘at»da shunga yaqin izoq beriladi, lekin uni birmuncha kengroq yoritadi: «Fan sifatida texnologiyaning vazifasi har tomonlama samarali va tejimli ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda undan foydalanish maqsadida fizika, kimyo, mexanika va boshqa qonuniyatlarini bajarish.» (M.,1979)

Texnologiya grekcha so‘z bo‘lib, *texnos*- san’at, mahorat, *logos*- ta’limot degan ma’nomlarni bildiradi.

Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta’sir qilishni tashkil etish bo‘yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi.

Hozirgi davr ta’lim texnologiyalari muammosi, pedagogik innovatsiya tajribalari ularni bir tizimga tushirish va aniqlashtirishni talab qiladi. Oliy maktab oldida pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, ularning tasnifi, mohiyatini

ochib berish va o'quv jarayonining texnologikligi muammolarini ta'minlash masalasi turibdi.

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili chuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmdan mustahkam o'rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlari (tezaurus)dagi o'rni hali noma'lumligicha qolmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izshil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

*V.P. Bepalko* pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyiqalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi. Shu tariqa *V.P. Bepalko* o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi, afsuski, pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo'q.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga jadallik bilan kirib borayotgan bo'lsa ham, uning maqomi noaniqligicha qolib ketmoqda. Tadqiqotchilarning ishlarida fan va amaliyot oralig'idan o'rin egallamoqda.

*N.F. Talizina* har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi chart deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi, ularsiz pedagogik jarayon asoslanmay qoladi (texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida).

Tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishda ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

Chunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi.

Bochqa yondachuvda texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va g'arbiy Evropada ta'limni isloq qilinishi bilan boqliq ravishda kirib keldi. *B. Blui, J. Koroll, P. Ya. Galperin, V. I. Davidov, N. A. Menchinskaya, Z. I. Kalmikova, L. I. Zankov* texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari *V. P. Bepalko,*

N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskey, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyuchkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

Texnologik yondashuvlar taqlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kushaytirilgan, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

T.A.Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya'ni o'qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi. Boshqalarida yo kompyuter orqali dasturlashtirilgan o'qitish yoki o'qitishning muammoli tuzilmasi ajralib turadi.

L.V. Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

1. Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. Bu muammoni tadqiq etish o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini aniqlash bilan boqliq.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o'g'itlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«**Pedagogik texnologiya** – o'quv jarayonini amalga ochirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bepalko).

«**Pedagogik texnologiya** – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«**Texnologiya** – ishlov berish, qolatni o'zgartirish san'ati, maqorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. Shepel).

«**Pedagogik texnologiya** – talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir.»(V.M.Manaxov).

«**Pedagogik texnologiya** – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izshil metodidir» (YuNESKO).

«**Pedagogik texnologiya** – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo‘lishning tizimli yig‘indisi va tartibini bildiradi»(M.V.Klarin).

«**Pedagogik texnologiya** – o‘zida turli mualliflar (manbalar)ning barsha ta’riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlachma hisoblanadi». (G.K. Selevko).

Bu ta’riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo‘lga kiritish uchun ta’lim doirasida zarur bo‘lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin.

Ta’lim texnologiyasi deganda ta’limning belgilangan maqsadi va talabaning bilim darajasiga ko‘ra o‘quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo‘lishini ta’minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

Tasviriy san’atdan o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etishda o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya biror nazariya va maqsad asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik tizimning amalda bo‘lishi, uning moslanuvchanligi hamda talabaning shaxsiy xususiyatlari, ularning texnologik va individual me’yorlari bilan bog‘langan. Bunda ushbu texnologiyalarning moslashuvchanligi, ularning variativligi, talaba xatti-harakatlarining bosqishlilikligi muxim ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san’atdan o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etishda o‘qitish texnologiyasi satqida o‘quv jarayonining barcha komponentlari yoritiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya asosida talabalarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta’lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta’minlash, faollikni ochirish, o‘z-o‘zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.

Bu tadqiqotlarni taqtil qilgan holda ushbu ta’rifni berish mumkin:

Pedagogik texnologiya ta’lim maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanichiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlantirish tizimi loyihasidir.

## **2. Pedagogik texnologiyaning ko‘rinishlari, darajalari, tasnifi.**

Pedagogik faoliyatda «texnologiya» atamasining qo‘llana boshlashi bilan pedagogik amaliyot, uning nazariy jihatlari hamda ular haqidagi bildirilayotgan mulohazalar bir muncha yuqori ilmiy darajaga ko‘tarilmoqda.

Pedagogik texnologiya hozirgi zamondagi didaktika va pedagogika taraqqiyotining ma’suli. Uni pedagogikaning hozirgacha mavjud bo‘lgan hamda takomillashib kelayotgan barcha asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy vazifalarni yanada yuqoriroq darajada amalga oshirish yo‘lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin.

Shu nuqtai nazarlardan pedagogik texnologiyani avvalo hozirgi pedagogika fani taraqqiyoti natijasida hosil bo'lgan yangi yo'nalish deb hisoblagan holda, uning o'ziga xos bo'lgan tamoyillari, qoidalarini chuqur o'rganib borish va pirovardida qonuniyatlarini aniqlash yo'lidagi muammolarni yechish lozimligi ko'rinib turibdi.

Pedagogik texnologiya avvalo ta'lim-tarbiyani yanada rivojlantirish ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi insonlar (pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik) faoliyatidan iborat ijtimoiy hodisa hisoblanishi lozim.

Har qanday ijtimoiy hodisalar kabi pedagogik texnologiyani ham ilmiy jihatdan o'rganuvi fan sohasi mavjud bo'lib, uni pedagogik texnologiya fani deb nomlanadi. Shu pedagogik texnologiya fani o'z navbatida zamonaviy ta'lim-tarbiyaning eng maqsadga muvofiq yo'llari va usullarini tadqiq qiluvchi nazariy fan hamda o'quv fani turlariga ajraladi.

Shu bilan birga pedagogik texnologiya amaliy faoliyat yo'nalishi sifatida tasviriy san'atdan o'quv faoliyatni modernizatsiyalashda o'quv-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tamoyillar, algoritmlar va boshqaruv tizimi hamda bevosita ta'lim-tarbiya jarayonini o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy hayotning turli sohalari bilan o'zaro bog'liq ravishda shakllanib va rivojlanib borishi natijasida turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bular pedagogik texnologiyaning quyidagi ko'rinishlaridan iborat: ijtimoiy hodisa, nazariy fan, o'quv fani, ta'lim-tarbiya tizimi, jarayoni, pedagogik faoliyat va uning metodikalari hamda aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot sohasi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy hodisa sifatida ta'lim-tarbiya masalalari bilan bog'liq motivlar: ehtiyoj, talab, manfaat, qiziqish, maqsadlardan kelib chiqadi va ularni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga xuddi shunday motivlar har bir shaxsda, oilada ham mavjud. Jamiyat har bir a'zosining ta'lim-tarbiya darajasi ortib borishi shu jamiyat va davlatning rivojlanishidagi eng asosiy shartlardan hisoblanadi.

Bu shartning bajarilishi esa o'z navbatida, pedagogik texnologiyaning qanchalik yuqori darajada ekanligiga bog'liq. Bundan esa pedagogik texnologiya shaxs, oila, jamiyat, davlat hayoti uchun katta ahamiyatga ega ijtimoiy hodisa ekanligi ko'rinadi.

Pedagogik texnologiya nazariy fan sifatida pedagogika fanining alohida yo'nalishini tashkil qiladi. O'z maqsadi, vazifalari, muammolari, metodologiyasi va boshqa nazariy asoslariga ega. O'z muammolarini hal qilishda boshqa ko'p fanlar bilan bog'liqliklarga ega.

Pedagogik texnologiya nazariy fan sifatida ta'lim-tarbiya sohasida kafolatli natijaga erishib berish darajasini oshirish muammolarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi.

O'quv fani ko'rinishida pedagogik texnologiyalarni ijtimoiy hodisa, nazariy fan, ta'lim-tarbiya tizimi, jarayoni, pedagogik faoliyat va uning metodikalari, aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot sohasi sifatida turli ta'lim muassasalarida belgilangan o'quv dasturi asosida o'rgatishdan iborat.



Ta'lim-tarbiya tizimi ko'rinishida pedagogik texnologiya belgilangan ta'lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi moddiy ta'minot va ma'naviy qadriyatlardan iborat. Bunga o'quv reja, dasturlar va didaktik vositalar ham kiradi. Bu tizim boshqa ijtimoiy tizimlari kabi tegishli maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislar mehnati orqali faoliyat olib boradi.

Hozirda bu tizim uzluksiz ta'lim bosqishlaridan tashkil topgan. Uzluksiz ta'limning hamma bosqishlarida pedagogik texnologiyalar joriy qilinishi bilan bu tizimning to'liq shakllanishi amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoni sifatida ishtirokchilarining faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonning pirovard maqsadi barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo'lib, asosan quyidagilardan tarkib topadi:

- ta'lim-tarbiya berish;
- axborotlarni avloddan-avlodga uzatish;
- mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- bilim, ko'nikma, malakalarni o'rgatish va o'zlashtirilishiga erishish;
- turli metodikalarni qo'llash va takomillashtirish;
- diagnostika, monitoring olib borish;
- insonparvarlik, xalqparvarlik, mafkuraviy tamoyillarga asoslanish;
- talaba ning tayyorgarlik darajasini, psixologik, fiziologik, yosh xususiyatlarini, gigienik talablarni hisobga olish;
- ta'lim menejmenti, marketingi talablari va xulosalarini, ijtimoiy motivlarni hisobga olish.

Pedagogik faoliyat va uning metodikalari qurilishida pedagogik texnologiya o'zini to'liq namoyon qiladi. Pedagogik texnologiyaning harakatga kelishi va undan ko'zda tutilgan natijaga erishish faqat pedagogik faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Shunki pedagogik texnologiya va pedagogik faoliyat bir-biridan ajratish qiyin tushunshalar hisoblanadi va ularning biri ikkinchisiz o'z ma'nosini va ahamiyatini yo'qotadi.

O'quv fanlarining soni ko'pligini hisobga olganda, pedagogik faoliyatning ko'p qismi xususiy (o'quv fanlari) pedagogii texnologiyasi uchun sarflanadi. Shuning uchun xususiy fanlar darajasidagi pedagogik texnologiyalar ko'proq tarqalgan. Shu aytilganlar asosida pedagogik texnologiya, eng avvalo, pedagogik faoliyat va uning metodikalari ko'rinishida namoyon bo'ladi va rivojlanib boradi, deb hisoblash mumkin.

Aloqador fanlarning ilmiy tadqiqot sohasi sifatida pedagogik texnologiyalarning turli fanlar bilan bog'liqlari yaqqol ko'rinadi. Pedagogik texnologiya keng ko'lamlı ijtimoiy hodisa bo'lib, u ko'p fanlarning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Bunda har bir fan o'z maqsad va vazifalariga muvofiq yo'nalishlarda pedagogik texnologiyani chuqur o'rganishi natijasida uni takomillashtirib borish yo'l-yo'riqlari belgilab boriladi.

Pedagogik texnologiya barcha o'quv fanlari bilan bog'liq bo'lib, ularning hamda o'zining muntazam rivojlanib borishini kadrlar tayyorlash orqali ta'minlab turadi.

Pedagogik texnologiyaning yuqorida aytilgan ko‘rinishlarining asosiy belgilarini aniqlash va umumlashtirgan holda qisqa shaklda ifodalash orqali uning asosiy ta‘rifini va boshqa belgilarini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, hozirda pedagogik texnologiyani ijtimoiy xodisa, nazariy fan, o‘quv fani, ta‘lim-tarbiya tizimi, ta‘lim-tarbiya jarayoni, pedagogik faoliyat va uning metodikalari hamda aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot sohasi ko‘rinishlarida mavjud deb hisoblanadi.

#### Pedagogik texnologiya darajalari

Yuqorida aytilganlar asosida pedagogik texnologiyalarni umumpedagogik, xususiy (o‘quv fanlari) va kichik texnologiyalardan iborat uchta darajaga ajratiladi.

Umumpedagogik texnologiya turli darajadagi tizimlarni ifodalaydi. U ayrim hududdagi, tumandagi, ta‘lim muassasasidagi yoki ta‘limning ayrim pog‘onasidagi barcha ta‘lim-tarbiya jarayoniga tegishli bo‘ladi. Umumpedagogik texnologiya o‘z hududi yoki ta‘lim muassasasidagi ta‘lim-tarbiyaviy maqsadlar, mazmun, vositalar, boshqaruv shakli va usullari, o‘quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatining algoritmlarini belgilaydi.

Xususiy texnologiya ta‘lim-tarbiya mazmunining ayrim yo‘nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuasini o‘z ichiga oluvchi pedagogik tizimlarni qamrab oladi. Bunga ayrim fanlarni o‘qitish texnologiyalari, rahbarning, o‘qituvchining, tarbiyachining va talaba ning ishlash texnologiyalari kiradi.

Kichik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayonining aloxida qismlarini o‘z ichiga oladi. U ayrim didaktik va tarbiyaviy masalalarni hal qilish bilan shug‘ullanadi. Bularga darslar texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va mustaqil ishlash texnologiyalari, ayrim faoliyat turlari va alohida shaxsiy sifatlarni tarbiyalash texnologiyalari, o‘quv materiallarini takrorlash, o‘zlashtirishni va tarbiyalanganlikni nazorat qilish texnologiyalari hamda ayrim tadbirlarni tashkil qilish va amalga oshirish texnologiyalari kiradi.

#### Pedagogik texnologiya tasnifi

Maktablar ishining hozirgi nazariyasi va amaliyotida o‘quv-tarbiya jarayonining ko‘plab variantlari mavjud. Har bir muallif hamda amaliyotchi pedagogik jarayonga o‘zining individual ulushini qo‘shadi. Lekin ko‘p texnologiyalar o‘z maqsadlari, mazmuni, qo‘llanadigan metodlari va vositalari bo‘yicha etarlicha ko‘p o‘xshashliklarga ega va ularni shu umumiy belgilariga ko‘ra tasnif qilish mumkin.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi belgilariga ko‘ra tasnif qilinadi:

- qo‘llanish darajasiga ko‘ra;
- falsafiy asosi bo‘yicha;
- asosiy rivojlantiruvchi omili bo‘yicha;
- o‘zlashtirish konsepsiyasi bo‘yicha;
- shaxsiy belgi-sifatlariga ko‘ra yo‘nalganligi bo‘yicha;
- mazmuni xususiyatlari bo‘yicha;
- boshqaruv turi bo‘yicha;
- bolaga yondashuv bo‘yicha;
- ko‘p qo‘llaniladigan metodlari bo‘yicha;

— ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha.

Shu yuqorida aytilgan tasnif asosida misol sifatida hozirgi an'anaviy maktab ta'limini quyidagicha tasniflash mumkin:

— qo'llanish darajasiga ko'ra: umumpedagogik;

— falsafiy asosi bo'yicha: majburlash pedagogikasi (umumiy majburiy ta'lim);

— asosiy rivojlantiruvchi omili bo'yicha: sotsiogen, yani asosiy e'tibor jamiyatning faol a'zolari bo'lgan barkamol insonlarni tarbiyalashga qaratilgan; shu bilan bir vaqtda biogen omillarga, ya'ni shaxsning har tomonlama rivojlanishiga ham e'tibor qaratilgan holda;

— o'zlashtirish konsepsiyasi bo'yicha: assotsiativ-reflektor bo'lib, suggestiya (namuna, misol, o'rnak, ibrat ko'rsatish)ga tayangan holda;

— shaxsiy belgi-sifatlarga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha;

— axborotli, ya'ni bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan;

— mazmuni xususiyatlari bo'yicha: dunyoviy, texnokratik, umumta'lim mazmunida bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va olib borishda didaktikaga markaziy o'rin beriladi;

— boshqaruv turi bo'yicha: an'anaviy-mumtoz (klassik) bo'lib, unga ta'limning texnika vositalari qo'shilgan;

— bolaga yondashuv bo'yicha: avtoritar;

— ko'p qo'llaniladigan metodlari bo'yicha: tushuntirish-illyustratsiyalash;

— ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha: ommaviy.

Shu bilan bir vaqtda, jamiyatning rivojlanishi alohida mamlakatlarda va umuman jahonda insonparvar falsafiy asosdagi yangi pedagogik texnologiyalarni yaratdi. Bular ham yuqorida aytilgan belgilarga ko'ra quyidagicha tasnif qilinishi mumkin: hamkorlik pedagogikasi, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim, programmalashtirilgan ta'lim, guruhli texnologiyalar va boshqalar.

Pedagogik texnologiyalarni tasniflashda ularning eng yaqqol ajralib turadigan xususiyatlariga asoslaniladi. Aslida esa har bir pedagogik texnologiya sof holda uchramaydi, ularda boshqalariga xos bo'lgan elementlar albatta mavjud bo'ladi.

Masalan, aqliy hujum, ishchanlik o'yini, ro'lli o'yin kabi interfaol mashg'ulotlar tarkibida hamkorlik, bola shaxsiga yo'naltirilgan, muammoli, didaktik o'yin kabi pedagogik texnologiyalar elementlari albatta mavjud. Xuddi shunday tahlilni tasviriy san'atdan o'quv faoliyatida har bir pedagogik texnologiya shakillari va usullariga nisbatan ham o'tkazish hamda sof holda ajratib olish mumkin bo'lgan alohida texnologiya aslida amalda yo'qligiga ishonch hosil qilish mumkin.

### **3. Tasviriy san'at o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dolzarb masalalari.**

Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish va uni zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan, jahon andazalari

darajasidagi tizimni yaratish umumdavlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi.

Ta'lim sifati mazkur tizimning holati va samaradorligini belgilaydigan mezon hisoblanib, ta'lim jaraènida erishilgan natijalarning me'èriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtièjlarga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Ta'lim sifati nafaqat o'quv jaraèni natijalari, balki mazkur natijalarni shakllantiruvchi omillarni ham ifodalaydi. Bu omillar ta'lim maqsadi, ta'limni tashkil etish shakli, metod vositalari, o'qituvchilar tarkibi, salohiyati, pedagogik faoliyati, ta'limiy dasturlar va ta'lim texnologiyalari, resurslar va ulardan foydalanish shart-sharoitlari, ta'limning tashkiliy-huquqiy, moddiytexnik ta'minoti, axborot va uslubiy ta'minot, shuningdek, tarbiyaviy ishlar sifatidan iborat.

Ta'lim jaraèniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish esa ta'lim natijalari hamda mazkur omillar sifatini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammosi shaxsni rivojlantirish hamda uni haètga tayèrlashga yo'naltirilgan kompleks vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, ta'lim sièsatining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Dars - ta'lim beruvchi tomonidan èshi va ma'lumoti jihatidan bir xil bo'lgan ta'lim oluvchilar guruhiga o'quv rejasi, o'quv dasturi talablari va qat'iy dars jadvali asosida muayyan vaqt ichida bilim berish, malaka hosil qilish bo'yicha muayyan mashg'ulotdir. "Dars bu - o'qituvchining umumiy va pedagogik madaniyatining ko'zgusi, intellektual boyligining o'lchovi, uning bilim doirasining ko'rsatkichidir. O'qituvchi o'quv texnologiyasining bevosita yetkazuvchisi sifatida mashg'ulotlarga jiddiy tayèrlangan, yangiliklardan boxabar bo'lgani holda dars jaraèini qiziqarli olib borishi lozim.

Dars beraètgan faniga taalluqli didaktik materiallarni, darsliklarni, uslubiy qo'llanmalarni va elektron o'quv vositalarini ham mukammal o'rganishi, shuningdek, ularni darslarida qo'llay olish, faoliyatini muntazam yangilab borishi davr talabidir.

Tasviriy san'atni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning zaruriyati. Zamonaviy ta'lim texnologiyasida darsni tashkil etishga doir qator umumpedagogik-didaktik talablar qo'yiladi.

Bular:

- har bir dars texnologik jihatdan mukammal darajada loyihalashtirilishi; - dars maqsad va vazifalarining aniq belgilanishi;
- darsda ta'lim vazifalarining tarbiya vazifalari bilan bog'liq bo'lishi;
- darsni o'quv dasturi, o'quv rejasi talabiga muvofiq tashkil etish; - dars uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish;
- darsning tashkiliy jihatdan puxta belgilangan bo'lishi;

- darsning jonli, samarali va ta'lim oluvchilarga emotsional ta'sirli bo'lishi uchun ta'lim beruvchining turli xil zamonaviy va ilg'or ta'lim usullari, vositalari va ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan mohirlik bilan foydalana olishi;
- ta'lim beruvchining rahbarlik roli bilan ta'lim oluvchilarning faol bilish faoliyatini birga olib borish;
- darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish;
- ta'lim oluvchilarning èsh va psixologik, shuningdek, mutaxassislik xususiyatlarini inobatga olish;
- darsni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish; - darsda ta'lim oluvchi erkinligini ta'minlashga erishish;
- darsda ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash hamda o'z fikrini baèn etishiga undash va imkon yaratish;
- dars davomida ta'lim oluvchilar faoliyatini to'g'ri tashkillashtirish, muammoli izlanuvchanlik laèqatlarini rivojlantirish;
- dars jaraènida o'qitishning jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini mos ravishda qo'shib olib borish;
- ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatlarining atroflicha nazorat qilinishi va adolatli darajada baholanishi va h.k.

Darslarda, masalan, tabiatshunoslik va uni o'qitish uslubièti darslarida o'rganish ob'ektlari hisoblangan ko'rgazmali qurollarni ikkita guruhga: tabiiy jismlar va o'qitish uchun maxsus tayèrlangan, jism va hodisalarning tasvirlariga ajratish mumkin.

Tabiiy jismlarga tog' jinslari, minerallar, tuproq namunalari, o'simliklar, hayvonlarning tabiat burchagidagi asliy namunalari èki tulumlar kiradi.

Ko'rgazmali qurollar sathi (suratlar, disklar, multimedialar, diafilmlar, diapozitivlar, rangli rasmlar, mavzuga oid jadvallar) va hajmli (modellar, maketlar, mulyajlar, ho'l preparatlar, asliy namunalar, kolleksiyalar, gerbariylar, plan, xarita, globus, doskada rasm chizish)ga ajratiladi. Har ikkisi ham harakatsiz va harakatli bo'lishi mumkin.

Dars samaradorligini oshirishda o'quv vositalarining ahamiyati judda kattadir. Bularga darsliklar, o'quv qo'llanmalari, radio eshittirishlari, televidenie ko'rsatuvlari, gazeta va jurnallar, elektron darsliklar, kodoskop, proeksion rangli rasmlar, slaydlar, kompyuterlar, hamda o'qitishning barcha zamonaviy texnik vositalari, tajribalar o'tkazish uchun jihozlar, kundalik kuzatish daftari, o'lkashunoslik burchagi, geografiya maydonchasi va undagi jihozlar, maktab o'quv-tajriba maydonchasi kiradi.

O'qituvchi fanning istiqbollari haqida umumiy tasavvurga ega bo'lmay turib, chuqur asoslangan dars o'tkazishiga umid qilish qiyin. O'quv fanidagi g'oyalari va mavzularning izchilligi va o'zaro bog'liqligini tasavvur etgan holda o'qituvchi dars mashg'uloti jaraènida dars mazmunidan tashqari darsda foydalaniladigan qo'shimcha manbalar (she'rlar, maqollar, matallar, topishmoqlar,

èzuvchilarning asarlaridan parchalar, haèt bilan bog‘liqlik, fanlararo bog‘lanishlar)dan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Darslar samaradorligi o‘qitish uslublari to‘g‘ri tanlanganida va ularni ko‘rgazmali qurollar, o‘quv vositalari bilan uyg‘unlashtirilganda sezilarli darajada ortadi. O‘qitishning zamonaviy texnika vositalari va axborot texnologiyalaridan mohirona foydalanish dars samaradorligini ta‘minlaydi va o‘quv mehnati intensivligini hamda o‘quv jaraèni texnik madaniyatini oshiradi. Hozirgi paytda ko‘p mamlakatlar, shu jumladan respublikamiz uzluksiz ta‘lim tizimida ham turlicha nomlangan texnologiyalardan foydalanilmoqda.

**MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO‘YICHA SAVOLLAR:**  
(savol-javoblar)

t/r	Savollar	Javoblar
1	Texnologiya va pedagogik texnologiyalarning umumiy va xususiy jixatlari nimalardan iborat?	
2	An‘anaviy darsning yutug‘i va kamchiliklarini aytib bering?	
3	Pedagogik texnologiya va tasviriy san‘at o‘qitish metodikasiga oid qanday o‘quv adabiyotlarni o‘qigansiz hamda uning qisqacha mazmuni, sifati haqidagi fikringiz nimalardan iborat?	
4	Tasviriy san‘at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliy tatbiqidagi qanday muammolarni ko‘rsata olasiz?	
5	Ta‘limda innovatsion texnologiyalar haqidagi maolumentga egamisiz?	

**MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI**

**1. Avtobiografik xarakterga ega hujjatlar to‘plami, individual papka qanday nomlanadi?**

- a) test;
- b) portfolio;**

- c) sillabus;
- d) assesment.

**2. Talabaning indiviudal ta'limiy muvaffaqiyatlari aks ettiruvchi diplom, faxriy yorliq, guvohnoma va boshqalar jamlanadigan portfolio qanday nomlanadi?**

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;
- c) ishlar portfoliosi;
- d) hujjatlar portfoliosi.**

**3. Talaba tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar, loyihalar, tadqiqotlar, ularning natijalarini aks ettiruvchi reyting daftarchasi, ijodiy ish daftari, elektron hujjatlar, modellar, loyihalar, ijtimoiy, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyotga doir hisobotlar, talaba tomonidan mustaqil yoki guruhdoshlar bilan hamkorlikda to'plagan adabiyotlar, davriy nashrlarning kseronusxalari, illyustratsiyalar joy oladigan portfolio – bu ...**

- a) baholovchi portfolio;
- b) taqriz portfoliosi;
- c) ishlar portfoliosi;**
- d) hujjatlar portfoliosi.

**4. Talabaning o'zi yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlari o'rin oladigan portfolio qanday nomlanadi?**

- a) baholovchi portfolio;
- b) taqrizlar portfoliosi;**
- c) ishlar portfoliosi;
- d) hujjatlar portfoliosi.

**5. Talabaning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida shakllantirilib, nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalardan tarkib topadigan portfolio – bu ...**

- a) baholovchi portfolio;**
- b) natijalar portfoliosi;
- c) taqrizlar portfoliosi;
- d) On-line portfolio.

**6. Talaba tomonidan erishgan yutuqlarni baholashga doir xulosa, taqriz, rezyume, esse, tavsiyanoma va tavsifnomalar jamlanadigan portfolio qanday nomlanadi?**

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;**
- c) taqrizlar portfoliosi;
- d) On-line portfolio.

**7. 1) talabalar tomonidan oliy ta'lim muassasasi yoki fakultet saytiga materiallarni qo'shish; 2) shaxsiy veb-saytlarni yaratish; 3) semestr yakunlari bo'yicha hisobot tayyorlash kabi shakllarda namoyon bo'ladigan portfolio – bu ...**

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;
- c) taqrizlar portfoliosi;
- d) On-line portfolio.**

8. Istiqbolli ish o'rniga ega bo'lish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, fan olipiadalarda ishtirok etish, nomdor hamda Prezident stipendiyasiga talabgor bo'lish hamda shaxsiy maqsadlarni amalga oshirishda amaliy ahamiyat kasb etuvchi hujjatlar to'plami qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) pedagoglar portfoliosi;
- b) talabalar portfoliosi;**
- c) rahbarlar portfoliosi;
- d) ekspertlar portfoliosi.

**9. Talabalar portfoliosining yaratilishi necha bosqichda amalga oshadi?**

- a) 2 bosqichda;
- b) 3 bosqichda;**
- c) 4 bosqichda;
- d) 5 bosqichda.

**10. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?**

- a) o'zgartirish kiritish;
- b) qo'shimcha kiritish;
- c) yangilik kiritish;**
- d) taklif kiritish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**



1. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. – 68 b.
2. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Direktorning ish kitobi (amaliy tavsiyalar). – T.: «Fan va texnologiya» nashriëti, 2007. - 122 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.-180 b.
4. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).– T.: Iste'dod, 2010.-140 b.
5. Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i osnovnyx konspektax./ M.:Ayrisspress, 2006.
6. Kolechenko A.E. Ensiklopediya pedagogicheskix texnologiy: Posobie dlya prepodavateley. – SPb.: KARO, 2002 g.
7. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma).-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.
- 8.Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do'stona muhit yaratish omili. -T.: YuNISEF, 2005 y.

## **2-Mavzu: Intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash texnologiyasi va ta'lim mazmunini yaratish.**

### **Reja:**

- 1. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash texnologiyalari.**
- 2. Tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishning mazmuni va mohiyati.**

**Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash texnologiyalari.** Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari tasviriy san'atda egallayotgan bilimlari mustahkam bo'lishiga, ularning qo'shimcha adabiyot o'qib, tasviriy san'at o'qituvchilarining mustaqil izlanishlariga, tasviriy san'at materialni o'zlari qiyosiy tahlil qila olishlari va ular asosida xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shu bois ta'lim metodlariga jiddiy e'tibor berish hozirgi kun talablariga aylandi.

Odatda, darsning ta'limiy maqsadiga bir emas, bir necha metodlardan foydalanish evaziga erishiladi. Agar samaradorlik darajasi pasaysa yoki o'sish kuzatilmasa, darrov metodni o'zgartirish lozim bo'ladi. Chunonchi, yangi mavzu bayoni bosqichida muammoli vaziyat hosil qilish uchun «Aqliy hujum», «Tanqidiy

tafakkur», «Klaster» metodlaridan, zaruriyat tugʻilganda anʼanaviy tushuntirish metodidan ham foydalanish mumkin.

Tasviriy sanʼatda oʻquv jarayoni va oʻquv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion taʼlim texnologiyalari har bir darsni turli va eng yaxshi saralangan oʻqitish metodlarini qoʻllagan holda tashkil etish, tinglovchilarning mustaqil aqliy faoliyatini faollashtirishga, tinglovchilarning nazariy bilimlarni toʻliq oʻzlashtirishlariga yordam beradi, oʻz kasbiga qiziqishi ortib borishiga olib keladi. Bu darslarda berilayotgan ilmiy-nazariy bilimlar yordamida tinglovchilarda mustaqil fikr hosil boʻlishiga sharoit yaratiladi. Aksincha, bir xil metodning qoʻllanilishi yoki metodning notoʻgʻri tanlanishi esa tinglovchilardagi qiziqishni soʻndiradi, uning aqliy faoliyatini susaytiradi. Bu oʻrinda shuni alohida qayd qilib oʻtish kerakki, oʻqituvchi interfaol usullarni qancha koʻp bilsa, oʻz faoliyatida faqat yagona bir metodning oʻzi bilan chegaralanib qolmaydi, pedagogda ularni bir-biriga qiyoslab, darsning taʼlimiy maqsadlariga muvofiqʻini tanlab dars oʻtish imkoniyati paydo boʻladi.

Demak, oʻqituvchi bir emas, bir necha pedagogik usullarni yaxshi bilishi va zaruriyat tugʻilganda ularni oʻzaro qiyoslab, darsning turli bosqichlarida almashtirib qoʻllashi maqsadga muvofiqdir. Xususan, taʼlimiy didaktik oʻyinlardan foydalanish muhim oʻrin tutadi. Tinglovchilar psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan boʻlsak, oʻyin dunyoni va oʻzlikni anglashda, qiziqishlarini qondirishda, tinglovchilarning ijodiy tafakkurini oʻstirishda asosiy vosita hisoblanadi. Taʼlimiy oʻyinlar bilimlarni oʻzlashtirish jarayonini engillatishga, tinglovchilarni jalb etishga yordam beradi. Quyida ishlanmalarda tavsiya etilgan taʼlimiy didaktik oʻyinlar va pedagogik metodlar haqida maʼlumot beramiz.

**1. «Klaster» metodi.** Klaster «gʻuncha», «bogʻlam» degan maʼnoni bildirib, tinglovchilarga ixtiyoriy mavzular xususida erkin, ochiq oʻylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil gʻoyalar oʻrtasida aloqalar, uzviylikni aniqlash, izchillikni tushunish imkoniyatini beruvchi, bilganlarini tizimlashtirishga yordam beruvchi metoddir. «Klaster» metodidan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bogʻliq ravishda amalga oshadi. Ushbu metodni barcha taʼlim bosqichlarida: boshlangʻich auditoriyalardan tortib to oliy taʼlimgacha barcha bosqichlarda oʻtkazilishi mumkin.

Metod tinglovchilar tomonidan bildirilayotgan gʻoyalarning majmui tarzida namoyon boʻladi. Bu esa ilgari surilgan gʻoyalarni umumlashtirish va ular oʻrtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

«Klaster» usulini bir tinglovchi yoki guruhlarda qoʻllash mumkin. Bunda tinglovchi nimani oʻylagan boʻlsa, shuni aytadi yoki chizadi. Yozilgan fikrlar toʻgʻri yoki notoʻgʻri boʻlishidan qatʼiy nazar muhokama qilinmaydi. Bu jarayon

belgilangan vaqt tugaguncha davom etadi. Shu tarzda har bir tinglovchi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi. «Klaster» usuli yangi mavzuni boshlashdan avval tinglovchi darsga qiziqtirib, shu mavzu bo'yicha avval egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida yoki o'tilgan mavzuni so'rash uchun o'tkaziladi. Masalan, ma'lumki, tasviriy san'at darsida amaliy san'at turlari mavzusiga bag'ishlanadi. Shundan kelib chiqib, talaba lar ushbu so'zni yadro sifatida doira o'rtasiga joylashtirib, shu tushunchaga aloqador so'zlarni yozib chiqadilar. Masalan:



**2. «Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim» (BBB) metodi.** Ushbu metod tinglovchilarga muayyan mavzular bo'yicha o'z bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida tinglovchilar bilan ayrim guruhda yoki butun auditoriya bilan ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Bunda tinglovchilar o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib bo'lgach, mashg'ulot yakunida o'z fikrlarini quyidagicha umumlashtiradi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Bu jadvalni doskaga chizib qo'yish va tinglovchilar tomonidan to'ldirib borish kerak, shunda natija juda samarali bo'ladi. Bu metodni nazariy-san'atshunoslik bilimlarni mustahkamlashda qo'llash, metoddan foydalanish uchun quyidagi tayyorgarlik bosqichini amalga oshirish samarali natija beradi:

- tinglovchilarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha

tushunchalarga egalik darajalarini aniqlash;

- tinglovchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish;
- tinglovchilarni mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtirish.

Shundan so'ng metod quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

- tinglovchilarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalari darajasi o'rganiladi va talabalar tomonidan qayd etilgan tushunchalar jadvalning 1-bandiga yozib boriladi;

- tinglovchilarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi va qayd etilgan tushunchalar jadvalning 2-bandiga yozib qo'yiladi;

- o'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlar bilan talabalarni tanishtiradi;

- tinglovchilar o'zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi va ular jadvalning 3-bandiga yozib qo'yiladi.

Mashg'ulot yakunida jadvalning barcha bandlari to'ldiriladi. Bu metod orqali tinglovchilar o'zlari bilim darajalari, xohish-istaklari, intilish-qiziqishlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

**3. «So'nggi axborot» o'yini.** Bu o'yinni har darsning boshlanish bosqichida o'tkazib turish yaxshi natija beradi. Tinglovchilarning hafta ichida o'zlari eshitgan, ko'rgan yangiliklari xususida so'zlab beradilar. Bu ish turi tinglovchilar bog'lanishli nutq malakalarini rivojlantirishga, so'z so'rash, so'zga chiqish, bir-birining fikrini davom ettirish, o'zini xuddi suxandonlar, jurnalistlar kabi tutish odobini o'rganishga yordam beradi. Bu o'yin tinglovchilarning og'zaki nutqini o'stirishga, yangiliklarni o'zbek tilida eshitish, ularni birinchi bo'lib so'zlab berishga intilish, chiroyli va bexato gapirishni o'rgatishga sabab bo'ladi.

**4. «Taqdimot» usuli.** tinglovchilarga respublikamiz tarixiy shaharlari bo'yicha obidalar haqida ma'lumotlar to'plash va ularni mustaqil ravishda taqdim qilish topshirig'ini berish samarali natija beradi. Bunda «Taqdimot» usulidan foydalaniladi. Buning uchun tinglovchilar kichik guruhlariga bo'linadi yoki har bir tinglovchiga bittadan shahar bo'yicha ma'lumot to'plash va uni taqdim qilish topshirig'i beriladi. Guruh a'zolari belgilangan daqiqa ichida shu shaharning tarixi va hozirgi holati haqida ma'lumot taqdim qilishlari kerak.

**5. Guruhlarga bo'linib ishlash.** Bu interfaol usulni quyidagicha tashkil etish mumkin. Tinglovchilar guruhlariga bo'linadi va har bir guruhga mavzu bo'yicha alohida topshiriq beriladi. Belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari hamkorlikda ishlab, o'zlariga berilgan topshiriq bo'yicha imkon boricha kengroq ma'lumot topishlari kerak. So'ngra guruh a'zolaridan biri ushbu ma'lumotni og'zaki bayon etadi, boshqasi chiqib to'ldirishi ham mumkin. Eng ko'p va keng ma'lumot

bergan guruh g'olib bo'ladi.

Bu interfaol usul tinglovchilarda faollik, mustaqil fikr bidirishga intilish, o'z iqtidorini namoyon qilishga intilish, mantiqiy jihatdan to'g'ri fikrlash va o'z fikrini boshqalarga uqtira bilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

**6. Boshqotirmalar bilan ishlash** ham ularning so'z boyligini oshirishda, ularni jonlantirish, ijodiy va mustaqil fikrlashga o'rgatishda juda muhim. Kuchliroq guruhlarda tinglovchilarning o'zlariga boshqotirma tuzishni topshirish ham mumkin. Tinglovchilar bunday ish turlari va topshiriqlarni juda katta qiziqish bilan bajaradilar.

**7. «Kinotopishmoq» o'yini.** Tinglovchilarga televizor orqali ayrim filmlardan parchalar ko'rsatiladi. Tinglovchilar ushbu parcha qaysi filmdan olinganligi, shu filmning mazmunini qisqacha so'zlab berishlari, aktyorlar, rejissyorlar, yozuvchilar haqida ma'lumot berishlari kerak. Ma'lumotlarning qay darajada to'liqligi tinglovchilarning baholarini ko'rsatadi. Taqdim qilinadigan film o'zbekfilm namunalaridan biri bo'lishi va u o'zbek tilida namoyish qilinishi shart. Bu boshqa millat vakillarining ushbu filmlarni o'zbek tilida tomosha qilishga, O'zbekiston san'ati va adabiyoti namoyandalari bilan tanishib borishlariga yordam beradi.

Ijodiy erkinlik beradigan mustaqil ishlash imkoniyatini beradigan ish turlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Shu bois bir darsda turli xil metodlardan foydalanish mumkin, biroq o'yinlarni haddan ziyod ko'paytirib yuborish tinglovchilarni ta'limiy maqsadlaridan chalg'itadi, tasviriy san'at ma'lumotlarni izchil o'zlashtirishga xalal beradi. Shuning uchun bu auditoriyalarda tavsiya qilinayotgan o'yinlar va boshqa metodlarni o'rni bilan aynan san'atshunoslik mavzuga bog'lagan holda, asosan, ushbu mavzularni mustahkamlash va takrorlash maqsadida o'tkazish tavsiya etiladi.

**8. «Zakovat yoki zukkolar» o'yini.** Bu metod tinglovchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Tinglovchilar o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga berilgan to'g'ri javob uchun turli ballar belgilanadi. Tinglovchilarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

**9. «Charxpalak» metodi.** Bunda tinglovchilar guruhlarda hamkorlikda ishlaydilar. Auditoriyada tinglovchilar uch guruhga bo'linib, har bir guruhga 3 ta vatman qog'ozi, uch xil rangdagi qalam yoki marker va uch xil muammoli savol beriladi. Har bir guruh belgilangan vaqt ichida varaqlarini bir-birlari bilan almashib, o'z fikrlarini yozadilar. Varaqlar uch marta yoki 4 marta almashtiriladi. Vaqt tugagach, har bir guruhning o'z varag'i o'zida to'xtashi kerak. So'ng rangli

markerlarning yozilishiga qarab har bir guruh qancha fikr yoza olganligi aniqlanib, tinglovchilar baholanadi, rag‘batlantiriladi. Bu usul orqali tinglovchilarning mustaqil fikrlashlariga, ularning yozma nutqini rivojlantirishga, bir-birining fikrini to‘ldirishga, bir vaqtning o‘zida butun auditorining bilimini tekshirishga imkon yaratiladi.

**10. «Kim ko‘p biladi?» metodi** fanlararo bog‘lanishni rivojlantirishga yordam beradigan ish usulidir. Boshqa tilni o‘zlashtirishda o‘lkashunoslik materiallari bilan ishlash tinglovchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga, tinglovchilarga o‘zi yashaydigan zaminga hurmat, ularni yaxshi bilish, qadrlash tuyg‘ularini singdirishga yordam beradi. Buning uchun 3 qatorga o‘lkashunoslik bo‘yicha alohida topshiriqlar beriladi. Jumladan, har bir guruh topshiriqlar berilgan jadvalni to‘ldirishi kerak:

- |          |                                             |
|----------|---------------------------------------------|
| 1-qator: | 1. O‘zbekiston hududidagi tarixiy vodiylar. |
|          | 2. O‘zbekiston hududidagi ko‘hna shaharlar. |
| 2-qator: | 3. O‘zbekiston hududidagi me‘morchilik.     |
|          | 4. O‘zbekiston hududidagi zardo‘zlik.       |
| 3-qator: | 5. O‘zbekiston hududidagi ko‘hna obidalar.  |
|          | 6. O‘zbekiston hududidagi misgarlik.        |

Tinglovchilarni baholashda topshiriqning qanchalik to‘liq bajarilgani e‘tiborga olinadi.

**11. «Videotopishmoq» metodi.** O‘qituvchilar oldida ta‘lim jarayonida nafaqat pedagogik texnologiyalar, balki boshqa turli axborot vositalaridan ham o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Shu bois so‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televedeniya, radio, kserokopiya, slayd, video va audiomagnitofonlar) yordamida ta‘lim jarayonining tashkil etilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Videotopishmoq metodidan foydalanish uchun:

- tinglovchilar e‘tiboriga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- tinglovchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar va mavzuni xulosa qiladilar.

“Farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma‘naviy sog‘lom o‘sish, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol bo‘lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratish” talabi bevosita tasviriy san‘at o‘qituvchilariga ham taalluqlidir. Milliy dasturda ko‘zda tutilganidek, tasviriy san‘at o‘qituvchilarini hamda talaba larini ijodiy fikrlashga

o'rgatish, buning uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish, axborotlar almashuviga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

## **2. Tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishning mazmuni va mohiyati.**

Badiiy ta'lim zamonaviy sharoitda yaxlit pedagogik jarayon, uning alohida tarkibiy qismlari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liqlikda "metodika" va "texnologiya" tushunchalari ko'p qo'llaniladi. Hatto, mazkur tushunchalar mohiyatini tavsiflashda ham xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, pedagogik sohada faoliyat yurituvchi shaxslar o'rtasida ham ko'pgina tortishuv, bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish orqali mazkur tushunchalarning aniq ta'rifini shakllantirish mumkin.

Umumiy ma'noda "metodika" tushunchasi ma'lum bir ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan metod va usullar yig'indisidir. Ko'pgina izohli lug'atlarda ham "Metodika – qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi"ni ifoda etishi ko'rsatib o'tilgan.

*"Metodika" tushunchasiga berilgan xilma-xil ta'riflarga tayangan holda quyidagi umumlashmalarga kelish mumkin:*

*1) metodika – bu o'qituvchi ishini tashkil etishning shakl, metod va vositalari;*

*2) ma'lum bir faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metod va usullar yig'indisi;*

*3) bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish, rejali va tizimli amalga oshirishga yordam beruvchi usullar yig'indisi.*

"Metodika" tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liklikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi. Pedagog olim

A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi metodika ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”. G.M.Kodjaspirova, A.Yu.Kodjaspirovlarning fikricha, “O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”.

O‘qitish metodikasiga qo‘yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:

- 1) hayot bilan uyg‘unlik;
- 2) qayta ishlab chiqishga yo‘nalganlik;
- 3) aniqlik;
- 4) rejalashtirilgan harakat maqsad va vazifalariga moslik;
- 5) asoslanganlik;
- 6) natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o‘qitish metodikasi o‘zida:

- *ta’limning maqsad va vazifalarini – ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;*

- *ta’limning qonuniyat va tamoyillarini;*

- *ta’lim mazmunini;*

- *ta’limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;*

- *ta’limning umumiy va xususiy metodlarini;*

- *o‘quv vositalari;*

- *o‘qitish natijasini aks ettiradi.*

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, quyida o‘qitish metodikasi mohiyatini yoritib beruvchi asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tamiz:

1) *o‘rgatish* – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;

2) *o‘rganish* – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;

3) *o‘qitish* – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan o‘quvchilarning tartiblangan o‘zaro harakati;



4)*ta'lim*– o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

5)*bilim* – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

6)*ko'nikma* – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash;

7)*malaka* – avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi;

8)*maqsad*– o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi;

9)*mazmun* –o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

10)*tashkil etish* – qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon;

11)*shakl* – o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq;

12)*metod* – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li;

13)*vosita* – o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob'ekt;

14)*natija*– o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Ilm-fan va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqtisodiy tapaqqiy ettirish bilan bir qatopda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o'zgapishlapning po'y berishiga zamin yapatmoqda. Shuningdek, iqtisodiy sohada bo'lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta'lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

“Texnologiya” yunoncha soʻz boʻlib, “techne” – mahobat, canʼat va “logos” – tyshyncha, taʼlimot, fan maʼnolini anglatadi. “Taʼlim texnologiyaci” ibopacining maʼnoci – (inglizcha “An educational technology”) taʼlim japyonini yukcak mahopat bilan canʼat dapajacida tashkil etish toʻgʻpicida maʼlymot bepyvchi fan, taʼlimot demakdip. Ayni vaqtda mazkyp tyshynchaning taʼpifi hamda yning mohiyati bopacida yagona gʻoya mavjyd emac. By nazapiya mohiyatining yopitilishiga nicbatan typli yondashyvlap mavjyd.

“Pedagogik texnologiya bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqcadga yoʻnaltirilgan hamda yshby maqcadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japyonining mazmynidip” (*Oʻ.Q.Tolipov*).

Yuqorida keltirib oʻtilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval oʻzlashtirilgan nazapiy bilimlap bilan yangi oʻzlashtiriladigan bilimlap opacida myctahkam bogʻlanishlapning yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

“Metodika” va “texnologiya” tushunchalari tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, mazkur tushunchalar oʻzaro aloqadorlik va umumiylikka ega boʻlishi bilan birga ayrim oʻziga xosliklar bilan ham tavsiflanadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, taʼlim texnologiyasi oʻqitish metodikasi asosida qurilib, uning qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalariga asoslangan holda, kutiladigan natijalarga asoslangan holda oʻqitish jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, loyihaga muvofiq oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatini aniq belgilangan ketma-ketlikda amalga oshirishning samarali texnikasidir.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BOʻYICHA SAVOLLAR:**

**(savol-javoblar)**

<b>t/r</b>	<b>Savollar</b>	<b>Javoblar</b>
<b>1</b>	Klaster maʼnosi nima?	gʻuncha
<b>2</b>	Tasviriy sanʼat darslarini oʻqitishda zamonaviy pedagogik	

	texnologiyalardan foydalanishning dolzarb masalalari haqida nimalar bilasiz?.	
3	Tasviriy san'atni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning zaruriyati va maqsadi, vazifalari, haqida nimalar bilasiz?.	
4	Tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliy tatbiqidagi qanday muammolarni ko'rsata olasiz?	
5	Ta'limda innovatsion texnologiyalar haqidagi ma'lumotga egamisiz?	

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

**1. Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat qanday nomlanadi?**

- a) innovatsiya;
- b) novatsiya;
- c) gravitatsiya;
- d) gradatsiya.

**2. Yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar, ilg'or ish uslublari. Ular nimaning ko'rinishlari sanaladi?**

- a) texnologiyaning;
- b) metodikaning;
- c) **innovatsiyaning;**
- d) loyihalashning.

**3. Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar qanday nomlanadi?**

- a) ta'lim vositalari;
- b) ta'lim texnologiyalari;
- c) ta'lim metodlari;

**d) ta'lim innovatsiyalari.**

**4. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi dastlab qaerda asoslangan?**

- a) 1919 yilda Berlinda;
- b) 1979 yilda Rimda;**
- c) 1920 yilda Vashingtonda;
- d) 1995 yilda Moskvada.

**5. Ta'lim innovatsiyalari necha turga bo'linadi?**

- a) 2 turga;
- b) 4 turga;**
- c) 6 turga;
- d) 8 turga.

**6. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?**

- a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;
- b) radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar;**
- c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;
- d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

**7. Faoliyat yo'nalishiga ko'rata'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?**

- a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;
- b) radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
- c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;
- d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.**

**8. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'rata'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?**

- a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;**
- b) radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
- c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;
- d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

**9. Kelib chiqish manbaiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?**

- a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;

- b) radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
- c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;**
- d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

**10.** Faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmay, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u nima deb yuritiladi?

- a) novatsiya;**
- b) evrika;
- c) innovatsiya;
- d) intuitsiya.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. – 68 b.
2. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Direktorning ish kitobi (amaliy tavsiyalar). – T.: «Fan va texnologiya» nashriëti, 2007. - 122 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.-180 b.
4. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).– T.: Iste'dod, 2010.-140 b.
5. Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i opornyx konspektax./ M.:Ayris-press, 2006.
6. Kolechenko A.E. Ensiklopediya pedagogicheskix texnologiy: Posobie dlya prepodavateley. – SPb.: KARO, 2002 g.
7. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma).-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.
- 8.Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do'stona muhit yaratish omili. -T.: YuNISEF, 2005 y.

**3-Mavzu: Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy tamoyillari.**

#### **Reja:**

**1.Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish.**

**2.Interfaol mashg'ulot samaradorligini belgilashning pedagogik-psixologik asoslari.**

**3. ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.**

## **1. Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish.**

### **Kurs tinglovchisi:**

-pedagogik texnologiya tushunchasi, uning ta'riflari, sharhlari, mazmun va mohiyatini bilishi;

-pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi farqlarni bilishi;

-pedagogik texnologiyaning turlari, asosiy yo'nalishlari va tasnifini bilishi;

-dars modullari, pedagogik texnologiyadagi modul va algoritmlar tushunchalarini bilishi, ulardan amalda foydalana olishi;

-tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishda, uning shakllari, asosiy mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishda tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ularning vazifalarini bilishi va baholay olishi;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanishda interfaol mashg'ulot samaradorligining pedagogik-psixologik asoslari va monitoringini olib borish yo'llarini bilishi va amalda qo'llay olishi;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishda interfaol dars modullarini tuzish va amalda qo'llashni bilishi;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishda muammoli ta'limning nazariy asoslarini bilishi;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishda dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini bilishi va qo'llay olishi;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishda interfaol o'qitish muhitida talabalar bilimini baholash yo'llarini bilishi;

-badiiy ta'lim tizimida pedagogik sharoitni do'stona muhitini yaratish omillarini bilishi;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llab, imitatsion o'quv mashg'ulotlarini tashkil eta olishi;

- tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash

jarayonida ishlatiladigan ko'rgazmali va tarqatma materiallarni tayyorlashga qo'yiladigan talablarni bilishi;

-badiiy ta'lim ta'lim jarayonini loyihalash, loyiha asosida ishlash metodikasini bilishi kerak.

Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiya tushunchasining kelib chiqishi, uning sabablari, unga bo'lgan ehtiyojlar, uning keng ko'limli, serqirra tushuncha ekanligi. Pedagogik texnologiyaning turli ta'riflari, har bir ta'rif ma'lum nuqtai-nazardan yondashishni ifodalashi. Ayrim asosiy ta'riflar va ularning sharhlari. Pedagogik texnologiya turlari. Pedagogik texnologiya ko'rinishlari. Pedagogik texnologiyaning faoliyat, ijtimoiy hodisa, nazariy fan, o'quv fani, ta'lim-tarbiya tizimi, ta'lim-tarbiya jarayoni, xususiy fanlarni o'qitish texnologiyalari, turli fanlar bilan bog'liqligi va ilmiy tadqiqotlar sohasiga xos ko'rinishlari. Umumpedagogik, xususiy va kichik pedagogik texnologiyalar. Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari. Pedagogik texnologiyalarni tasniflash. Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi farq. Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi asosiy farqlar. Pedagogik texnologiya bilan metodikaning kelib chiqishi, ta'riflari, maqsadlari, qo'llash miqyosi, vositalari, pedagogik jarayonlari, natija kafolatlari bo'yicha va boshqa farqlari.

### **1. Interfaol mashg'ulot samaradorligini belgilashning pedagogik-psixologik asoslari.**

Interfaol metod-ta'lim jarayonida talabalar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali talabalarlarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirishi, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishi. Interfaol metodlarni qo'llashning dars samaradorligini oshirishga yordam berishi.

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, seminarlar soni ko'pligi, talabalar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, auditoriya jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlarning ta'limtarbiyaviy ahamiyati. Interfaol metodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash.

Interfaol mashg'ulot turlari va ularni tanlash, tayyorgarlik ko'rish jarayoni, talabalarlarning interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun tayyorliklariga qo'yiladigan talabalar, mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish, vositalarni tanlash, tayyorlash, mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari.

Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasidagi o'zaro farqlar, qiyosiy afzalliklar va kamchiliklar. Yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash

mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlashi. Interfaol metodlarning konstruktivizm nazariyasi bilan bog'liqligi. Konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalari: Talaba o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi; O'qituvchi talaba larga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi; Bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi. Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari. Moderator, trener, tyutor, fasilitator, mentor, kouch, konsultant, lektor, ekspert, innovator, kommunikator, o'qituvchi, menedjer, spekter, asissent, sekretar va ularning asosiy vazifalari, bir-birining o'rnini bosishi, ya'ni bir vaqtda bir kishi bir mashg'ulot davomida bir nechta vazifani bajarishi imkoniyatlari. Talaba larning asosiy vazifalari.

Interfaol metodlarning pedagogik va psixologik xususiyatlari. Pedagogika fanida konstruktivizmning nazariy va amaliy yo'nalishi. Konstruktivizm nuqtai nazaridan ta'lim-bu fikrlash faoliyati yordamida shaxsiy tajriba asosida bilimni shakllantirib boriladigan faol jarayondan iborat ekanligi. Bunda haqiqatni bilishga tomon yo'naltirilgan harakat jarayoniga asosiy e'tibor qaratilishi. Bola intellektining rivojlanishi (J.Piaje), eng yaqin rivojlanish sohasi (L.S.Выготskiy), o'quv maqsadlari taksonomiyasi (B.Blum), intellektning ko'p turliligi (G.Gardner) haqidagi ma'lumotlar va ulardan amalda foydalanish.

Interfaol mashg'ulot samaradorligini belgilashning pedagogik-psixologik asoslari, shu mashg'ulotlarda talaba lar bilimining DTS talablariga muvofiqligi nazoratini va monitoringini olib borish yo'llari.

Muammoli ta'lim texnologiyalari talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslanganligi. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiinsonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqishi haqida. Muammoli ta'limning talaba lar ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishdagi ahamiyati. Muammoli ta'limning bosh maqsadi-talaba larning muammoni to'liq tushunib yetishiga erishish va uni hal eta olishga o'rgatishdan iborat ekanligi.

Muammoli vaziyat tushunchasi haqida. Turli o'quv fanlari bo'yicha dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutish.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:



-o'qituvchi talaba larga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;

-bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;

-hal etish uchun yetarli bo'lmagan, ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

-o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;

-o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini talaba lar bilan birgalikda topadi;

-talaba larning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

-muammoni turli nuqtai-nazardan o'rganish, tahlil qilish;

-solishtirish, umumlashtirish;

-faktlarni aniqlash va qiyoslash;

-vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;

-talaba larning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar

### **3. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.**

Tinglovchilarning o'z tajribasiga suyangan holda tayyorlagan ilg'or pedagogik texnologiya asosida o'tadigan ayrim darslari ishlanmasini guruh ishtirokida muhokama etib, kerakli tavsiyalar beriladi. Bunda tinglovchilarning o'zaro faol tajriba almashishlarini yo'lga qo'yish maqsadida 2-3 tinglovchi birgalikda dars ishlanmasi tayyorlashi ham mumkin. Izoh. Ushbu o'quv-mavzu reja va dasturga hududlardagi haqiqiy ahvol va shart-sharoitlarni, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va ehtiyojlarini, ta'lim muassasalarini rivojlantirishning ko'zlangan istiqbollarni va boshqa dolzarb masalalarni hisobga olgan holda zarur o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'limda ko'zlangan natijalarga erishishga bo'lgan pedagogikaning yo'nalishiga aytiladi (M. Klarin, 1989). "Pedagogik texnologiya" so'z birligi – bu inglizcha "an educational technology" – "ta'lim texnologiyasi" iborasining aniq bo'lmagan tarjimasidir. "Pedagogik texnologiya" tushunchasi oxirgi paytlarda o'qitish nazariyasida yanada kengroq qo'llanilmoqda. Aynan "texnologiya" termini va uning "o'qitish texnologiyasi", "ta'lim texnologiyasi", "ta'limda texnologiya" kabi shakllariga pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq ta'riflar berilgan. "Pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogika bo'yicha ishlarda XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasida turlicha ifodalashlar mavjud. 1. Texnologiya – bu bir

ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan uslublar to'plamidir (izohli lug'at). 2. Pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini amalga oshirishning texnikasidir (V.P. Bepalko). 3. Pedagogik texnologiya – bu o'qitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlashdir (I.P. Volkov). 4. Pedagogik texnologiya – bu o'qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to'plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalar yig'indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir (B.T. Lixachev). 5. Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini optimallashtirish masalani qo'yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o'zaro munosabatlarini hisobga olib o'qitish va bilimlar o'zlashtirish butun jarayonini yaratish, qo'llash va belgilashga sistemali yondashishidir (YuNESKO). 6. Texnologiya – bu san'at, mahorat, moxirlik, ishlab chiqish metodlari to'plami, holatini o'zgartirishdir (V.M. Shepel). 7. O'qitish texnologiyasi - bu talabalar va o'qituvchilar uchun so'zsiz qulay sharoitlar yaratib berish uchun o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va olib borish bo'yicha har tomonlama o'ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir (V.M. Monaxov). 8. Pedagogik texnologiya – bu pedagogikada fikrlashning sistemali usulidir (T. Sakamoto). 9. Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonining tashkiliy shakli, metodlari, mazmunini o'zgartiruvchi uning rivojlanish sistemasidir (E. Bistereki va J. Seller). 10. Pedagogik texnologiya - pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalar sistemali to'plami va ishlatilishi tartibini bildiradi (M.V. Klarin). 11. Pedagogik texnologiya – bu ta'lim maqsadiga erishishga qaratilgan o'qituvchi va talabalar faoliyatini sistemali, konseptual, qoidali, ob'ektivlashtirilgan, invariant tasvirlashdir (F.A. Fradkin). 12. Pedagogik texnologiya bilimlarni egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta'minlashni tahlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar, g'oyalarni, vositalarni o'z ichiga oluvchi kompleks integral jarayon demakdir (Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo'yicha AQSh assotsiatsiyasi).

Pedagogik davrlar va texnologiyalarning rivojlanish tarixi Pedagogika fani tarixidan ko'rinib turibdiki o'qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan. O'qitish – bu jamiyat taraqqiyoti uchun samarasi pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darhol ko'rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir. Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishi qarab farq qilmaydi. Ana shu nuqtai nazardan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo'lgan “pedagogik davrlarni” ko'rib chiqamiz:

V. Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta'limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterda o'qitish). XX asrda pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi XX asr oxiriga kelib ilmiy-texnik taraqqiyot faqatgina ishlab chiqarishni texnologiyalashtirishga olib kelib qolmay, balki madaniyat doirasi, bilimlar gumanitar sohalariga ham keskin kirib keldi. "Texnologiya" tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug'atlar talqini bo'yicha (techne san'at, hunar, fan; logoq – tushuncha, ta'limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to'plami demakdir. Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san'atini ham o'z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish bilan operatsiyalar ma'lum ketma-ketligini ko'zda tutadi. Texnologiya protsessual mazmunda "qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?" degan savolga javob beradi. XX asrning 20-yillarida "pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogika bo'yicha asarlarda tilga olingan.

Shu vaqtning o'zida yana bir boshqa – "pedagogik texnika" termini ham tarqaldi. U pedagogik ensiklopediyada 30- yillarda o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan.

Pedagogik texnologiyalarga o'quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish mahoratlari ham kiritilgan. 60-yillar o'rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSh, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilish ikki yo'nalishi belgilandi. Birinchi yo'nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o'qitish vositalarini qo'llash zarurligini ta'kidladilar (technology in education).

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari esa o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g'oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo'qotishni muhim deb hisobladilar. Shunday qilib 1-yo'nalish "O'qitishda texnik vositalar" sifatida belgilandi, biroz keyinroq yuzaga kelgan 2-yo'nalish "o'qitish texnologiyasi" yoki "o'quv jarayoni texnologiyasi" sifatida belgilandi. 70-yillarning boshlarida turli xildagi o'quv uskunalarini va o'quv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligi anglab yetildi. Bularsiz o'qitishning sifatlilik va samaradorligiga erishib bo'lmas edi. 60-yillar o'rtalari va 70-yillarning boshlarida AQSh, Angliya, Yaponiya, Italiya kabi yuksak rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalari bilan shug'ullanuvchi jurnallar nashr etila boshlandi, keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shug'ullana boshlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar markazlari AQShda 1971 yil – “Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo‘yicha AQSh Assotsiatsiyasi” tuzildi. Hozirgi kunda mamlakat bo‘ylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQSh da 1961 yilda “Pedagogik texnologiya” jurnali (Educational Technology), 1971 yilda esa – “Audiovizual o‘qitish” jurnali nashr etila boshlandi. Angliyada 1967 yil - Pedagogik texnologiya bo‘yicha Milliy kengash 1964 yildan boshlab “Pedagogik texnologiya va o‘qitishni dasturlashtirish” (Educational Technology progratted tearing) jurnalini, 1971 yilda – “Pedagogik texnologiya” jurnalini nashr eta boshladi. Yaponiyada - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shug‘ullanadi. 1967 yilda “Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Milliy kengash” tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965 yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda “Pedagogik texnologiya” jurnali va ingliz tilida yiliga ikki marta “Pedagogik 15 texnologiyalar sohasida tadqiqotlar” jurnali nashr etiladi. Yaqinda “Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha umum yapon Markaziy kengashi” tashkil etildi, u muammolar bo‘yicha xalqaro aloqalar o‘rnatish bilan ham shug‘ullanadi. Italiyada – 1971 yili pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Milliy markaz tashkil etildi va “Pedagogik texnologiyalar” jurnali nashr etiladi. Vengriyada - 1973 yili o‘qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi. O‘qitish texnologiyasi bo‘yicha Xalqaro seminarda (Budapesht, 1977) olim S.G. Shapovalenko o‘qitish jarayonining uchta texnologik prinsiplarini ko‘rsatdi:

1. Bilim va texnikani mukammal egallash.
2. audiovizual materiallari fondi bilan tanishish.
3. Ulardan samarali foydalanish metodikasini bilish, shu jumladan ijodiy yondoshishi rivojlanishi ham. Vengriya olimi L. Salai “o‘qitish texnologiyasi” tushunchasiga rejalashtirish, maqsadlarni taxlil qilish, o‘quv-tarbiyaviy ishlar jarayonini ilmiy tashkil etish, samaradorligini oshirish maqsadida eng muhim vosita va materiallarni tanlashni kiritib o‘qitish jarayonini tashkil etuvchilarni doirasini ancha kengaytirdi.

E. Bisterski va J. Sellerlar (AQSh) to‘plangan ma’lumotlar bo‘yicha o‘qitish texnikasi faqatgina yordamchi vosita va yangi sistemadan iborat bo‘libgina qolmay, balki o‘qish jarayoni tashkiliy shaklini, metodi va mazmunini o‘zgartirib uning rivojlanishida katta rol o‘ynadi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilar va talaba larni pedagogik fikrlashlariga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Rossiya XX asrning 90-yillarida pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Markaz tashkil etildi, “Maktab texnologiyasi”, “Ta’limda innovatsiyalar” jurnallari nashr etiladi.

O‘zbekiston 1997 yili kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan boshlab ta’lim tizimida, pedagogik nashrlarda pedagogik texnologiyalar muammolari dolzarb tadqiqotchilik ob’ektlari sifatida ko‘tarila boshlandi.

1999 yilda Respublika ta’lim Markazi qoshida pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Markaz tashkil etildi. “Ta’lim texnologiyalari”, “Ta’lim muammolari” kabi jurnallar nashr etila boshlandi, pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha maqolalar “Xalq ta’limi”, “Pedagogik ta’lim”, “Ta’lim va tarbiya” jurnallarida, “Ma’rifat”, “O‘qituvchilar gazetasi” va boshqa ilmiy-pedagogik nashrlarda bosilib chiqarilmoqda. 1994 yili pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha 1-Respublika ilmiynazariy konferensiyasi o‘tkazildi, ma’ruzalar va hisobotlar materiallari maxsus to‘plamda chop etildi. Pedagog-olimlar U. Nishonaliev, N.S. Saidaxmedov, N.N. Azizxodjaeva, B.Ziyamuxammedov, U. Tolipov, B.L. Farberman va boshqalar Respublikada pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Pedagogik texnologiyani metodikadan farqi Hozirgi kunda pedagogik texnologiya haqidagi aniq tushuncha va tasavvurlar yuor bo‘lsada, uni xususiy metodikalar bilan tenglashtirish hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo‘lib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi. Pedagogik texnologiya – talaba ni mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Metodika – o‘qituvchining bilimi, ko‘nikmasi mahorati, shaxsiy sifatleri, temperamentiga bog‘liq bo‘lib, ma’lum shaxs o‘qituvchi uchun qulay bo‘lgan o‘qitish usullari va yo‘llari majmuadir.

U alohida metodikalarga ajratiladi. Pedagogika fani ma’lum o‘quv fanlarini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar. Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish talab etiladi.

Pedagogik texnologiya o‘quv jarayonining shunday loyihasini u bir kishi yoki biror ijodiy guruh tomonidan ishlab chiqiladi, undan barcha o‘qituvchilar foydalana oladilar. Talaba o‘qitilmaydi – uni mustaqil mutolaa qilishga o‘rgatiladi. Talaba ga bilimlar tayyor holda berilmaydi, unga bilimlarni manbaalardan mustaqil ola bilishga, fikrlay olish, mustaqil pozitsiyada tura olishga o‘rgatiladi. Barcha talaba larni o‘z qobiliyatlari ehtiyojlari darajasida albatta o‘zlashtirib olishlari kafolatlanadi. Talaba ga bilimlar tayyor holda berilmaydi, unga bilimlarni manbaalardan mustaqil ola bilishga, fikrlay olish, mustaqil pozitsiyada tura olishga o‘rgatiladi. Barcha talaba larni o‘z qobiliyatlari ehtiyojlari darajasida albatta o‘zlashtirib olishlari kafolatlanadi. Talaba ga bilimlar tayyor holda berilmaydi, unga bilimlarni manbaalardan mustaqil ola

bilishga, fikrlay olish, mustaqil pozitsiyada tura olishga o'rgatiladi. Barcha talaba larni o'z qobiliyatlari ehtiyojlari darajasida albatta o'zlashtirib olishlari kafolatlanadi.

**MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO'YICHA SAVOLLAR:**  
(savol-javoblar)

t/r	Savollar	Javoblar
1	Pedagogik texnologiyaga ta'rif bering?	g'uncha
2	Texnologiyani metodikadan farqi nimada?	
3	Pedagogik texnologiyaning tuzilishi haqida nima bilasiz?	
4	Pedagogik texnologiya monitoringi qanday tashkil etiladi?	
5	Metod" so'ziga ta'rif bering?	

**MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI**

**21. Muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qiladigan faoliyat natijasi qanday nomlanadi?**

- a) novatsiya;
- b) evrika;
- c) innovatsiya;**
- d) intuitsiya.

**22. Yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi g'oyalarning eski g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat qanday nomlanadi?**

- a) pedagogik faoliyat;
- b) ijodiy faoliyat;
- c) innovatsion faoliyat;**
- d) ijtimoiy faoliyat.

**23. Ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, yuksak muomala madaniyati. Innovatsion faoliyatning ushbu tarkibiy elementlari kim tomonidan ko'rsatilgan?**

- a) V.Slastenin;**
- b) U.Nishonaliev;
- c) M.Klarin;

d) V.P.Bespalko.

**24. Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish necha bosqichdakechadi?**

- a) 2 bosqichda;
- b) 4 bosqichda;**
- c) 6 bosqichda;
- d) 8 bosqichda.

**25. Pedagogda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvni qaror toptirish necha bosqichda kechadi?**

- a) 2 bosqichda;
- b) 4 bosqichda;**
- c) 6 bosqichda;
- d) 8 bosqichda.

**26. Talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim qanday nomlanadi?**

- a) shaxsni tarbiyalovchi ta'lim;
- b) shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim;
- c) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;**
- d) shaxsni ijtimoiylashtiruvchi ta'lim.

**27. O'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, "pedagog-talaba(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim qanday nomlanadi?**

- a) innovatsion ta'lim;
- b) loyiha ta'limi;
- c) hamkorlik ta'limi;**
- d) interfaol ta'lim.

**28. O'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, "pedagog-talaba(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlovchi ta'limiy xarakterdagi texnologiyalar qanday nomlanadi?**

- a) interfaol ta'lim texnologiyalari;
- b) loyiha ta'limi texnologiyalari;
- c) innovatsion ta'lim texnologiyalari;
- d) hamkorlik ta'limi texnologiyalari.**

**29. Juftlik va kichik guruha'zolarining o'zaro birligi; juftlik va kichik guruhda har bir a'zoning shaxsiy va guruhmuvaffaqiyati uchun javobgarligi; kichik guruhda hamkorlikka asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkilotish; guruh va jamoa ishining umumiy baholanishi. Ushbu tamoyillar qanday ta'lim texnologiyalarining mohiyatini ifodalaydi?**

- a) interfaol ta'lim texnologiyalarining;
- b) loyiha ta'limi texnologiyalarining;
- c) hamkorlik ta'limi texnologiyalarining;**
- d) innovatsion ta'lim texnologiyalarining.

**30. Yaxlit mavzuni bir nechta qismlarga ajratgan holda mazmunini yoritish asosida talabalarning uni puxta o'zlashtirishi, o'z bilimlarini boshqalarga yetkazib berish layoqatiga ega bo'lishi ta'minlovchi strategiya qanday nomlanadi?**

- a) "Ajurli arra";**
- b) "Aqliy hujum";
- c) "Zinama-zina";
- d) "Qora quti".

**Foydalanilgan va tinglovchilarga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. – 68 b.
2. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Direktorning ish kitobi (amaliy tavsiyalar). – T.: «Fan va texnologiya» nashriëti, 2007. - 122 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.-180 b.
4. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).– T.: Iste'dod, 2010.-140 b.
5. Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i osnovnyx konspektax./ M.:Ayriss-press, 2006.
6. Kolechenko A.E. Ensiklopediya pedagogicheskix texnologiy: Posobie dlya prepodavateley. – SPb.: KARO, 2002 g.
7. Pityukov V.Yu. Osnovy pedagogicheskoy texnologii.- M.: «Gnom-Press», 1999 g.
8. Selevko G.K., Sovremennye obrazovatelnye texnologii.- M.: «Narodnoe obrazovanie», 1998 g.
9. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- T.: O'z PFITI, 1999 y.
10. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma).-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.



11. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do'stona muhit yaratish omili. -T.: YuNISEF, 2005 y.

12. B.L. Farberman. "Progressivnye pedagogicheskie texnologii" -T. 1999.

13. G.K. Selevko. "Sovremennye obrazovatelnye texnologii". Uchebnoe posobie - M.: Narodnoe obrazovanie, 1998.

14. V.P. Bepalko. "Slagaemye pedagogicheskie texnologii". - M. Pedagogika 1989

15. V.P. Bepalko "Pedagogika i progressivnye texnologii" - M. 1995. Tavsiya etiladigan internet resurslari:

#### **4-Mavzu: Ilg'or ta'lim texnologiyalari va vositalariga asoslangan ta'lim jarayonini loyihalashtirish.**

Interfaol ta'lim, uning shakllari va ishtirokchilari (ma'ruza ilovalari)

##### **Reja:**

**1. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari**

**2. An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar**

**3. Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari**

**4. Interfaol ta'limda dars jarayonini loyihalash**

**5. Interfaol metodlarning tasniflari**

Interfaol metod – ta'lim jarayonida talabalar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali talabalarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**"Interaktiv" (interfaol)-inglizcha so'z bo'lib,**

**"interact"- "inter"-bu o'zaro, "act"**

**-bu "harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.**

**Umumlashtirganda esa "Interaktiv" (interfaol) –"o'zaro harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.**

**Interfaol ta'lim bu:**

**▲ Strategiya va metodologiya;**

**▲ doimiy muloqotga asoslangan metodlar tizimi;**

**▲ birgalikdagi o'qish va faol ishtirok etishdir.**

Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, talabalar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, auditoriya jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

##### **1. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari (1-guruh uchun matn)**

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot,

munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan.

Uni **Blum taksonomiyasi** deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Bular quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

**Bilish**-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda talaba atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

**Tushunish** darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, talaba faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

**Qo'llash** darajasidagi tafakkurda talaba olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

**Tahlil** darajasidagi tafakkurda talaba yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

**Umumlashtirish** darajasidagi tafakkurda talaba ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

**Baholash** darajasidagi tafakkurda talaba mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

## **2. An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar** *(2-guruh uchun matn)*

№	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
2	Dars maqsadi	Dars bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	Talaba larning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	Talabalar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish
6	Talabaning vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi talaba larning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmi	Darsning modul va algoritmlaridan har bir	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va

		o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	algoritmarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi
9	Talabalar ning faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, talabalar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol.	O'qituvchi ham, talabalar ham har tomonlama faol. shakllari: o'qituvchitalaba ; talaba -talaba ; talaba -kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; talaba -o'qituvchi; kichik guruho'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
10	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha talabalarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun talabalar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda talabalarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliypedagogik, ilmiy–metodik hamda o'qituvchiga, talabalariga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

#### **Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:**

1 O'qituvchilardan interfaol mashg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

2 O'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;

3 O'quv xonasida interfaol mashg'ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;

4 Ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;

5 Sanitariya-gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;

6 Xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;

7 Davomatni va intizomni saqlash;

8 Nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

#### **Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:**

1 Dts talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;

2 Interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;

3 Interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;

4 Mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;

5 Talaba larning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;

6 Interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

#### **Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari**

##### ***(3-guruh uchun matn)***

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

Moderator – ta'lim mazmunini yaratuvchi, modullarini ishlab chiquvchi.

1. Trener–talaba larning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.

2. Tyutor–masofadan o'qitish dasturlarini yaratuvchisi va bajarilishini ta'minlovchi.

3. Fasilitator–darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

4. Mentor–ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).

5. Kouch–ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg'ulotni olib boradi, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).

6. Konsultant–maslahat beruvchi, tushuntiruvchi, qo'shimcha ma'lumot beruvchi.

7. Lektor–nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.

8. Ekspert – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

9. Innovator–yangiliklarni ta’lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy qiluvchi.

10. Menejer–tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etuvchi.

11. Spektar–kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

12. Assistent–mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlash, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turish.

13. Sekretar–zarur ma’lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o‘rnatilgan tartibda saqlash.

14. Texnolog–pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etib boradi.

15. Metodist–ta’lim–tarbiya metodlari bo‘yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi–talaba larning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, talaba lar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

### **Interfaol ta’limda dars jarayonini loyihalash**

#### ***(4-gurux uchun matn)***

Dars jarayonini loyihalashda o‘qitish metodlarini to‘g‘ri tanlash, ya’ni metodlarni darsning vazifalari va mazmuniga mosligi, o‘qituvchi va talaba larning imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi talab etiladi.

O‘qituvchi darsning loyahasini ishlab chiqishda quyidagi topshiriqlarni ketmaket bir butunlikda amalga oshirishi kerak.

1-bosqich: O‘qituvchi dastur, darslik, metodik qo‘llanma va auditoriya talaba larining umumiy tavsifi bilan tanishib chiqishi lozim.

2-bosqich: Darsning asosiy vazifalari majmuasini: o‘qitish, ta’limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad va rivojlantiruvchi maqsadlarni va vazifalarini belgilash.

3-bosqich: Darsning asosiy bosqichlarini to‘g‘ri, aniq va izchillikda joylashtirish.

4-bosqich: Darsning har bir bosqichi mazmunidagi asosiy o‘rinli ajratib olish.

5-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o‘qitish metodlarini, vositalarini, texnologiyalarni tanlash.

6-bosqich: Darsning har bir qismi uchun o‘qitishning yetakchi; umumauditoriyaiy, kichik guruh va individual shaklini tanlab olish.

7-bosqich: Bo‘sh o‘zlashtiruvchi va tayyorgarligi kuchli bo‘lgan talaba lar uchun tafovutlangan mashq va vazifalarni tanlash.

8-bosqich: Tegishli auditoriya talaba lari uchun

### **Interfaol ta’lim jarayonida kichik guruxlarda ishlash**

Muammoli ta'lim jarayonida kichik guruhlar ishini tashkil etish uchun o'qituvchi quyidagilarni yaxshi tushunib olishi lozim:

1. Talaba ning individual harakatlari bilan jamoa bo'lib ishlagandagi harakatlari nimasi bilan farqlanadi?

2. Kichik guruhlarining birgalikdagi ishidan qanday natijalarni kutish mumkin?

3. Guruhning hamfikrlilar jamoasiga aylanishi uchun nimalar qilish kerak?

4. Kichik guruh va uning tarkibiga kiruvchi talaba ning ishini qanday baholash kerak?

### **Guruhlar bilan ishlash bo'yicha ayrim maslahatlar**

1. Hamkorlik guruhlarini kam sonli bo'lishi kerak. Guruh qanchalik kichik bo'lsa shunchalik har bir talaba mas'uliyatliroq bo'ladi.

2. Har bir guruh a'zosining bilimini individual tartibda tekshirish lozim.

3. Davriy tartibda tanlab (oralatib) og'zaki so'rovlar o'tkazish foydali, bunday paytda talabalar guruh a'zolari yoki butun auditoriya oldida guruh ishi haqida gapirib beradilar.

4. Barcha guruhlar ishini kuzatib borish va guruh a'zosining umumiy mehnatda ishtirok etgan hamma holatlarini qayd etish kerak.

5. Har bir guruhda «nazoratchi» bo'lishi kerak, u har bir guruhdoshidan nima uchun guruh berilgan savolga boshqacha emas, aynan shunday javob berganligini tushuntirib berishni so'rashi mumkin.

### **Interfaol metodlar: “Muammoli vaziyat” metodi**

*(o'qituvchining kichik ma'ruzasi)*

“Muammoli vaziyat” metodi ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sababini va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimlarini topish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan metod.

“Muammoli vaziyat” metodining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

-Muammoli vaziyat tavsifini keltirish

-Talabalar guruhlariga bo'lish

-Guruhlar muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlashi

-Guruhlarining muammoli vaziyatni jamlanish bosqichi

-Guruhlarini muammoli vaziyatni yechimini ishlab chiqish bosqichi

-To'g'ri yechimlarni tanlash bosqichi

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi talabalarining bilim darajalariga mos kelishi kerak. Talabalar qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishi kerak, chunki muammoni yechimini topa olmasa talabalarining qiziqishlari so'nishi va talabalar o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishi mumkin. Dars jarayonida ushbu metoddan foydalanganda o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga, uning yechimini topishga o'rganadilar. “Muammoli vaziyat” metodini qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi, muammmoni bayon qiladi.

### O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH BO‘YICHA SAVOLLAR:

(savol-javoblar)

1	Pedagogik texnologiya bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlarni ayting?	
2	Qaysi davlatlarda pedagogik texnologiyalar markazalari va mavjud va ularning asosiy faoliyatiga nimalar kiradi?	
3	Pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha nashr etiladigan jurnallarni sanab bering?	
4	Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish davrlarini ayting?	
5	Qanday pedagogik texnologiyalarni bilasiz?	

### MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

№1

<b>«Metodika» so‘zining ta’rifi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?</b>
<b>1. Metodika – bu ta’lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo‘l va uslublar majmui.</b>
2. O‘qitishning nazariy asoslarini ifoda etuvchi asosiy vositalardan biri.
3. O‘qitishda didaktik prinsiplarni maqsadga muvofiq yo‘nalishlariga xizmat qiladigan pedagogik texnologiya.



4. Ta'lim sohasida talaba larni bilim va malakalarini oshirishga qaratilgan mexanizm.

**№2**

<b>«Metodika» turlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?</b>
<b>1. Umumiy metodika, xususiy metodika.</b>
2. Didaktika, uzluksiz ta'lim.
3. Ko'rgazmalilik, ilmiylik.
4. Duskada rasm ishlash, ijodiy rasm ishlash.

**№ 3**

<b>Rasm chizishga o'rgatish dastlab qaysi mamlakatlarda boshlangan?</b>
<b>1. Misrda</b>
2. Rimda
3. O'zbekistonda
4. Yunonistonda

**№ 4**

<b>Jahon tarixida rasm chizishga o'rgatish metodikasi bo'yicha dastlabki samarali mehnat qilingan mutaxassislar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?</b>
<b>1. Pamfil, Chennini, Alberti, Leonardo da Vinchi</b>
2. Dyupyui, Ashbe, Prang, Russo
3. Gete, Shmidt, Prang, Bryullov
4. Tedd, Kulman, Karrachi, Renuar

**№ 5**

<b>«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning qaysi qismida tasviriy san'atni o'qitish bilan bog'liq fikrlar bayon etilgan?</b>
<b>1. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida.</b>
2. «Iqtidorli talabalar va iste'dodli yoshlar» qismida.
3. «Umumiy o'rta ta'lim» qismida.

4. «Shaxs» qismida.

**№ 6**

**Milliy g'oyani talaba larga singdirishda tasviriy san'atning qaysi turlari ko'proq ahamiyat kasb etadi?**

**1. San'atshunoslik asoslari, borliqni idrok etish, kompozitsiya**

2. Kompozitsiya, badiiy qurish-yasash, san'atshunoslik asoslari

3. Borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, badiiy-qurish, yasash

4. Naturaga qarab tasvir ishlash, kompozitsiya, badiiy qurish-yasash

**№ 7**

**Rasm chizishga o'rgatishda «Naturadan chizish metodi» qaysi olimlar tomonidan kiritilgan?**

**1. Komenskiy, Russo, Gete**

2. Pestalossi, Shmidt, Gete

3. Kulman, Prang, Baumgart

4. Ausberg, Braunshvig, Tedd

**№ 8**

**Rasm chizishga o'rgatishdagi «Geometrik metod» vakillari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

**1. F.Dyupyui, I.Pestalossi, I.Shmidt**

2. Ausberg, Kulman, Prang

3. Baumgart, Tedd, Braunshvig

4. Gete, Komenskiy, Russo

**№ 9**

**Rossiyada birinchi bor yaratilgan «Kurs risovaniya» nomli darslik muallifi kim?**

**1. A. Sapojnikov**

2. V. Beer
3. A. Voskresenskiy
4. P. Chistyakov

**№ 10**

<b>XX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir samarali mehnat qilgan pedagog-olimlar kimlar?</b>
<b>1. N.Rostovsev, V.Kolokolnikov, V.Kuzin</b>
2. A.Karlson, G.Orlovskiy, R.Korguzalova
3. A.Brajnikova, T.Belyaev, B.Nosov
4. S.Bulatov, R.Xasanov, B.Boymetov

**Foydalanilgan va tinglovchilarga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. – 68 b.
2. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Direktorning ish kitobi (amaliy tavsiyalar). – T.: «Fan va texnologiya» nashriëti, 2007. - 122 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.-180 b.
4. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).– T.: Iste'dod, 2010.-140 b.
5. Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i opornyx konspektax./ M.:Ayrisspress, 2006.
6. Kolechenko A.E. Ensiklopediya pedagogicheskix texnologiy: Posobie dlya prepodavateley. – SPb.: KARO, 2002 g.
7. Pityukov V.Yu. Osnovy pedagogicheskoy texnologii.- M.: «Gnom-Press», 1999 g.
8. Selevko G.K., Sovremennye obrazovatelnye texnologii.- M.: «Narodnoe obrazovanie», 1998 g.
9. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- T.: O'z PFITI, 1999 y.
10. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma).-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.
11. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do'stona muhit yaratish omili. -T.: YuNISEF, 2005 y.
12. B.L. Farberman. "Progressivnye pedagogicheskie texnologii" -T. 1999.

13. G.K. Selevko. "Современные образовательные технологии". Учебное пособие - М.: Народное образование, 1998.

14. V.P. Беспалко. "Слагаемые педагогические технологии". - М. Педагогика 1989

15. V.P. Беспалко "Педагогика и прогрессивные технологии" - М. 1995. Tavsiya etiladigan internet resurslari:

#### **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

##### **Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha umumiy yo'riqnoma**

##### **1-AMALIY MASHG'ULOT. Mavzu: Tasviriy san'at fanlaridan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish metodikasi.**

##### **Reja:**

- 1.Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha umumiy ma'lumot.**
- 2.Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish borasida dars ishlanmasi**
- 3.Qalamtasvir fani misolida dars mashg'ulotini taqsimlash**

**1.Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha umumiy ma'lumot.** Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar tasviriy san'at ta'limi sohasidagi innovatsiyalar bilan tanishadilar va ular asosida amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda kichik guruhlarga bo'lib o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy va xorijiy adabiyatlardan, elektron resurslardan, internet materiallaridan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Tasviriy san'at o'qituvchilarning portret janrida ishlash ketmaketligi, komponovka, nisbat olish, qurish, chizish, joylashtirish bo'yicha tasviriy san'at o'qituvchilarning portret ishlashda o'ziga xos tushlash texnologiyalarini, erug'-soya qonuniyatlarini, o'qituvchilarining manzara ishlash bo'yicha o'ziga xos qonuniyatlarni, kompozitsiya tuzish, chizishda rejalilik, o'lchov perspektivasini, tasviriy san'at o'qituvchilarining manzarani ranglashda, rang va o'lchov perspektivasiga rioya qilish, manzarani tasvirlashda rang boyligiga, tozaligiga e'tibor qaratish, bo'eq bilan ishlashni, o'qituvchilarining natyurmort kompozitsiyasini tuzish, komponovka, ishlash ketma-ketligi, qurish, joylashtirish, fazoviy xolati, o'zaro nisbati, perspektivasini tasvirlash, natyurmort kompozitsiyasini tuza olish, buyum va narsalarning hajmini asliga o'xshatish uchun erug'-soya qonuniyatlaridan mohirona foydalanishni o'rganadilar.

Tasviriy san'at o'qituvchilarining dekorativ bezakli geometrik, islimi va boshqa naqsh kompozitsiyalarini variantli qilib tuzish, chizish ketmaketligini bajarishni, miniatyura kompozitsiyasini tuza olish, kompozitsiyada suv, daraxt, tog', jonivor va inson obrazini qo'llagan holda chizish va uni ranglashni,

mavzularini zamonaviy metodlar ёrdamida o‘rgatishni, tashkil qilish va o‘tkazish metodikasini bilib oladilar.

## 2. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish borasida dars ishlanmasi

<b>Ajratilgan soat-2</b>	Talabalar soni 15-20 nafar
<b>O‘quv mashg‘ulot sh</b>	Kirish ma‘ruzasi
<b>Ma‘ruza rejasi;</b> .	1. Amaliy mashg‘ulotining issh maqsadi. 2. Amaliy mashg‘ulotini amalda bajarish tartibi.
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Amaliy mashg‘ulotining ish mazmuni va vazifalari va tasviriy san‘at o‘qitish nazariyasi va metodikasi dasturini o‘rganish va rejalashtirish haqida ma‘lumot berish, metodika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada mukammallashtirish.	
<b>pedagogik vazifalar;</b> - amaliy mshg‘ulotlarini bajarish tartibi haqida ma‘lumotlar berish. - tasviriy san‘at dasturini o‘rganish va rejalashtirish. -tasviriy san‘at fan yo‘nalishidagi qalam, rang va boshqa fanlarga oid pedagogik tasvirlarni chizish usullari bilan tanishtirib borish.	<b>O‘quv faoliyati natijalari;</b> - talabalar amaliy mashg‘ulotlarida berilgan vazifalarni va tasviriy san‘at dasturini rejalashtirishini ilmiy-uslubiy ishlab shiqishga o‘rganadi. - tasviriy san‘at faniga oid va kerakli amaliy ishlar haqida ma‘lumotlar oladi.
<b>O‘qitish usullari va texnikasi</b>	Ma‘ruza, amaliy va “B\B\B” jadval usuli.
<b>O‘qitish vositalari</b>	O‘quv fan dasturi, o‘quv qo‘llanma, o‘quv qurollar va plakat auditoriya taxtasi.
<b>O‘qitish shakli</b>	Guruh, jamoa.
<b>O‘qitish shart-sharoitlari</b>	Elektron doska, multimediali vositalar

<b>Monitoring va baholash</b>	Kuzatish, suhbat, og‘zaki savol javob, o‘quv topshiriq.
-------------------------------	---------------------------------------------------------

Amaliy mashg‘ulotining texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	pedagog	Talaba
<b>1-bosqish</b> Kirish 10 daqiqa	<b>1.1.</b> Ma’ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi.  Amaliy mashg‘ulotini olib borish va kutilgan natijalari haqida tushuntiriladi (1-ilova).	Tinglaydi, yozib oladi.  Yozadi, savollarga javob beradi.
<b>2-bosqish</b> Asosiy jarayon - 60 daqiqa	<b>2.1.</b> Mavzu rejasining birinshi punkti rejasini bo‘yisha ma’ruza qilinadi (3-il). <b>2.2.</b> Ma’ruza bo‘yisha “B\B\B”	Tarqatmali material
<b>3-bosqish</b> Yakuniy bosqish 10 daqiqa	Jadvaldan foydalangan holda qo‘yidagi savol bilan murojaat qiladi;  ”Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi” fanidan nimalarni o‘rganishni istaysiz? (3.1; 2-ilovalar)	savollarga yakka yoki jamoa bo‘lib javob beradi.

**3.1.** Mavzu bo‘yisha umumiy xulosa qilinadi.

Tinglanadi.

**3.2.** Baholash mezonlari e’lon qilinadi.

Yozib oladi.

**3.3.** O‘z-o‘zini nazorat qilish ushuni savollar beradi

(4-ilova).

Javob yozib beradi.

## 1-ilova.

**Mavzu:** Kirish. Tasviriy san'at o'qitish nazariyasi va metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarini amalda bajarish ushun berilgan mavzularning mazmun va mohiyatiga qarab ilmiy yondashish.

### R y e j a

1. Amaliy mashg'ulotlari tug'risida umumiy ma'lumotlar berish.
2. Amaliy mashg'ulotlarini amalda bajarishda ketma- ketlik usullari.

**O'quv mashg'ulotning maqsadi:** Amaliy mashg'ulotlari haqida umumiy metodik tavsiyalar va ma'lumotlar berish bilan birgalikda fanga bo'lgan qiziqishini oshirish.

## 2-ilova.

### Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi	Misollar bilan muammoga yechim topish	Gurux a'zolarini faolligi	Jami Ball.
<b>Ballar</b>	<b>0-5 ball</b>	<b>0-5 ball</b>	<b>0-5 ball</b>	<b>15 ball</b>

**15-13 ball- a'lo: 12-10 ball- yaxshi: 9-6 ball-qoniqarli**

## 3-ilova.

### 3.1-ilova.





**“ B\ B\ B” J A D V A L I.**

Tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlari bo‘yisha nimalarni bilasiz va nimalarni bilishni istaysiz?



<b>Bilaman.</b>	<b>Bilishni xohlayman.</b>	<b>Bilib oldim.</b>

3.2-ilova.

**2.Qalamtasvir fani misolida dars mashg‘ulotini taqsimlash**

№		Soat	Ko‘rgazmali materiallar
	<b>1 - semestr</b>		
1	<p><b>Kirish. a) Chiziqlar va uning turlari haqida umumiy tushunchalar.</b></p> <p><b>b) Tasvirni shakli to‘g‘risida.</b></p>	2+2	
2	<p><b>Geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort.</b></p>	2+8	
3	<p><b>Geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort.</b></p>	2+8	
4	<p><b>Ufq chizig‘idan pastda joylashgan 2-3 geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort.</b></p>	3+13	



5	Gipsli naqsh ornamentini tasvirlash.	4+16	
6	Gipsli ko'zani tasvirlash.	4+16	

O'z-o'zini nazorat qilish ushun "Insert" jadvalidan foydalanamiz. "Insert" jadvali mustaqil ta'lim olish jarayonida olgan ma'lumotlarini, eshitgan ma'ruzalarini tizimlashtirishni ta'minlaydi. Jadval ustunlaridagi belgilarga muvofiq:

**V** - men bilgan ma'lumotlarga mos.

**Z** - men bilgan ma'lumotlarga zid.

**+** - men uchun yangi ma'lumot.

**?** - men uchun tushunarsiz ma'lumot kabi berilgan fikrlar bilan tanishib talabalar o'zlari alohida ustunlarni to'ldiradilar.

### "INSERT" jadvali

V	Z	+	?

### Nazorat va test savollari.

1. Amaliy mashg'ulotda nimalar o'rganiladi?
2. Amaliy mashg'ulotda berilgan vazifalar qanday usul va metodlar yordamida bajariladi?
3. Amaliy mashg'ulotlarda pedagogik innovatsiya texnologiyalaridan foydalanish usullari.
4. Amaliy mashg'ulotlarda mustaqil ilmiy izlanishga keng yo'l berilganmi?
5. Amaliy izlanishlar nimalar asosida olib boriladi.

6. Amaliy mashg'ulotlarda pedagogik innovatsiya texnologiyalarining qaysi usullaridan foydalaniladi?

**№1**

<b>O'quvchilar badiiy ijodiga doir Rossiyada «Erkin tarbiya» nazariyasining vakillaridan biri kim?</b>
<b>1. A.Bakushinski</b>
2. D.Kardovski
3. V.Beer
4. N.Radlov

**№ 2**

<b>O'zbekistonda birinchi bor tasviriy san`at darsligi qachon chop etilgan?</b>
<b>1. 1969 yilda</b>
2. 1964 yilda
3. 1995 yilda
4. 1972 yilda

**№ 3**

<b>O'zbekistonda oliy ma`lumotli rassom-o'qituvchilar tayyorlovchi fakultet qachon va qaysi institut qoshida ochilgan?</b>
<b>1. 1955 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida</b>
2. 1950 yilda Qarshi davlat pedagogika institutida
3. 1966 yilda Namangan davlat pedagogika institutida
4. 1950 yilda Samarqand davlat pedagogika institutida

**№ 4**

<b>O'zbek grafik rassomlaridan Iskandar Ikromovning tasviriy san`at o'qituvchilariga yordam tariqasida 1932 yilda chop ettirgan ishi qanday ataladi?</b>
<b>1. Rasm chizishga o'rgatish qo'llanmasi</b>
2. Maktabda rasm darslari
3. Rasm chizishni o'rganish kerakmi?
4. Rasm chizishni o'rganing

**№ 5**

<b>Borliqni idrok etish darslari qaysi sinflarda o'tkaziladi?</b>
<b>1. 1-4 sinflarda</b>
2. Barcha sinflarda
3. 1-2 sinflarda
4 . 5-7 sinflarda

**№ 6**

<b>N. Rostovsevning maktabda tasviriy san`atni o'qitish metodikasi qo'llanmasining nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?</b>
<b>1. Metodika prepodavaniya izobrazitel'nogo iskusstva v obsheobrazovatel'noy shkole</b>
2. Metodika risovaniya v shkole
3. Soderjanie i metodika prepodavaniya izobrazitel'nogo iskusstva v shkole
4 . Metodika prepodavaniya izobrazitel'nogo iskusstva v shkole

**№ 7**

<b>Tasviriy san`at o'quv predmeti qaysi san`at turlarini ichiga oladi?</b>
<b>1. Tasviriy san`at, amaliy san`at, me`morchilik, grafika, haykaltaroshlik</b>
2. Tasviriy san`at, me`morchilik, grafika, musiqa.
3. Tasviriy san`at, amaliy san`at
4 . Tasviriy san`at, amaliy san`at, foto san`ati.

**№ 8**

<b>Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarida materiallarning qaysi turlari qo'llaniladi?</b>
<b>1. Tashlandiq materiallar, badiiy materiallar, tabiiy materiallar</b>
2. Tabiiy materiallar.
3. Badiiy materiallar
4 . Sun`uy materiallar

**№ 9**

<b>Maktabda tasviriy san`at mashg`ulotlarining maqsadi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?</b>
<b>1. O`quvchilarning badiiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish</b>
2. O`quvchilarni rasm chizishga o`rgatish
3. O`quvchilarni oliy o`quv yurtlariga kirish uchun tayyorlash
4. O`quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash

## №10

<b>Boshlang`ich sinflarda tasviriy san`at mashg`ulotlarining turlari qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan</b>
<b>1. Borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, badiiy qurish-yasash</b>
2. Naturaga qarab tasvirlash, san`atshunoslik asoslari, badiiy qurish-yasash
3. San`atshunoslik asoslari, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya
4. San`atshunoslik asoslari, borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ishmuhamedov R. O`quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo`llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. – 68 b.
2. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Direktorning ish kitobi (amaliy tavsiyalar). – T.: «Fan va texnologiya» nashriëti, 2007. - 122 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar (ta`lim muassasalari pedagog-o`qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste`dod, 2008.-180 b.
4. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta`lim muassasalari o`qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).– T.: Iste`dod, 2010.-140 b.
5. Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i opornyx konspektax./ M.:Ayrisspress, 2006.
6. Kolechenko A.E. Ensiklopediya pedagogicheskix texnologiy: Posobie dlya prepodavateley. – SPb.: KARO, 2002 g.
7. Pityukov V.Yu. Osnovy pedagogicheskoy texnologii.- M.: «Gnom-Press», 1999 g.

8. Selevko G.K., *Sovremennye obrazovatelnye tekhnologii*.- M.: «Narodnoe obrazovanie», 1998 g.

9. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- T.: O'z PFITI, 1999 y.

10. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma)*.-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.

11. Tolipova J.O. *Pedagogik texnologiyalar-do'stona muhit yaratish omili*. -T.: YuNISEF, 2005 y.

12. B.L. Farberman. "Progressivnye pedagogicheskie tekhnologii" -T. 1999.

13. G.K. Selevko. "Sovremennye obrazovatelnye tekhnologii". Uchebnoe posobie - M.: Narodnoe obrazovanie, 1998.

14. V.P. Bepalko. "Slagayemye pedagogicheskie tekhnologii". - M. Pedagogika 1989

15. V.P. Bepalko "Pedagogika i progressivnye tekhnologii" - M. 1995. Tavsiya etiladigan internet resurslari:

## **2-AMALIY MASHG'ULOT. Mavzu: Amaliy ishlardan ko'rgazmalar tashkil etish masalalari.**

### **Reja:**

1. Talabalarni tasviriy san'atga qiziqtirishning mohiyati va talabalarni fanga qiziqtirish yo'llari.

2. Ko'rgazmalarni tashkil etish.

**1. Talabalarni tasviriy san'atga qiziqtirishning mohiyati.** Tasviriy san'at darslarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan talabalarni fanga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va doimiy ravishda uni oshirib borishga bog'liq. Fanga qiziqishi bo'lmagan talabalardan yaxshi natija kutib bo'lmaydi. Shuningdek, talabalar darsdan birorta natijani ongli ravishda olganida hamda unga ega bo'lishga ishonch hosil qilgandagina fanga qiziqish paydo bo'ladi.

Tasviriy san'atda talabalarning qiziqishlarini oshirishning bir qator yo'llari mavjud:

-san'atning mohiyatini talabalar ongiga singdirish;

-mashhur san'at namoyondalarining hayoti va ijodi yuzasidan suhbatlar o'tkazish, filmlar namoyish etish, albomlar tayyorlatish;

-ozgina bo'lsa ham talabalarning erishgan yutuqlarini qayd qilish va rag'batlantirish, ularning ibratomuz ishlarini auditoriyadagi barcha talabalarga namoyish etish;

-qiziqarli bo'lgan san'at asarlari haqida suhbat va munozaralar o'tkazish;

-muvaffaqiyatga erishgan talabalarning ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etish, ularning ishlarini tuman, shahar, viloyat ko'rgazmalariga tavsiya etish;

-har bir darsda o'qituvchi talabalarga yangi bilim, tushuncha va malakalar berishi;

-tasviriy san'at darslarini o'yin, musobaqa tarzida tashkil etish (viktorina, krossvord, chaynvord yechish);

-talabalarning tasviriy ijodi uchun ko'proq ularni qiziqtirgan mavzularni tavsiya etish. Ayniqsa, ertaklar, hikoyalar, multiplkatsiya filmlar asosida, dengiz tubiga va boshqa planetalarga hyoliy sayoqat mavzularida rasm chizdirish;

-talabalarning tasviriy faoliyatlari uchun ma'lum miqdorda erkinlik berish. Bunda ko'proq talabalarni qiziqtiradigan mavzular nazarda tutiladi. Xususan, ular tabiat manzaralari va mavzuli kompozitsiyalardan olingan mavzulardir. Mavzuli kompozitsiya mavzulari, kasb-korga doir mavzular, mayishi janrga tegio'li mavzulari, afsonaviy mavzular ham talabalarda katta qiziqish orttiradi;

-darsda muammoli vaziyatlar hosil qilish orqali dars o'tish. Bunda talabalarning imkoniyatlarini hisobga olish muhim. Berilayotgan muammoli topshiriqlar talabalarni zo'riqtirmasligi va qiynab qo'yimasligi lozim;

- talabalarni muzey va ko'rgazmalarga olib borish;

-mashhur taniqli rassom ustalar bilan uchrashuvlar o'tkazish v.b.

Quyida talabalarni tasviriy san'atga qiziqtirishning ayrim shakllari haqida batafsilroq to'xtalamiz. Tasviriy faoliyat uchun qiziqarli va sermazmun mavzular tanlash talabalarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Shu sohada olib borilgan tadqiqotlardagi kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalar qiziqarli mavzular asosida rasmlar ishlaganlarida ularning ishlari mazmunliroq va sifatliroq bo'ladi. Bu borada kompozitsiya mashg'ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, portret, manzara, mayishi, marina janrlarida va mavzuli kompozitsiyalarda shu kabi mavzular talabalar uchun nihoyatda qiziqarlidir.

Shuningdek, sport, fantastikaga oid mavzular ham talabalarda zo'r qiziqish orttiradi. Ayniqsa, xokkey, futbol, boks, tennis kabi o'yinlar asosida rasmlar ishlash topshiriqni muvaffaqiyatini ta'minlashga asos bo'ladi. Bu tabiiy albatta, chunki talabalar o'yinning bu turlariga qiziqadilar, u bilan shug'ullanadilar. Natijada, o'yin yoki tomoshadan olgan taassurotlari talabalarning tasavvurida uzoq vaqtgacha yaxshi saqlanadi.

Sport talabalarning kundalik faoliyatlari bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham tasviriy faoliyatga samarali ta'sir ko'rsatsa, afsonaviy mavzulardagi obraz va ko'rinishlar o'zining originalligi (shakl, rang, mazmun) bilan qiziqarlidir.

Ma'lumki, talabalar o'z tasviriy faoliyatlarida original, mazmunli rasmlar ishlashga qiziqadilar. Bunga talabalarni afsonaviy mavzudagi asarlarning

mazmuni, katta tezlikdagi va turli shakldagi boshqa planetalardagi qaytarilmas ko‘rinish va mavjudotlar, ularning transport vositalari, tog‘lar, o‘simlik va daraxtlar ilhomlantiradi.

Mavzu asosida kompozitsiya ishlash mashg‘ulotlarida qiziqarli mavzular muhim bo‘lsa, narsaning o‘ziga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarida esa original shakl, rang, tuzilishidagi natura uchun buyum va narsalar, drapirovkalar tanlash, ularni chizish uchun kompozitsion jihatdan chiroyli qilib o‘rnatish samaralidir.

Masalan, gul, tarvuz, qovun, anor, olma, qovoq, bodiring, nok, baqlajon, obi va patir nonlar kabi, sopol lagan, tovoq, guldon, tunuka patnis, chinni choynak, piyola kabi buyumlar va ulardan tuzilgan natyurmortlar shular jumlasidandir.

Musiqa asboblari hisoblangan doira, rubob, tambur, dutor, surnay, nay va boshqalar hamda natyurtmortlar uchun yaxshi material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, xayoldan va tasavvurdan rasm ishlash mashg‘ulotlarida “Buvim”, “Eng yaxshi ko‘rgan o‘qituvchim”, “Onam”, “Mening do‘stimni portreti”, “Avtoportret” kabi mavzularda rasmlar ishlatish ham talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Ular o‘zlari sevgan kishilarning rasmlarini asliga o‘xshatishga harakat qiladilar. Erishgan yutuq va ish natijalaridan esa zavqlanadilar.

Shuni ham qayd qilib o‘tish lozimki, talabalarning qiziqishlarini oshirish maqsad qilib qo‘yilar ekan, mavzular tanlashga bir yoqlama qarash yaramaydi. Bunda asosiy e‘tiborni faqat mavzularning va chizdiriladigan narsalarning, naqshlarning qiziqarli bo‘lishiga emas, bu materiallarning talabalarning idrokiga, tasviriy imkoniyatlariga, qobiliyatlariga mosligiga ham qaratmoq zarur.

Talabalarning qiziqishini oshirishda san‘at asarlari reproduksiyalarini ko‘rsatishning ham ahamiyati katta. Reproduksiyani talabalarga shunchaki ko‘rsatish, uning mazmunini tahlil qilish bilan chegaralanib qolmay, asarning yaratilish tarixi, asar haqida yirik olim, rassomlarning aytgan fikrlarini talabalarga yetkazish muhimdir. Avvalo ko‘rsatiladigan asarlar o‘z mazmuni va yaratilish tarixiga ko‘ra qiziqarli bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, bunday asarlar qatoriga I.Repinning “Ivan Grozniy va uning o‘g‘li Ivan”, V.Surikovning “O‘qchilar qatl etilgan tong”, N.Gening “Petr 1 shohzoda Aleksey Petrovichni so‘roq qilmoqda”. V.Perovning “Ovchilar manzilgohda”, Leonardo da Vinchining “Monna Liza. Jakonda” asarlari, T.Muhammedovning “Xo‘ja Nasriddinning sarguzashtlari” nomli kitobga ishlangan illyustratsiyalari, K.Bryulovning “Pompeyning so‘nggi kuni” kabilarni kiritish mumkin. Samarqand, Buxoro, Xiva me‘morchiligi yodgorliklari ham suhbat darslari uchun qiziqarli material bo‘lishi mumkin.

Bulardan tashqari, o‘zbek xalq amaliy san’ati va Sharq miniatyura rangtasviri namunalarini ko‘rsatish va bu haqda suhbatlar o‘tkazish ham yaxshi natijalar beradi. Talaba larni san’atga qiziqishlarini oshirishda yuksak badiiy saviyada ishlangan misgarlik, kashtachilik, naqqoshlik, kulolchilik, ganch va yog‘och o‘ymakorligiga oid buyumlarning asl nusxalari yoki bu san’at asarlarining reproduksiyalari, fotolarining ko‘rsatilishi va ularning atroflicha tahlil qilinishi, xalq amaliy san’at ustalari haqida suhbatlar o‘tkazish, ular bilan uchrashuvlar tashkil qilish, talabalarni amaliy san’at va o‘lkashunoslik muzeylariga (san’at bo‘limi) olib borish muhim ahamiyatga egadir.

Ma’lumki, Sharq miniatyura rangtasviri ma’lum davrlarda katta shuhrat qozongan. Uning shuhrati hozirgi davrda ham Sharq va /arb sharqshunoslarining e’tiborini o‘ziga qaratib kelmoqda. U o‘zining ishlanish uslubi, bezakdorligi bilan G‘arb san’atidan keskin farq qiladi.

Shuning uchun ham sharq miniatyura maktabi asarlarini, uning namoyondalari faoliyatini o‘rganish, talabalarda faqat turli san’at maktablarini bilishda ahamiyatli bo‘libgina qolmay, balki Sharq san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘sha davrdagi xalq hayotini bilib olishga yordam beradi. Sharq miniatyura asarlarini o‘rgatishda o‘qituvchi Behzod va uning miniatyura maktablariga alohida e’tibor berishi, uning shogirdlari hisoblanmish Sulton Muhammad, Qosim Ali, Darvish Muhammad, Muzaffar Ali, Rustam Ali, Mir Said Ali, Mahmud Muzaxxib, shuningdek, Muhammad Murod Samarqandiy, Sa’di Buxoriy, Muhammad Nodir Samarqandiy, Ahmad Kalla va boshqalarining hayoti va ijodi haqida to‘xtalishi talaba larning san’atga bo‘lgan qiziqishlarini bir qadar oshirishga yordam beradi.

Talabalarining tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda buyuk rassomlarning tarjimai hollari, ularning hayotidagi qiziqarli voqealardan so‘zlab berish ham foydalidir. Xayoti qiziqarli rassomlar qatoriga Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrant, Rubens, I.Levitan, Ch.Axmarov, O‘.Tansiqboev va boshqalarni kiritish mumkin. Talabalarni fanga qiziqtirishda mashg‘ulotlarni o‘yin va sarguzasht tarzida tashkil etish katta ahamiyatga ega. Qiziqtirishni bunday shaklining quyidagi yo‘llari mavjud:

1.Tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atiga oid chaynvord, krossvord, viktorinalar, testlar ishlatish. Bular musobaqa, individual tarzda bo‘lishi mumkin.

2.Tayyor rasmdagi kamchiliklarni topish, ularni to‘ldirish, rasmda ko‘rinmaydigan narsa va hodisalar tasvirini topish.

3.M.Dyubalyuning kishi yuzining turlicha psixologik holatdagi teri mushaklarining qisqarishini ko‘rsatuvchi sxematik ko‘rgazmalilikni talaba- larga namoyish etilishi ularda qiziqish orttiradi.

Xotirjamlik, qayg‘u, quvonch, dard-alam, kulgi, yig‘i, nafrat, diqqat, o‘ylash,



Talabalarining tasviriy faoliyatlarida turli material va tasvirlash texnikasini qo'llash talabalarining badiiy ijodini faollashtiradi, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

**2. Ko'rgazmalarni tashkil etish.** Tasviriy san'at ko'rgazmasi maxsus fan bo'yicha olib borilayotgan hamma ishlarning natijasi sifatida katta ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ko'rgazma orqali tasviriy san'at sohasida olib borilayotgan ishlarga baho berish mumkin bo'ladi. Shuningdek, ko'rgazma olib borilgan ishlar yakuni sifatidagina ahamiyatligina bo'lib qolmay, balki kelgusi ishlarda ham muhim o'rin tutadi.

O'qituvchi va to'garak rahbarlari ko'rgazmada qo'yilgan ishlarning tahlili orqali olib borilgan ishlarga yakun yasaydilar, ular san'atning qaysi turiga talabalar qanday munosabatda bo'lganliklari, san'atning (qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik, amaliy san'at) qaysi turiga yetarlicha e'tibor bermaganliklari, undagi yutuq va kamchiliklar, ko'rgazmada qaysi talabalar qanday yutuqlarga erishganliklari, talabalarining o'sishi va kamchiliklari yuzasidan yetarlicha ma'lumot oladilar. Ko'rgazmaning natijalari o'qituvchini kelgusida kamchiliklarni bartaraf etishda olib boriladigan ishlarini yanada takomillashtirishga imkon beradi.

Shu bilan bir qatorda, ko'rgazma talabalarining fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga ta'sir ko'rsatadi. Talabalar o'zlari va o'rtoqlari ishlagan ishlarni ko'rish hamda ularni solishtirish orqali o'zlarining faoliyatlariga xulosa yasaydilar, kelgusi rejalarini belgilaydilar. Shuning uchun ham ko'rgazmalarini to'g'ri tashkil etish va o'tkazish ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda katta rol o'ynaydi. Oliy ta'limda ko'rgazmalar tashkil etish borasida tayyor tavsiyalar berish mumkin bo'lmasa-da, ba'zi bir yo'l-yo'riqlar, umumiy ko'rsatmalar foydadan holi emas. Ular ko'rgazmalarining mazmuni, ularning xarakteri, yo'nalishi bo'yicha bo'lishi mumkin. Amaliyotda ko'rgazmalarining ikki xil shakli qo'llaniladi:

1. Talabalarining ijodiy ishlaridan tashkil etiladigan ko'rgazmalar.

2. Mashhur tasviriy va amaliy san'at ustalari asarlarining asl nusxalari yoki ularning reproduksiyalaridan tashkil etiladigan ko'rgazmalar.

Talabalarining ijodiy ishlaridan tashkil etiladigan ko'rgazmalarining shakllari nihoyatda turli-tuman bo'ladi:

Xususan :

1. Tasviriy va amaliy san'at ko'rgazmasi talabalarining eng yaxshi ishlaridan tanlab olish orqali tashkil etiladi.

2. Tasviriy va amaliy san'at ko'rgazmasi talabalarining eng yaxshi ishlarini tanlab olinishi natijasida yaratiladi.

3. Shaxsiy ko'rgazma soha bo'yicha katta yutuqlarga erishgan talabaning faoliyatiga doir bo'ladi.

Shaxsiy ko'rgazmalarni tashkil etishda ma'lum mavzuga rioya qilinishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, "O'zbekistonda bahor", "O'lkamda oltin kuz", "Do'stlik-tinchlik garovi", "Kelajak shaharlari", "Qishlog'imiz hayoti", "Sport va biz" va boshqalar.

Shuningdek, tasviriy va amaliy san'at, uning har bir turi va janrlari bo'yicha ham ko'rgazmalar tashkil etsa bo'ladi. Ko'rgazmalarni tanlov asosida ham o'tkazish mumkin.

Umuman, ko'rgazmaning qonun-qoidalarga rioya qilgan holda tashkil etilishi tomoshabinda yaxshi taassurot qoldiradi. Natijada talabalarda san'atning bu turiga bo'lgan hurmat va qiziqish oshadi.

### **Nazorat test savollari.**

#### **1. Tasviriy san'atni o'itishda tabaqalashtirishni qaysi turi qo'llaniladi?**

- + Darajali tabaqalashtirish
- Milliy tabaqalashtirish
- Regional tabaqalashtirish
- Jinsiy tabaqalashtirish

#### **2. Adabiy asarlar asosida rasm ishlash tasviriy san'at mashgulotlarining qaysi turiga kiradi?**

- + Kompozitsiya
- Badiiy qurish-yasash
- San'ashunoslik asoslari
- Naturaga qarab tasvirlash

#### **3. Darsda o'quvchilar faoliyatini baholash yo'llari qaysi qatorda to'g'ri belgilangan?**

- + Kuzatish, suxbat, ijodiy ish, munozara
- Mustaqil ish, test, insho, og'zaki so'rov, mashq
- Tabiatga sayohat, diktant, insho, rasm chizdirish
- Viktorina, krossvord echish, test, rasm chizish

#### **4. O'quvshilarning tasviriy faoliyatlarida ko'pro qaysi psixologik sifatlar ishtirok etadilar?**

- + Tasavvur, xotira, tafakkur
- Tafakkur, xarakter, qobiliyat
- Tafakkur, nutq, idrok
- Tasavvur, iroda, bilish, sezish

#### **5. O'qituvshining mustaqil o'zi ustida ishlash turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- + Kitob ish, o'qitish metodlari yuzasidan ijod qilish, tajribalarni o'rganish, tasviriy tarixini o'rganish, ijodiy ishlar
- Kitob ish, konsert va spektakllarga borish, ilg'or o'qituvchilar bilan mulootda blish
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish, boshalar darslarini kuzatish, darslarini yuqori saviyada o'tkazish
- Yangi tasvirlash texnologiyalarini o'rganish

**6. «1-4 auditoriyalarda rasm darslari» nomli metodik qo‘llanmaning mualliflari kimlar va uqaysi yili chop etilgan?**

- + M.Nabiev, A.Shoamidov, 1965 yilda
- I.Ikromov, M.Nabiev, 1953 yilda
- R.asanov, .Egamov, 1976 yilda
- M.Nabiev, .Egamov, 1961 yilda

**7. Tasviriy san’at o‘qitishdagi didaktik prinsiplar soni qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- + 6 ta
- 3 ta
- 4 ta
- 7 ta

**8. Tasviriy san’atni o‘qitishda nazoratning qaysi turlari qo‘llaniladi?**

- + Joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat
- Oraliq nazorat
- Yakuniy nazorat, oraliq nazorat
- Joriy nazorat

**9. «San’atshunoslik asoslari» darslarida talabalar qanday shaklda faoliyat ko‘rsatadilar?**

- + o‘qituvchi suxbatini tinglaydilar
- Naqsh ishlaydilar
- Kompozitsiya ishlaydilar
- Joriy nazorat

**10. Ilyustrativ rasm ishlash qaysi auditoriyalarda amalga oshiriladi?**

- + 1-7 auditoriyalarda
- Boshlang‘ich auditoriyalarda
- 5-7 auditoriyalarda
- Birinchi auditoriyada

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Hasanov R. Amaliy bezak san’ati mashg‘ulotlari metodikasi. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent, 2003.
2. Kuziev T. Abdirasilov S. Nurtaev U. Sulaymanov A. Tasviriy san’at. 5-auditoriya, darslik.-Toshkent, 2020.
3. Axmedova N.R. Jivopis Sentralnoy Azii XX veka: traditsiy, samobytnost, dialog. Osobennosti formirovaniya i razvitiya. - T.,2004.
4. Stepanova Ye.M. Metodicheskie osnovy risunka. Yekatinburg URFU 2016 B.14

5. Paranyushkin R.V., Trofimov Ye.N. Risunok figury cheloveka «Lan» Sankt-Peterburg 2015 B.24
6. A.Stepanova, I.Sergeevoy .Uchimsya risovat akvarelyu. Moskva Izdatelstvo AST 2017 B.16
7. B.Edwards Otkroyte v sebe xudojnika. Rabochaya tetrad Minsk. «Popurri» 2014 B.23
8. Jennifer Lilya Fashion Illustration Art. Copyright © 2015.B.3 R.Sh.Halilov “Qalamtasvir”Toshkent. 2016. Navro‘z B.9
9. R.Xudoyberganov Rangshunoslik asoslari Toshkent G.Gulom 2006. B.11
10. B.Tojiev, N.Isaxodjueva. Rangtasvir va kompozisiya(Natyurmort) Toshkent 2014 TDPU B.34

### **3-AMALIY MASHG‘ULOT. Mavzu: Ijodiy ishlarni muhokama qilish va tanqidiy tahlil qilish.**

**Ishning maqsadi:** O‘zbekistonda taniqli rassomlar tomonida yaratilgan tasviriy san‘at asarlari tahlili va ijodiy ishlarning muhokamasida talabalar bu jarayonda katta qiziqishlarga va bilimlarga ega bo‘lishadi, ular kelgusida ijodiy ishlarni yaratishda kamchiliklarga yo‘l qo‘imasdan sifatli asarlar yaratilar.

#### **Reja:**

##### **1. XX asr o‘zbekistonlik rassomlar asarlari tahlili.**

##### **2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonlik rassomlarining ijodiy ishlari muhokamasi.**

**1. XX asr o‘zbekistonlik rassomlar asarlari tahlili.** Mustaqillik sharofati bilan 1997 yilda O‘zbekiston badiiy akademiyasi tashkil etildi. Uning tarkibida rassomlar uyushmasi, san‘atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti, Kamoliddin Bexzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti va barcha viloyatlarda, Toshkent shaxrida bir qator badiiy kollej va ixtisoslashtirilgan san‘at maktab internatlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Xozirda deyarli barcha viloyatlarda, rassomlar uyushmasining bo‘limlari ish olib bormoqda.

Shu davrda g‘oyaviy va badiiy jihatdan yuksak saviyada ishlangan san‘at asarlaridan biri O‘.Tansiqboevning 1957 yilda yaratilgan “ qayroqqum GES i tongi” asaridir.

XX asr o‘zbek rassomligi asarlaridan yana biri P.P.Benkovning 1931 yilda yaratilgan “Xevalik qiz” nomli asaridir.

Asarni kuzatishda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim .

-asarda qanday ko‘rinish va qanday voqea tasvirlangan?

-uni qaerdan bilish mumkin?

-asardagi voqeada yilning qaysi fasli va kunning qaysi vaqti tasvirlangan?

-asar markazini qanday ko‘rinish tashkil etadi?

-rassom suratda qanday g‘oyani ilgari surgan?

-asarning badiiy saviyasi qanday?

-nima uchun yoqdi, yoki nima uchun yoqmadi?

Suratda Xivadagi xovlining bir burchagida charx bilan ip yigirayotgan qiz tasvirlangan. Uning xamma e‘tiborli ishga qaratilgan. U ishga shunchalik berilib ketganki, undagi bunday xolat bu ishga ko‘nikib ketgan odamlardagina bo‘ladi. qiz charxga ip o‘rashni nixoyatda erkin va chaqqonlik bilan bajaryapti. Suratda mexnat mavzusi lirik va dildan xal qilingan. Rassom tamoshabinni qizning xarakatidagi go‘zallikdan, undagi tinch ritmdan zavqlanishga majbur etadi. Rassomning badiiy didi sarg‘ish-yashil sir bilan qoplangan laganda, qiz boshidagi o‘ziga xos yorqin binafsha rangdagi ro‘molda namoyon bo‘ladi. qiz bola rasmini ilk baxorda ko‘cha-ko‘y va loyli tomlarda ochiluvchi yorqin va nafis yaproqli qipqizil lola qizg‘aldoqlarga o‘xshating keladi.

P.Benkovning “Xevalik qiz” asari rassomning muvaffaqiyatli suratlaridan biri xisoblanib, u hozirgi kunda Moskvadagi Tretyakov nomli suvratlar galereyasida saqlanadi. Suvratni kuzatishda quyidagilarga e‘tibor berish lozim:

-suratda qanday voqea tasvirlangan?

-asardagi voqea qaysi fasl va kunning qaysi vaqtida tasvirlangan?

-uni qanday bilish mumkin?

-asar orqali rassom qanday g‘oyani ilgari surgan?

-asarning badiiy saviyasi xaqida qanday fikrdasi

O‘rganish uchun tavsiya etilgan grafik asarlaridan yana biri A.Siglinsevning “Mening uyim-sizning uyingiz” deb nomlanadi. Grafik rassomning bu asarida ikkinchi jaxon urushi davrida O‘zbekistonga yuborilgan yetim talabalar dan 9 tasini o‘z bag‘riga olgan o‘zbek oilalaridan biri tasvirlangan.

Xaqiqatda 9 nafar bolani bir oilada katta qilish biroz mushkul albatta, biroq bag‘ri keng va xaqiqiy odamiylik xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi kishilarga bu

narsa mushkul emas. Bu g'oya yuqoridagi suratda badiiy tasvirlangan. Suratga qarab talabalar ni bu oilada normal xayot kechirishlariga ishonasiz, chunki oila boshlig'i ularni nixoyatda mexribonlik bilan qabul qilyapti.

Suvratda kuz fasli tasvirlangan bo'lishi xaqiqatga yaqin. Oila boshlig'ining egnida to'n, ayol boshida ro'mol, talabalar xam shunday kiyinishgan, ularning ba'zilari qalpoq xam kiyib olishgan, orqa planda esa mevali olma daraxti aks ettirilgan.

Rassom asarda o'zbek xalqining bolajonligi va boshqa millatlar oila xamdo'stligini ifodalashga xarakat qilgan va o'z maqsadiga erishgan.

Rassom suvratni shunday ustalik bilan ishlaganki, u rangsiz bo'lishiga qaramay, kishida voqea xaqida to'liq tushuncha xosil qiladi. Talabalar ning qaysi millatga mansub ekanligi yaxshi sezilib turibdi. Umuman, suvrat kishida oila boshlig'iga nisbatan iliq taassurot qoldiradi.

Endi suvratni kuzatishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

-Suvratni yana qanday nomlash mumkin?

-suvratda qanday voqea tasvirlangan?

-suvratdagi kishi nima uchun talabalar ni o'z bag'riga olyapti?

-suvratda qaysi fasl tasvirlangan? Nima uchun shunday o'ylaysiz?

-rassom suvratda nega olma daraxtining rasmini ishlagan?

-rassom o'z asarida qanday g'oyani ilgari surgan?

Bu davrga xos yuqori badiiy saviyadagi xaykaltaroshlik asarlaridan yana biri X.Xusniddinxo'jaev, V.Lunev, M.Bulatovlarning 1970 yilda yaratilgan "Navoiy va Jomiy" nomli monumentlaridir.

Navoiy va Jomiyga bag'ishlangan ushbu asar-xaykaltaroshlikning monument turiga kiradi. (Monument-yirik o'lchovli yodgorlik xaykalidir). U sun'iy toshdan o'yib ishlangan va Samarqanddagi Registon maydoniga o'rnatilgan. Asarda mualliflar ustoz va shogird obrazini yaratganlar. Unda ustoz va shogird obrazi shunchaki tasirlanibgina qolmasdan, ular orqali o'zbek va tojik xalqlarining tarixiy do'stligi simvolik tarzda talqin etiladi. Bunga rassomlar ikki kishi qomatining pastki qismini o'zaro tutashib ketgandek tarzda tasvirlash orqali erishganlar.

Monumentni kuzatar ekansan ulug' siymolar-Navoiy va Jomiylarning iliq munosabatlari xayolingdan o'tadi va mualliflarning maxoratiga qoyil qolasan.

Monument rasmini kuzatishda, quyidagilarga e'tibor berish lozim:

-monumentni yana qanday nomlash mumkin?

-asarda tasvirlangan kishilar nimalar xaqida gaplashayotirlar?

-uni qanday bilsa bo'ladi?

-nega Navoiy va Jomiy xaykalining pastki qismlari aniq ishlanmagan? ular tutashib ketgan.

-mualliflar asar orqali qanday g'oyani ilgari surganlar?

O'zbekiston xalq rassomi Abdulxaq Abdullaevning "A.Xidoyatovning Otello rolidagi portreti" asari uni "Otello" spektaklini tamosha qilganidan keyin 1946 yilda tug'ilgan edi.

Portret orqali aktyorning bizga tanish bo'lgan tomonlarini ko'ramiz, shuningdek, ko'z oldimizda Otello xam namoyon bo'ladi. Rassom Xidoyatovni Otelloning qiyofasi va xarakterini, uning fikr va xis-tuyg'ularini o'zida aks ettirgan xolda tasvirlaydi. Suratda biz go'zal va baxtli turmushi buzilgan odam aks etadi.. Buni qaxramon qomati bir oz yengil orqaga tashlaganligi, boshini mag'rur tutishi, keskin burilishi, qat'iy qarashlarida ko'rish mumkin.

Bulardan tashqari, aktyorning yuzidagi mimika, dadil xarakati va xolati, shuningdek asar kompozitsiyasi, koloriti xam muvaffaqiyatli chiqqan.

Otello obrazidagi mag'rurlik, jiddiylikni ko'rsatish maqsadida rassom aktyor tasvirining yuqori, chap va o'ng tomonlarini suvrat chegarasiga taqalgan xolatda tasvirlaydi. A.Xidoyatovning suvratdagi ruxiy xolati to'q qizil, iliq jigarrang, och sarg'ish ranglarda berilishi orqali ochib berilgan.

Navbatdagi taxlil 1963 yilda yaratilgan J.Umarbekovning "Navoiy va Xusayni Boyqaro yoshlikda" nomli asari xam O'zbekistonning XX asr tasviriy san'atida e'tiborga loyiq ishlardan biri xisoblanadi.

XX asr O'zbekiston tasviriy san'atining yutug'i shundaki, bu davrda tasviriy san'atni realistik rangtasvir, grafika, xaykaltaroshlik turlari shakllandi va tez rivojlana boshladi. Salbiy jixatlardan biri tasviriy san'atni ko'pgina oqimlarida ijod qilish taqiqlab qo'yildi. Natijada O'zbekiston tasviriy san'atini xorijga chiqish imkoniyatlari kamaydi.

## **2.Mustaqillik yillarida O'zbekistonlik rassomlarining ijodiy ishlari muhokamasi.**

O'zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san'atni taraqqiyotiga zamin yaratdi. Bu davrda tasviriy san'atning rangtasvir, xaykaltaroshlik, grafika turlari, uning ko'pgina janrlari rassom va xaykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyatlar keng tus oldi. Sobiq Ittifoq davrida ijodkorlar yagona sotsialistik realizm oqimida ijod qilgan bo'lsalar, xozir ular xam ikkilanmasdan o'zlarini qiziqtirirayotgan avangardizm, romantizm, impresionizm, abstraksionizm va boshqa qator oqimlarda va mavzularda yuksak badiiy saviyada asarlar yaratmoqdalar.

Mamlakatimizda tasviriy san'atning taraqqiyotiga O'zbekiston badiiy Akademiyasini tashkil etilishi xam muxim axamiyat kasb etdi. Mazkur Akademiya qoshida Komoliddin Bexzod nomidagi milliy rassomchilik va dizaayn instituti, san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, ko'plab rassomchilik, dizayn kollejlari, "San'at" jurnali faoliyat ko'rsatmoqda. Milliy rassomchilik va dizayn institutida, tasviy san'at yo'nalishlardagi kollejlarda jaxon standartlariga mos keladigan milliy kadrlar yetishib chiqmoqda va ular O'zbekiston san'atini yangi bosqichiga olib chiqishi shubxasizdir. Mustaqillik yillarida ijod qilayotgan rassom va xaykaltaroshlarimizning yutuqlari shundaki, ular birinchidan erkin ijod yo'liga o'tganliklari bo'lsa ikkinchidan milliy badiiy an'analarni davom etdirish, milliylik va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi, asarlarda yangi, zamonaviy, ilg'or tasviriy texnologiyalarni qo'llash kabi muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqdalar.

Mustaqillik ne'matidan baxramand bo'lgan keksa va o'rta avlod rassomlarimiz ijodida xam ijodiy ko'tarinlik ko'zga tashlanadi. Uni M.Saidov, N.Qo'ziboev, M.Boboev, V.Burmakin, M.Yo'ldoshev, J.quttimurodov, T.Mirjalolov, T.Kuryozov, A.Ikromjonov, J.Umarbekov, B.Jalolov, A.Mirzaev, Z.Faxriddinov, R.Xudayberganov, A.Mo'minov, A.Nuriddinov kabi rassom va xaykaltaroshlar ijodida ko'rish mumkin. Milliy istiqlol g'oyalari bilan sug'orilgan bunday portret janridagi yaratilgan asarlar qatoriga Amir Temur, Alisher Navoiy, Jamoliddin Manguberdi, Kamoliddin Bexzod, Nodirabegim, Bibixonim, Spitamen portretlarini kiritish mumkin.

Manzara va natyurmort janrlarida samarali ijod qilayotganlardan orasida L.salimjonova, A.Mo'minov, S.Abdullaev, I.Xaydarov O.qozoqov, G'.Abduraxmonov, A.Mirsoatov kabi rassomlarni ko'rsatish mumkin. Ularning asarlari Vatan jamoli, uning meva va sabzavotlari yuksak badiiy saviyada ishlangan bo'lib, yoshlarni Vatanni sevishga, ni asrab avaylashga, uni ko'paytirishga undaydi, tabiatdagi nafosatdan zavqlanishga chorlaydi.

Tarixiy, turmush va boshqa janrlarda yaratilgan asarlar orasida B.Jalolovning "Oltin asr", "Koinot ustunlari", "Abadiyat gumbazi ostida", S.Alibekovning "aroyib sharbat xidi", J.Umarbekovning "Zilzila", "Xavorang musiqachilar", V.Oxunovning "Buddaning tongi sayri" kabilar diqqatga sazovordir.

A.Isaev, J.Usmonov, A.Roziqov, R.Temurov, T.Axmedov, T.Karimov, Sh.Abduraxmonov, B.Ismoilov, /qodirov kabi yosh rassomlar xam barakali ijod qilmoqdalar. Ularning ijodiy ishlarida reallik, oydinlik, sharqona nafislik,



umumiy falsafiy tafakkur, badiiy ko‘rkamlik, tugallik, sokinlik va ijodkorlik to‘la o‘z ifodasini topadi.

Chingiz Axmarovning nomi bilan bog‘liq maxobatli rangtasvir bu davrda yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Respublikamizning ko‘plab jamoat va madaniy binolari, shu qatori Toshkent metrosi bekatlariga ishlangan devoriy suvrat, mozaika, vitrajlar xalqimizga estetik zavq bag‘ishlamoqda.

Bu borada A.Aliqulov, B.Olimxonov, A.Ikromov, A.Isaev, E.Muxammadiev, N.Sultonov, N.Xolmatov, Sh.Muxammadjonov, A.Buxorboev, T.Boltaev, X.Nazarov kabilar ustozlari an‘analarni davom etdirib yangidan-yangi muvaffaqiyatlarni erishmoqdalar.

Mozaika, vitraj bo‘yicha B.Jalolov, A.Buxorboev, V.Gan, I.Egorovlar barakali ijod qilishib “Umar Xayom tushi”, “Nimaga tug‘ilganimni xech kim aytmaydi”, “Navro‘z”, “Tuman ma‘budasi”, “Abadiyat gumbazi ostida”, “Buyuk soxibqiron-buyuk bunyodkor”, “Sport o‘yinlari tarixi”, “Buyuk ipak yo‘li”, “Flora” kabi asarlar yaratdilar.

O‘zbekistonda rangtasvir san‘ati o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarilmoqda va iqtidorli yosh rassomlar yetishib chiqmoqda.

O‘zbekistonda xaykaltaroshlik tasviriy san‘atning mustaqil turi sifatida o‘zining yangi taraqqiyot bosqichini o‘tamoqda.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xaykaltaroshlaridan I.va K.Jabborovlar, K.Norxo‘rozov, J.Quttimurodov, E.Aliev, A.Raxmatullaev, N.Bondeladze, V.Degtyarov, L.Ryabsev, J.Mirtojiyev, U.Mardievlarning samarali mexnat qildilar. Bu xaykaltaroshlarning asarlari orasida o‘zining yuksak badiiyligi bilan J.Mirtojiyevning “Abdulla qodiriy nomli ishi ajralib turadi.

Ular orasida E.Aliev, N.Bandeladze, V.Degtyarovlarning Toshkentdagi milliy bog‘ uchun yaratilgan “Alisher Navoiy” (1991) nomli yodgorlik xaykali, A.Raxmatillaev va P.Podosinnikovlarning Navoiy shaxriga o‘rnatilgan Alisher Navoiy xaykali (2001). I.Jabborov va K.Jabborovlarning Toshkentning Amir Temur xiyoboniga o‘rnatilgan Amir Temur xaykali (1993), Shaxrisabz shaxrida o‘rnatish uchun yaratgan Amir Temur xaykallari (1996) o‘zining yuksak badiiyligi bilan diqqatga sazovordir.

I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan yaratilgan Amir Temur xaykali (1996) uning 660 yilligi munosabati bilan Shaxrisabzda o‘rnatildi. Xuddi shu mualliflarning Axmad Al-Farg‘oniyga bag‘ishlangan ishi 1998 yilda Farg‘ona shaxri uchun bunyod etildi.

Xalq qaxramoni Jaloliddin Manguberdi obrazi (1998) I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan yaratildi va u Urgench shaxrini bezab turibdi.

Iqtidorli xaykaltarosh R.Mirtojiyev tomonidan Andijon shaxrida o‘rnatish uchun yaratilgan Zaxiriddin Muxammad Bobir, Cho‘lpon xaykallarini Toshkent shaxri uchun mo‘ljallangan Abdulla qodiriy, Jizzax shaxri uchun “Ona” yodgorlik-xaykallari o‘zining yuksak badiiyligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

1999 yilda o‘zbek xalq dostoni “Alpomish” ning ming yilligi nishonlandi. Bu sanaga bag‘ishlab A.Raxmatullaev va boshqalar tomonidan yodgorlik majmuaini yaratdilar. Unda Alpomish bilan bir qatorda Barchinoy va Yodgor obrazlari xam aks etdirilgan va u Termiz shaxrida o‘rnatildi. Mustaqillik yillarida o‘zbek grafik rassomlarining ijodida milliylik va zamonaviylik uyg‘un rivojlanayotganligi yaqqol ko‘zga tashalanadi. Keksa va o‘rta avlod rassomlari Q.Basharov, T.Muxamedov, M.Kagarov, M.Sodiqovlar bilan bir qatorda V.Apuxtin, G‘.Boymatov, A.Mamajonov, B.Ismoilov, D.O‘razaev, S.Isxoqov, T.Ayupov, T.Axmadaliev, R.Azizov, T, G.Sultonova, L.Ibragimov kabilar samarali mehnat qilmoqdalar. Ular tomonidan kitob grafikasi, plakatga doir asarlari mazmuni va g‘oyaviyligi bilan diqqatga sazovordir. Bunni V.Apuxtinning “Koinot-inson”, /.Boymatovning “Urgutda to‘y”, A.Mamajonovning “Kurash”, “Eski shaxar”, T.Ayupovning “Mavzu”, T.Axmadalievning “Senga omad Temur”, L.Ibragimovning “Osiyo okeani”, “Baxor”, M.Sodiqovning “Buxoro”, S.Redkinning “Eski Samarqand”, N.Kolonovning “Kulol”, Sh.Muxammadjonovning Maxmud qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” nomli asarlarida ko‘rish mumkin .

---

### **Nazorat test savollari.**

1. Amir Temur xaykali mualifi kim?
2. Amir Temur portretini mualifi kim?
3. J.Mirtojiyev tomonidan yaratilgan xaykallarni nomini ayting?
4. Zaxiriddin Muxammad Bobir portretining mualifi kim?
5. Mahobatli rangtasvirchilar kimlar?

### **# “Go‘ri - Amir” maqbarasi neshanchi yillarda qurilgan?**

- + 1403 - 1404
- 1415 - 1417
- 1667 - 1601
- 1556 – 1560

### **# Qaysi qatorda o‘zbekiston san’ashunos – olimlarining ismi berilgan?**

- + G. Pugachenkova, L. Rempel, A. Umarov, R. Toktosh
- G. Pugashenkova, Veymrman A. Umarov

- R. Toktosh, S. Bulatov, Saloxov, T. Maxmudov
- Lazarov, Veymarn, L. Rempel

**# Bibixonim masjidi qaysi shaharda qurilgan?**

- + Samarqandda
- Buxoroda
- Jizzaxda
- Andijonda

**# «Antik» soʻzi tarjimai maʼnosi**

- + Qadimgi
- Oʻtgan zamon
- Namunali
- Ilgʻor

**# Dastgohli (molbertda) bajarilgan tasviriy sanʼat asarlari qaerlarga qoʻyiladi?**

- + Muzey, koʻrgazma zali, turar joy interʼeri
- Park hiyobonlari
- Meʼmoriy inshootlar
- Shahar maydonlarida

**# Sangina, pastel, sous kabi badiiy materiallar tasviriy sanʼatning qaysi turida qoʻllaniladi**

- + Grafikada
- Haykaltaroshlikda
- Monumental rangtasvirda
- Naqqoshlikda

**# Kitob grafikasida ijod qilgan rassomlar qaysi qatorda?**

- + V.Kaydalov, T.Muamedov
- M.Nabiev, Ya.Salpinkidi
- A.Moʻminov, Gʻ.Abduraxmanov
- A.Ikromjonov, A.Mirzaev

**# Dastgohli rangtasvir nima?**

- + Molbertda ishlangan surat
- Devorga ishlangan tasvir
- Jurnalda tasvirlangan rasm
- Kitobga ishlangan rasm

**# Yirik haykaltaroshlik turi qaysi qatorda?**

- + Monumental haykaltaroshlik
- Mayda plastika, terrakota

- Dekorativ haykaltaroshlik
- Dastgoh haykaltaroshlik

### **# San'atning qaysi turi tasviriy san'at turiga kirmaydi?**

- + Musiqa, Adabiyot
- Grafika, me'morlik
- Haykaltaroshlik, kitob grafikasi
- Rangtasvir, grafika

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

11. Hasanov R. Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi. O'quv qo'llanma.- Toshkent, 2003.
12. Kuziev T. Abdirasilov S. Nurtaev U. Sulaymanov A. Tasviriy san'at. 5-auditoriya, darslik.-Toshkent, 2020.
13. Axmedova N.R. Jivopis Sentralnoy Azii XX veka: traditsiy, samobytnost, dialog. Osobennosti formirovaniya i razvitiya. - T.,2004.
14. Stepanova Ye.M. Metodicheskie osnovy risunka. Yekatinburg URFU 2016 B.14
15. Paranyushkin R.V., Trofimov Ye.N. Risunok figury cheloveka «Lan» Sankt-Peterburg 2015 B.24
16. A.Stepanova, I.Sergeevoy .Uchimsya risovat akvarelyu. Moskva Izdatelstvo AST 2017 B.16
17. B.Edwards Otkroyte v sebe xudojnika. Rabochaya tetrad Minsk. «Popurri» 2014 B.23
18. Jennifer Lilya Fashion Illustration Art. Copyright © 2015.B.3 R.Sh.Halilov "Qalamtasvir" Toshkent. 2016. Navro'z B.9
19. R.Xudoyberganov Rangshunoslik asoslari Toshkent G.Gulom 2006. B.11
20. B.Tojiev, N.Isaxodjieva. Rangtasvir va kompozisiya(Natyurmort) Toshkent 2014 TDPU B.34

### **4-AMALIY MASHG'ULOT. Mavzu: Talabani ijodiy jarayonga yo'naltirishda pedagogning kasbiy kompetentligi.**

#### **Ishning maqsadi:**

Oliy o'qquv yurtlarida qalamtasvir, rangtasvir mashg'ulotlarida o'qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari asosida darsni tashkil etish va yuqori natijalarga erishish, o'qituvchining kreativligini oshirish, ularning kasbiy maxoratlari va kompetensiyalarini oshirishga erishish maqsad qilib belgilangan. Shuningdek, erishilgan natijalarni o'qquv jarayonida qo'llash orqali talabani ijodiy jarayonga yo'naltirishda pedagogning kasbiy kompetentligi oshirish.

## **Reja:**

- 1. Tasviriy san'at o'qituvchilarning kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.**
- 2. Tasviriy san'atni yoshlarga o'rgatishda pedagogning kasbiy kompetentligi.**

**1. Tasviriy san'at o'qituvchilarning kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.** Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar tizimida madaniyat va san'at sohasidagi ishlar alohida ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, ajdodlar merosini qayta tiklash bilan bog'liq bunyodkorlik ishlarida tasviriy san'atining tarixiy an'alarini o'rganish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish bo'yicha ibratli ishlar olib borildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biri xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat va san'at, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirishdir. Chunki har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Zero, ilm bobidagi izlanish insonni ma'naviy, axloqiy-yestetik kamolot sari etaklaydi.

Shu kunlarda xukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan davlat dasturi ana shu ezgu erishish yo'lida, jami davlat va nodavlat manbalarini xisobga olgan xolda, mavjud barcha resurs va imkoniyatlarimizni safarbar etishni ko'zda tutadi. O'zbekiston respublikasining «Ta'lim tug'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlashning milliy modeli asosida olib borilayotgan ijtimoiy harakatning dastlabki bosqichlarida ta'limning yangi mazmunini aks etiruvchi DTS, Malaka talablari, o'quv dasturlari; darsliklar va qo'llanmalar yaratildi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya sohasini axborotlashtirish jarayonida hosil bo'ladigan va qayta ishlanayotgan axborot-lar hajmi kun sayin ortib hamda zamonaviy kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalari vositalari tez sur'atlar bilan mukammalashib va takomillashib bormoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimini, shu jumladan o'qituvchi –pedagoglarni, talabalar ni kerakli axborot manbalari bilan ta'minlash, ularni to'plash, saqlash va qayta ishlash usullari bo'yicha kerakli bilim va malakalarini, ya'ni kompetensiyasini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning ijtimoiy va professional shartlari doimiy o'zgarib turadigan sharoitda ushbu vazifani amalga oshirishning muhim omillaridan biri - bu tasviriy san'at o'qituvchilarning

kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanishdir. Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari asosida o'qituvchilarning kompetensiyasini shakllantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: – axborot-telekommunikatsion texnologiyalar o'rganish obekti sifatida, ya'ni yangi axborot texnologiyalar, ularning tarkibiy qismlar va foydalanish sohalari bo'yicha umumiy tushuncha va malakalarga ega bo'ladilar; – axborot-telekommunikatsion texnologiyalar o'qitish vositasi sifatida, ya'ni zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida bilim beriladi hamda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari kompyuterlarning zamonaviy dasturiy vositalari asosida tashkil etiladi; – o'quv jarayonini boshqarish vositasi sifatida, ya'ni ta'lim muassasasining barcha ish faoliyati, shu jumladan o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tatqiqot ishlari samaradorligini oshirish uchun axborotlashtirish, tahlil va bashorat qilish tizimini yaratish vositalari o'rgatiladi; – ilmiy-tatqiqot va pedagogik izlanishlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot tizimlarini yaratish va tatbiq etish bo'yicha bilim va malakalar shakllantiriladi. Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'qituvchilarning kompetensiyasini shakllantirishda asosiy e'tibor axborot resurslari va jamiyatning axborotlashuvi, Internet tarmog'idan axborotlar izlash va topish, ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, axborot texnologiyalari asosida o'quv-uslubiy va pedagogik-tatqiqot faoliyatlarni shakllantirish mavzularni o'zlashtirishiga qaratish muhim hisoblanadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy qilinishi axborot tizimini rivojlantirish bo'yicha eng muhim imkoniyatlardan biri ekanligini ko'rsatmoqda

Axborot tizimining asosiy funksiyalari quyidagilar:

- ta'lim sohasida mustaqil ta'lim olish, malaka oshirish va o'z ustida mukammal ishlash faoliyatini tashkil etishda yordam berish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ish faoliyatida ulardan foydalanish;
- kasbiy faoliyat va boshqa sohalarga tegishli axborotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash;
- bilim va mahoratlarini yangilash va chuqurlashtirish;
- dars jarayonini yangi axborot va pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Axborot tizimida pedagoglar va ta'lim xodimlari uchun uslubiy muhit yaratish, kerakli axborotdan samarali foydalanish, zamonaviy axborot manbalaridan uslubiy yordam olish, o'z faoliyati yuzasidan kerakli bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish uchun xizmat qiladi.

**1. Tasviriy san'atni yoshlarga o'rgatishda pedagogning kasbiy kompetentligi.** Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan boy tarixga ega, millatimizning

ijtimoiy madaniyatida tasviriy san'at keng tarqalgan bo'lib, jamiyat hayotida milliy qadriyat sifatida chuqur o'rin egallab kelgan. Shaxs tarbiyasi va uning ta'lim olishi, yuksak badiiy didli bo'lib tarbiya olishiga oid masalalar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida olimu-fuzalolar, mutafakkirlar, psixologlar, faylasuf va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Qomusiy allomalar – Abu Nasr Forobiy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning komil inson tarbiyasi va uning mohiyati haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Pedagogning kasbiy kompetentligi adabiyotlarini o'rganish va tahlil etishdan shunday xulosaga keldikki, E.Kvyatkovskiy, T.Mahmudov, M.Ovsiyannikov, V.Skatershikov, S.Fayzulina, S.Shermuhamedov kabi olimlar tomonidan san'at, madaniyat, nafosatning falsafiy, pedagogik jihatlari ishlab chiqilgan. Tasviriy san'atini o'qitishning psixologik jihatlari B.Ananov, M.G.Davletshin, e.Ignatev, B.Teplov, P.Yakobsonlarning asarlarida ham o'z aksini topgan.

Tasviriy san'atni yoshlarga o'rgatishda pedagogning kasbiy kompetentligi oshirishda talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirishda har doim ham rassom-pedagoglar zimmasida bo'lib, ularning kasbiy kompetentligi va kreativligi juda muhim sanaladi. Zamonning shiddat bilan rivojlanishi natijasida bugungi kunda barcha jabxalar qatori ta'lim sohasiga ham innovatsion texnologiyalar kirib keldi. Ammo O'zbekiston ta'lim tizimida, tasviriy san'at mashg'ulotlarida ilg'or zamonaviy texnologiyalardan kam foydalanilmoqda. Bu xolat esa ta'limning samaradorligiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Ta'lim tarbiya tizimini takomillashtirish so'zsiz uning sifati va samaradorligini oshirishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida, mamlakatimizni kelgusi besh yillikda rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida oliy ta'lim sohasini va umumta'lim tarbiya tizimini taraqqiy ettirish borasida ham kompleks chora tadbirlar belgilangan. Bu chora tadbirlarni amalga Umumta'lim maktablari ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 21 aprel 2017 yil. 11 oshirish uchun rejalashtirilgan barcha vazifalar to'la – to'kis, xayotda samara berishi, albatta ma'naviy bilimga, kuchli intellekt va yuksak ma'navitga ega aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich ta'lim sohasini rivojlanishiga qo'llaydigan kadrlar

saloxiyati orqali ruyobga chiqadi. Talabalarni ijodiy jarayonga yo‘naltirishda bu bevosita ta‘lim-tarbiya tizimini barcha bo‘g‘inida faoliyat ko‘rsatayotgan tarbiyachi, o‘kituvchi va professor-o‘qituvchilarning o‘zi ishlaydigan soxasi bo‘yicha o‘quv fanini va uni o‘qitish metodikasini, uni amalga oshirishi qonuniyatlarini yaxshi biladigan, kompetensiyasiga bog‘liq. Anna shunday kompetensiyali kadrlarni tayyorlashni asosi esa umumiy o‘rta ta‘limda va oliy ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida amalga oshiriladigan ta‘lim-tarbiyaning qanchalik sifatli va samara beradigan qilib, amalga oshirish natijasida yaratiladi. Tasviriy san‘atni yoshlarga o‘rgatishda pedagogning kasbiy kompetentligi oshirishda bu esa uzluksiz tizimining barcha bo‘g‘inida olib boriladigan pedagogik jarayonda tarbiya oluvchi talabalar ga beriladigan bilim zamonaviy talablarga javob beradigan kuchli intellektni hosil qilishi va yuksak kompetensiyani shakllanishi zarur.

Shu sababdan ham tadqiqot ishi mavzusini “Tasviriy san‘at o‘qituvchilarining kasbiy maxorati va pedagogik kompetentligini rivojlantirish” (Talabani ijodiy jarayonga yo‘naltirishda pedagogning kasbiy kompetentligi ) deb belgiladik.

Talabani ijodiy jarayonga yo‘naltirishda pedagogning kasbiy kompetentligi vazifalari qo‘yidagicha:

-Oliy pedagogik ta‘limda tasviriy san‘atini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish;

-Tasviriy san‘at o‘qituvchilarining kasbiy maxaoratini oshirish;

– Tasviriy san‘at o‘qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish va olingan natijalar asosida ilmiy-metodik tavsiyalar, o‘quv metodik qo‘llanmalar tayyorlash hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oliy o‘quv yurtlari tasviriy san‘at o‘qituvchilarining kasbiy maxorati va kompetensiyalarini oshirishda, amaliy mashg‘ulotlar samaradorligiga erishish mumkin, agarda:

1. Talabalarga ta‘lim berish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati tashkil qilinsa.

2. Talabalarining bilimlarni samarali egallashlarida o‘quv faoliyatini shakllantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratilsa.

3. Rangtasvir mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonida talabalarining mustaqil o‘quv faoliyati maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etilsa va rivojlantirilsa.

4. Dars mashg‘ulotlariga innovatsion kompyuter texnologiyalari olib kirilsa va samarali qo‘llanilsa.

5. Pedagog barcha darslarda zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari bilan qurollanishga erishilsa;



6. Amaliy mashg'ulotlarning o'quv uslubiy majmualarini interaktiv tarzda "flash", "Autoplay", dasturlari yordamida elektron variantlarini tayyorlash va amalada tadbiq qilish;

Ushbu tadqiqot ishini tajriba sinovdan o'tkazish va uning samaradorligini aniqlash;

O'zbekiston Respublikasining "ta'lim to'g'risida"gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, hamda kadrlar tayyorlashning milliy modeli g'oyasi asosida olib borilayotgan ijtimoiy harakatning dastlabki bosqichlarida ta'limning yangi mazmunini ifoda etuvchi Malaka talablari, o'quv dasturlari, darsliklar va qo'llanmalar yaratildi. Shuningdek, o'rta umumta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga tasviriy san'atdan malakali pedagog kadrlarni tayyorlash hamda Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz forovonligini yanada yuksaltirishdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishi bilan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash talabalar ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda, lekin keyingi yillarda ta'lim sohasiga davlat tomonidan qo'yilayotgan yuksak talablar, malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, unga bilim olishning samarali usullarini joriy etishni talab etadi. Bunday usullar faol mustaqil bilim olishga asoslangan bo'lishi, bilim olish jarayonining samaradorligini oshirish va e'tiborni ilmiy, uslubiy faoliyatga ko'proq qaratilishi lozim bo'ladi. Talabaning auditoriyadagi faol mehnatiga asoslangan faqat tayyor bilimlarni egallashga qaratilgan, an'anaviy ta'lim o'z ahamiyatini yo'qotmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida zarur bilimlarni talabalar qidirib topishga, mustaqil o'rganishga, xulosa chiqarishga o'rgatadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarga e'tibor kuchayib bormoqda. Talabalarning faolligini oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan noan'anaviy darslarni amalga oshirish, ularning uslubiyatini yaratish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Yendilikda o'qitish jarayonida talabalarni fikrlashga, tasviriy san'at qonuniyatlarini takomillashtirish va rangtasvirda portret ishlashning turli metodlarini ishlab chiqish va ular bilan birgalikda o'qitish vositalaridan samarali foydalanish uchun tavsiyalar va ko'rsatmalar yaratish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Talabani ijodiy jarayonga yo'naltirishda pedagogning kasbiy kompetentligi talabalarning tasviriy san'at mashg'ulotiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi, ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi o'sishida alohida o'rin tutadi.

### **Nazorat test savollari.**

1. Kompetensiya nima?
2. Pedagogik texnologiya nima?

3. Rangtasvirning qanday turlari bor?
4. Ijodiy ish degenda nimani tushunasiz?
5. Qomusiy allomalardan kimlarni bilasiz?

**# N.Rostovsevning Oliy ta'limda tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga doir o'quv qullanmasining nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- + Metodika prepodavaniya izobrazitelnogo iskusstva v obshchobrazovatelnoy shkole
- Metodika risovaniya v shkole
- Soderjanie i metodika prepodavaniya izobrazitelnogo iskusstva v shkole
- Metodika prepodavaniya izobrazitelnogo iskusstva v shkole

**# Tasviriy san'at o'quv predmeti qaysi san'at turlarini ichiga oladi?**

- + Tasviriy san'at, amaliy san'at, me'morchilik, grafika, haykaltaroshlik
- Tasviriy san'at, me'morchilik, grafika, musiqa.
- Tasviriy san'at, amaliy san'at
- Tasviriy san'at, amaliy san'at, foto san'ati.

**# Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarida materiallarning qaysi turlari qo'llaniladi?**

- + Tashlandi materiallar, badiiy materiallar, tabiiy materiallar
- Tabiiy materiallar.
- Badiiy materiallar
- Tabiiy materiallar, tashlandi materiallar

**# Oliy ta'limda tasviriy san'at mashg'ulotlarining maqsadi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- + Talabalarining badiiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish
- Talabalar ni rasm chizishga o'rgatish
- Talabalar ni oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorlash
- Talabalar ni estetik jihatdan tarbiyalash

**# Boshlang'ich auditoriyalarda tasviriy san'at mashg'ulotlarining turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan**

- + Borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, badiiy qurish-yasash
- Naturaga qarab tasvirlash, san'atshunoslik asoslari, badiiy qurish-yasash
- San'atshunoslik asoslari, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya
- San'atshunoslik asoslari, borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya

**# Tasviriy san'atni o'itishda tabaqalashtirishni qaysi turi qo'llaniladi?**

- + Darajali tabaqalashtirish
- Milliy tabaqalashtirish

- Regional tabaqalashtirish
- Jinsiy tabaqalashtirish

**# Adabiy asarlar asosida rasm ishlash tasviriy san'at mashg'ulotlarining qaysi turiga kiradi?**

- + Kompozitsiya
- Badiiy qurish-yasash
- San'tshunoslik asoslari
- Naturaga qarab tasvirlash

**# Darsda talabalar faoliyatini baholash yo'llari qaysi qatorda to'g'ri belgilangan?**

- + Kuzatish, suxbat, ijodiy ish, munozara
- Mustaqil ish, test, insho, og'zaki so'rov, mashq
- Tabiatga sayohat, diktant, insho, rasm chizdirish
- Viktorina, krossvord eshish, test, rasm chizish

**# Talabalarning tasviriy faoliyatlarida ko'pro qaysi psixologik sifatlar ishtirok etadilar?**

- + Tasavvur, xotira, tafakkur
- Tafakkur, xarakter, qobiliyat
- Tafakkur, nutq, idrok
- Tasavvur, iroda, bilish, sezish

**# O'qituvchining mustaqil o'zi ustida ishlash turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- + Kitob o'qish, o'qitish metodlari yuzasidan ijod qilish, tajribalarni o'rganish, tasviriy tarixini o'rganish, ijodiy ishlar
- Kitob ish, konsert va spektakllarga borish, ilg'or o'qituvchilar bilan muloxotda bo'lish
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish, boshqalar darslarini ko'zatish, darslarini yuqori saviyada o'tkazish
- Yangi tasvirlash texnologiyalarini o'rganish

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'.Nurtaev, B.Boymetov "Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'shirish" Toshkent 2007. "Iqtisod-moliya" B.26-54
2. N.E.Kiseleva. Praktikum osnov kopiynoy texniki Barnaul AltayGU. 2016 st.50-56
3. N.Abdullaev. «San'at tarixi». 2/1. T.: San'at, 2001. B.45
4. G'.Abdurahmonov. «Rangtasvir va kompozitsiya». T., 1995.B.24
5. S.Abdirasilov., N.Tolipov. «Rangtasvir». T., 2005.B.67

6. Stepanova Ye.M. Metodicheskie osnovy risunka. Yekatinburg URFU 2016 B.14
7. A.Stepanova, I.Sergeevoy .Uchimsya risovat akvarelyu. Moskva Izdatelstvo AST 2017 B.16
8. R.Sh.Halilov “Qalamtasvir”Toshkent. 2016. Navro‘z. B.9

### **5-AMALIY MASHG‘ULOT. Mavzu: Oliy ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlardan o‘quv jarayonlarini tashkil etishning mazmuni va shakliga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar**

**Ishning maqsadi:** Oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at fanlaridan amaliy mashg‘ulotlardan o‘quv jarayonlarini tashkil etishning mazmuni va shakliga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarda, talabalar amaliy mashg‘ulot jarayonida o‘zlarining badiiy ta’lim va malakalarini oshiradilar. Shuningdek talabalar mavjud voqealarni butun rang-barangligini va qo‘l bilan idrok etish orqali badiiy obrazni gavdalantirishga qaratilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar shakllantiradi. Jahon tasviriy san’at ustalarining merosini o‘rganish, ularning eng yaxshi yutuqlarini ijodiy o‘zlashtirilishi, amaliy tajribalarini boyitadi.

#### **Reja:**

- 1. Oliy ta’lim muassasalarida rangtasvir darslarida amaliy mashg‘ulotlardan o‘quv jarayonlarini tashkil etishning mazmuni va shakli.**
- 2. Tasviriy san’at darslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda natyurmortni tasvirlash jarayoni.**
- 3. Kuz ne‘matlari mavzuidagi natyurmortni tasvirlash.**

Tasviriy san’atning nazariyasini muntazam o‘rganish, ushbu ta’limni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning asosi hisoblanadi. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug‘ullanishi mumkin. Leonardo da Vinchi boshlovchi rassomlarga maslahat tariqasida shunday yozgan edi: ... “agar sen narsalar shakli haqidagi bilimlarga ega bo‘lmoqchi bo‘lsang, u holda qismlaridan boshla, agar sen uning birinchisini xotirang va amalda yetarli darajada yaxshi o‘zlashtirib olmagan bo‘lsang — keyingisiga o‘tma. Agar sen o‘zga yo‘l tutadigan bo‘lsang beqorga vaqtingni sarflaysan yoki ochig‘ini aytganda, ta’lim olish jarayonini juda cho‘zib yuborasan. Men senga eslatib qo‘ymoqchiman — eng avvalo qunt qilishni, keyin esa tezlashtirishni o‘rganib

ol”<sup>1</sup>.

Rus rassomi va pedagogi D.N.Kardovskiy aytib o‘tganidek: “tasviriy san’atni o‘rganayotganlar tasvirlashning ifodalash yo‘llari va usullariga bo‘ysunishga majburdirlar, ya’ni narsalarning shakli, rangi, yorug‘i, xarakteri, harakati, nisbatlarini ko‘rsata olishi kerak, bu narsalarning qonun-qoidalarini ham bilishi zarurdir”<sup>1</sup>.

Tasviriy san’atning tarixi rangtasvirni amaliy o‘rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to‘plangan bo‘lib, ularda ko‘plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Rus Badiiy Akademiyasida ham rangtasvirni amaliy tarzda o‘qitish juda kuchli bo‘lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga yetarli e‘tibor berilmagan.

Ta’lim olish jarayonida talabalar avvalo, rangtasvirning asosiy qonunlari-natyurmort, grizayl uslubida portret, psixologik portret, rakursdagi portret, portret qo‘llari bilan (erkak kishi), libossiz erkak qomatining rang va tus munosabatlari, ularni aniqlash usullarini egallashlari lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning asosiy kursi tarkibiga kiradi.

Talabalar mavjud voqealikni butun rang-barangligini va qo‘lami bilan idrok etish orqali badiiy obrazni gavdalantirishga qaratilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar shakllantiradi. Jahon tasviriy san’at ustalarining merosini o‘rganish, ularning eng yaxshi yutuqlarini ijodiy o‘zlashtirilishi, amaliy tajribalarini boyitadi.

Naturani badiiy ko‘rish va tahlil qila bilish ko‘nikmasi, hamda o‘z o‘quv topshirig‘ini natura bilan solishtirgan holda tasvirlash jarayonini olib bora bilish, shu bilan bir qatorda, uzoq va qisqa muddatli ranglavha ishlarini bajarish ko‘nikmasini egallashi, shuningdek, yaxlitlikdan mayda bo‘laklariga, undan yaxlitlik prinsipi asosida ish jarayonini yurita bilish, shu bilan bir qatorda yosh rassomda badiiy ijodiyotning muhim bir jihati bo‘lgan tasvirlanayotgan insonning psixologik holati, hissiyoti, kayfiyati va fikr doirasi, umuman olganda, qahramonning psixologik dunyosini ko‘rsata bilishi talab etiladi. Badiiy ta’lim metodikasida asta sekin har bir vazifani mukammal ochib berilishi - qanday boshlash, so‘ngra nima ishlarni bajarish va qanday tugallashni o‘rganishning ahamiyati beqiyos. Bunda aytilganlar o‘quv jarayonining barcha davrlarida, uning ilk qadamlarida ham va uning yakunida ham birday ahamiyat kasb etadi.

**2.Tasviriy san'at darslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda natyurmortni tasvirlash jarayoni.** Natyurmort – fransuzcha so‘z «nature morte» - jonsiz tabiat, ma'nosini anglatib, *tasviriy san'at* janri hisoblanadi. Insonning atrofini o‘rab turgan real maishiy muhitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi.

Natyurmortda «jonsiz buyumlar» masalan, uy-ro‘zg‘or buyumlari, turli atributlar, meva-sabzavotlar, gullar, qush va hayvonlarning tulumlari, qurol-aslahalar tasvirlanadi. Asosiy mavzuni to‘ldirish uchun ba‘zan natyurmortga odamlar, hayvonlar, qushlarni ham kiritish mumkin.

Natyurmortda tasvirloyotgan buyumlar o‘z egasining fe‘l atvorini, qiziqishini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik va statik holatlarini ko‘rsatishga qaratilgan.

O‘zbekiston tasviriy san’atida natyurmort unsurlari qadimgi davr san’atida masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida – vazadagi mevalar, miniatyura san’atida Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan siyohdon, qamchi kabi buyumlar uchraydi. Natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi 20-asrning 30-50 yillariga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo‘ldi: L.Nasriddinovning «Nonli natyurmort», Sh.Hasanovanning «Xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort»i fikrimiz dalilidir. M.Kurzin, V.Rojdestvenskiy, V.Ufimsev, N.Kashina, Z.Kovalevskaya, O.Tatevosyan, S.Abdullaev, V.Fadeev, Yu.Elizarov va boshqalar turli mavzularda natyurmort kompozitsiyalarini yaratdilar. 60-80 yillarda L.Salimjonova, Yu.Taldikin, R.Choriev, V.Burmakin, Ye.Melnikovlar ijodida natyurmort janri keng o‘rin tutadi. Rassomlar R.Ahmedov, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov, Ya.Salpinkidi, G‘.Abduraxmanov va boshqalar natyurmort janrida samarali ijod qilib, uning taraqqiyotini ta’minladilar.

Haqqoniy tasvirlash savodini dastlabki ta’lim bosqichlarida o‘quv natyurmortlarini bajarish orqali o‘zlashtirish mumkin. Darxaqiqat, savodli tasvirlash asoslarini o‘rganishda **natyurmort** qimmatli tasviriy ob’ekt bo‘lib hisoblanadi. Masalan, R.Axmellovning «Yoz ne’matlari» asari misol bo‘la oladi.



R. Axmedov. Yoz ne'matlari.



Sh. Kuzieva. Natyurmort.

Natyurmortni rangtasvirning kamerli musiqasi deb atashadi. Unda mahoratli bo'yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish, ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o'zlashtirish mumkin. Ya'ni, perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug'ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlarini tasvirlashdagi birlik va uyg'unlik hisoblanadi. O'zbekiston Badiiy Akademiyaning akademigi T. Ko'ziev, o'quv jarayonida natyurmortning muhim ekanligini ta'kidlab: «Natyurmort, — shunday zaminki, unda badiiy maktab mustahkam joylashgan bo'lishi kerak», — deydi.



N.Ten. Natyurmort.



Kuzgi natyurmort. Ukuv vazifa.

Natyurmortni xona ichida, ochiq havoda, soyada va quyoshda, tabiiy va sun'iy yorug'likda tasvirlash lozim. Bu esa, o'z navbatida, o'quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.

Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddaroq, so'ngra esa, narsa va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig'ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo'yilmasining tashkiliy qismini (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish) naturaga nisbatan ko'rish nuqtasini aniqlash va qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash. O'quv natyurmort qo'yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak.

### **3.Kuz ne'matlari mavzuidagi natyurmortni tasvirlash.**

Qarshimizda turli buyum va narsalardan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi: Havorang ko'za, zarg'aldoq anor, likopchada qovun bo'lagi va stoldagi och havorang hamda jigarrang matolar. Oq devor och sariq mato bilan fon vazifasini o'taydi.

Ko'za va anor rang jihatdan boshqa narsalarga nisbatan ancha yorqinroq. Boshqa narsa va buyumlar rangi ancha murakkab. Qo'yilmani joylashtirgach chiroyli qarash nuqtasini tanlaymiz. Qo'yilmaga yon tomondan tushayotgan yorug'lik maqsadga muvofiqdir.

Dastlab al-lya prima texnikasida natyurmort eskizi 1 seansda bajariladi. Bu bosqichda asosan qo'yilmadagi katta munosabatlar — soyalar va yarimtuslar aniqlanadi.

Bu tayyorlov ishda ijodkorning g'oyasini ko'rish mumkin. Qog'oz yuzasida predmetlar aniq joylashgan, birinchi, ikkinchi va uchinchi ko'rinishdagi buyumlar to'g'ri topilgan. Etyudni tahlil etadigan bo'lsak, ranglar farqidagi issiq va sovuq, yorqin va xira narsalar aniq ko'rsatilgan. Zarg'aldoq rangdagi anor esa o'ziga issiq va kamto'yingan tuslarni bo'ysundiradi.

Ko'zada soya, yarimsoya va yorug'lik belgilanib, yorqin tUSDagi matoning oldingi ko'rinishda va devordagi farqi aniqlangan. Oldingi ko'rinishdagi qovun bo'lagi xuddi hozirgina kesib qo'ygandek juda yaqqol tasvirlangan.

Endi esa qo'yilmani qog'oz yuzasida tasvirlashni belgilaymiz. Qog'oz yuzasida tasvirlashdan avval, kichik o'lchamdagi qog'ozda eskiz variantini chizib, so'ngra katta o'lchamdagi qog'ozda yordamchi chiziqlar orqali natyurmortni tasvirlaymiz. Bu bizning birinchi bosqich ishimiz bo'ladi. Endi bo'yoqlarda ishni boshlaymiz.





Natyurmortning boskichli bajarilishi.

Nimadan boshlagan ma'qul? Yorqin rangga ega bo'lgan buyumlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Qo'yilmamizda ko'za va anor ko'zga yaqin narsalardir. Devor va sariq matoni juda bo'rttirib ishlansa, yaxlitlik nisbatlari buzilib, natyurmortning rang munosabatlari o'zgarib ketadi. Ko'za va anorni to'liq o'z holatidagi rangida olish mumkin.

Havo rang rangdagi ko'za, turli tusda ko'rinadi: yorug'likda bir xil, yarimsoyada boshqa, soyada endi u havorang emas, balki siyohrang — havo rang, ayrim bo'laklarida yashil-jigarrangroq (shu'la ta'sirida) bo'lib ko'rinadi. Ranglar bilan ishlashda ularni qo'yilmadagi narsalar rangidan to'qroq berish kerak, chunki u qurigach, biroz ocharadi. Havo rang ko'zaning ranglari yorug'lik shu'lalar ta'sirida tovlanib, turli tusda ko'rinadi. Qo'yilmadagi anorda tushayotgan yorug'lik ta'sirida sovuqroq pushti rang, yarimsoya esa zarg'aldoq, soya qismida kuchli qizg'ish tus hukmronlik qiladi.

Kichik lagandagi qovun bo'lagini bo'yar ekanmiz uni devor va devordagi sariq mato bilan taqqoslab ishlash to'g'ri bo'ladi.

Shu narsa yoddan chiqmasinki, har daqiqa qo'yilmani o'zingiz tasvir-layotgan ish bilan taqqoslab, ishlashni davom ettiravering. Ma'lum vaqt o'tgach, o'z ishingizni qo'yilma yoniga qo'yib, ularni solishtiring va kamchiligini topishga harakat qiling. Taqqoslashda avval kichik bo'laklar rangini, so'ngra ishga yaxlit qarab, uning umumiy tus munosabatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Eng asosiysi ish so'nggida barcha buyum va narsalarni umumiy tusga bo'ysundirib yakunlash hisoblanadi.

### Nazorat test savollari.

1. **Natyurmortchi rassomlardan kimlarni bilasiz?**
2. **O'ylab kuzataylik-chi lagandagi qovun och tUSDami yoki devormi?**
3. **Rang jihatidan qaysi biri sovuqroq — devor, qovun yoki laganmi?**
4. **Qovun bo'lagining po'stimi yoki qovun o'zi rangliroqmi?**

## 5. Qanday farqlar mavjud?

№1

<b>Yashil rang qaysi rang turkumiga kiradi?</b>
1. Xromatik ranglar turkumi
2. Spektr ranglar turkumiga
3. Axromatik ranglar turkumi
4. Sovuq ranglar turkumi

№2

<b>Spektr ranglari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?</b>
1. Qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafcha rang
2. Sariq, qizil, qora, qo'ng'ir ko'k, yashil va zarg'aldoq
3. Kul rang, jigar rang, havo rang, sabzi rang, qirmizi, oq va qora
4. Zangori, qirmizi sarg'ish, yashil, binafsha, modda va zarg'aldoq

№3

<b>Ranglar kontrasti nima?</b>
1. Rangning qarama-qarshiligi
2. Ranglar to'yinganligi
3. Ranglar doirasi
4. Ranglar uyg'unligi

№4

<b>Stilizatsiya nima?</b>
1. O'simlik, hayvon va boshqalarning tasviri, rangi shakli va tuzilishini badiiy usulda umumlashtirish.
2. To'qish, joylashtirish, solishtirish.
3. Simmetrik qonun-qoidalarning muozanatini buzilishi.
4. Geometrik naqshlarni takrorlanishi.

№5

<b>A.Savrasovning yirik asari qaysi?</b>
1. Qarg'alar uchib keldi
2. Bug'doyzorda
3. Turnalar uchib keldi
4. Yomg'irdan so'ng

**№6**

<b>Assimetriya nima?</b>
<b>1. Simmetrik qonun-qoidalarning muvozanatini buzilishi</b>
2. To'qish, joylashtirish, solishtirish
3. Naqsh kompozitsiyasining ma'lum bir qismi ma'lum bir masofada doimiy takrorlanib kelishi
4. Naqsh kompozitsiyasini qog'oz yoki buyum yuzasiga to'g'ri joylashtirish

**№7**

<b>Sariq rang qaysi ranglar to'plamiga kiradi?</b>
1. Issiq ranglar
2. Sovuq ranglar
3. Axromatik ranglar
4. Spektr ranglar

**№8**

<b>O'zbekiston Istixlol yillarida milliy an'analar asosida qurilgan binoni aniqlang?</b>
1. Turkiston saroyi.
2. A.Navoiy nomli opera va balet teatri
3. Ko'kaldosh madrasasi
4. Halqlar do'stligi saroyi.

**№9**

<b>Kubizm oqimida ijod qilgan rassomlar qaysi qatorda?</b>
1. P.Pikasso, Pol Sezann
2. E.Mone, K.Mone
3. S.Dali, Ya.Salpinkidi
4. P.Rubens, R.Axmedov

**№10**

<b>Triptix nima?</b>
1. Bir mavzudagi uch bo'lakdan iborat san'at asari

2. Uch haykaltarosh tomonidan bajarilgan san'at asari
3. Uch rassom tomonidan yaratilgan san'at asari
4. Uch bo'lakdan iborat uch mavzudagi san'at asari

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

21. Hasanov R. Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi. O'quv qo'llanma.- Toshkent, 2003.
22. Kuziev T. Abdirasilov S. Nurtaev U. Sulaymanov A. Tasviriy san'at. 5-auditoriya, darslik.-Toshkent, 2020.
23. Axmedova N.R. Jivopis Sentralnoy Azii XX veka: traditsiy, samobytnost, dialog. Osobennosti formirovaniya i razvitiya. - T.,2004.
24. Stepanova Ye.M. Metodicheskie osnovy risunka. Yekatinburg URFU 2016 B.14
25. Paranyushkin R.V., Trofimov Ye.N. Risunok figury cheloveka «Lan» Sankt-Peterburg 2015 B.24
26. A.Stepanova, I.Sergeevoy .Uchimsya risovat akvarelyu. Moskva Izdatelstvo AST 2017 B.16
27. B.Edwards Otkroyte v sebe xudojnika. Rabochaya tetrad Minsk. «Popurri» 2014 B.23
28. Jennifer Lilya Fashion Illustration Art. Copyright © 2015.B.3 R.Sh.Halilov "Qalamtasvir" Toshkent. 2016. Navro'z B.9
29. R.Xudoyberganov Rangshunoslik asoslari Toshkent G.Gulom 2006. B.11
30. B.Tojiev, N.Isaxodjjeva. Rangtasvir va kompozisiya(Natyurmort) Toshkent 2014 TDPU B.34

### **6-AMALIY MASHG'ULOT. Mavzu: Talabalarning amaliy mashg'ulotlarda o'zlashtirishlarini tahlil qilish va baholash**

#### **Ishning maqsadi:**

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida talabalar mutaxassislik fanlaridan bajarilgan amaliy mashg'ulotlarini o'zlashtirishlarini tahlil qilinadi doyimi ravishda talaba o'zlashtiriyotgan bilimlarini baxolash orqali nazorat qilib boradilar.

#### **Reja:**

1. Amaliy mashg'ulotlardan beriladigan topshiriqlar.
2. Talabalar faoliyatini tahlil va nazorat qilish.
3. Amaliy mshg'ulotlarda talabalar faoliyatlarini baxolash mezonlari.

1. Amaliy mashg'ulotlardan beriladigan topshiriqlar. Talabalarning tasviriy san'atdan faoliyatlari o'qituvchining ularga beradigan topshiriqlari

yuzasidan dars va darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi. Bu topshiriqlarni auditoriya va uy ishlari shaklida ifodalasa ham bo‘ladi. Talabalarning auditoriyada bajaradigan ishlari mazkur darslikning “Oliy ta’limda tasviriy san’at mashg‘ulotlari mazmuni” qismida bayon etilgan. Auditoriyada talabalarga beriladigan topshiriqlar mazmuni, asosan yangi bilim va malakalar berish maqsadida amalga oshiriladi. Dars jarayonida topshiriqlarning quyidagi ikki shakli ko‘p qo‘llaniladi.

1. Auditoriyada bajariladigan topshiriqlar. 2. Uyda bajariladigan topshiriqlar.

Auditoriyada bajariladigan topshiriqlarning quyidagi turlari mavjud.

San’atshunoslik asoslari mashg‘ulotlarida:

-tasviriy, amaliy, me’morchilik san’atlarining nazariy asoslari, tarixi, san’atkorlarning hayoti va ijodi yuzasidan suhbatlar o‘tkazish;

-Talabalarning o‘zlari ishlagan rasmlari yuzasidan insholar yozdirish;

-san’atshunoslikka oid krossvord, chaynvord yechish, viktorina o‘yinlarini o‘ynash;

-o‘rganish maqsadida mahalliy san’at yodgorliklariga, ko‘rgazma va muzeylarga borish.

Kompozitsiya mashg‘ulotlarida.

- O‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan yoki erkin mavzularda mustaqil ravishda kompozitsiyalar ishlash;

-Avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmagan topshiriqni davom ettirish.

-Kompozitsiya mashg‘ulotlari bilan bog‘liq eskiz, ranglama va qoramalar ishlash.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg‘ulotlarida.

-Naturaga qarab rasm ishlash bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan auditoriyada o‘rnatilgan naturaning rasmini ishlash;

-Avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom ettirish.

Badiiy -qurish-yasash mashg‘ulotlarida:

-o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mavzuda tabiiy, badiiy va tashlandiq materiallardan badiiy qurish ishlarini bajarish;

-avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom ettirish;

-qurish-yasash ishlari uchun material to‘plash;

-qurish-yasash ishlari uchun tayyorgarlik bosqichini bajaruvchi rasm ishlash.

Borliqni idrok etish mashg‘ulotlarida:

-Yil fasllarida tabiatdagi o‘zgarishlarni, ulardagi go‘zallikni, turli fasllardagi kishilarning mehnat jarayonlarini kuzatish, tabiat manzaralarining go‘zalligi, qush va hayvonlarning hayotini ko‘rsatuvchi filmlarni tomosha qilish va o‘rganish;

-mavzu bilan bog'liq bo'lgan gullar, daraxtlar, qush, hayvonlar rasmlarini ishlash.

Uyda bajariladigan topshiriqlarning quyidagi turlari xarakterlidir:

San'atshunoslik asoslari darslarida.

-San'at asarlarining reproduksiyalari, otkritkalari, fotolari, rasmlarini to'plash.

-San'at va san'atkorlar haqida kitoblar, hikoyalar, maqolalar o'qish.

-San'at asarlari, san'atkorlar haqida insholar yozish.

-San'at va san'atkorlar haqida viktorina, chaynvord, krossvordlar yechish, to'qish, topishmoqlarni topish.

-San'atkorlar bilan suhbatlashish.

-Muzey, ko'rgazma va san'at yodgorliklariga borish.

-Mavzuga doir san'at va san'atkorlar haqida ota-onalar, tanish-bilishlar bilan suhbatlar qilish.

Kompozitsiya ishlash mashg'ulotlari bo'yicha.

-Auditoriyada ishlangan chala kompozitsiyani davom ettirish.

-Auditoriyada ishlangan mavzu bo'yicha yangi kompozitsiya ishlash.

-Ishlanadigan kompozitsiya mavzusi yuzasidan materiallar to'plash.

-Kompozitsiya mavzusi yuzasidan borliqni, hayotdagi voqea va hodisalarni kuzatish.

-Kompozitsiya mavzusiga aloqador qoralama va ranglamalar ishlash

-Erkin mavzuda kompozitsiya ishlash

-Kompozitsiya mavzusiga doir (sirk, televidenie, musobaqalar, bayramlar, o'yinlar, spektakllar, kinofilmlarda ko'rganlarni eslab kelish.

-Auditoriyada va uyda bajarilgan ishlarni ko'rgazmaga qo'yish uchun tayyorlash.

-Kelgusi darsda ishlanadigan kompozitsiya mavzusi yuzasidan tayyorgarlik ko'rish.

-Dars uchun o'quv qurollarini tayyorlab kelish.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlari bo'yicha.

-Naturaga qarab qoralama, ranglama natyurmort va boshqa rasmlar ishlash.

-Turli materiallar (sangina, sous, pastel, ugol, retush v.b.) bilan mashqlar bajarish.

-Auditoriyada ishlangan mavzu bo'yicha uyda naturaga qarab rasmlar ishlash, dars uchun o'quv qurollarini tayyorlash.

Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlari bo'yicha.

-Mavzuga doir tabiiy, badiiy, tashlandiq materiallarni to'plash.

-Auditoriyada boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom etdirish.

-Auditoriyada bajarilgan mavzuda yangicha kompozitsiya ishlash.

### Borliqni idrok etish mashg'ulotlari bo'yicha

-Yil fasllari davomida tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish.

-Yil fasllari haqida she'rlar yodlash.

-Bahor, kuz faslidagi mehnatkashlarning mehnat jarayonlarini kuzatish.

-Yil fasllari va mehnat jarayonlari haqida, ularning go'zalligi haqida insholar yozdirish.

**2.Talabalar faoliyatini tahlil va nazorat qilish.** Oliy ta'limda tasviriy san'at mashg'ulotlarining samaradorligi ko'p jihatdan talabalar faoliyatini nazorat qilish hisoblanadi va u davlat ta'lim standartlari asosida amalga oshiriladi. U o'z o'rnida birinchidan, o'qituvchi faoliyatiga baho berish, ikkinchidan talabalar tomonidan materiallarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, u talabalar ni fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning faoliyatlaridagi yutuq, kamchilik va nuqsonlarni aniqlashga yordam beradi. Oqibatda talabalar ni o'z tasviriy faoliyatlariga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi.

Pedagogika fanida har bir o'quvchining har qanday faoliyatini nazorat qilish, o'z vaqtida baholab turilishi lozimligi qayd qilingan. Ayniqsa, Talabalarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishi qo'llab-quvvatlanishi, past o'zlashtiruvchi talabalar ni kamchiliklarini ko'rsatish va ularni tushuntirish samaralidir. Lekin past o'zlashtiruvchi talabalar ga past baholar qo'yish va ularni kamsitish tavsiya etilmaydi. Ko'pchilik hollarda, masalaga bunday yondoshish talabalar ni tasviriy va ijodiy faoliyatga qiziqishlarini so'ndiradi. Ayrim hollarda ular tasviy faoliyatdan butunlay so'vib ketishlari mumkin.

Tasviriy san'atdan talabalar faoliyatini o'z vaqtida va muntazam nazorat qilib turish va baholash nihoyatda muhimdir. Chunki o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni talabalar ancha vaqt va kuch sarflab bajaradilar, ularni talablar darajasiga yetkazishga harakat qiladilar. Ularni o'qituvchilarga yoqishni, yuqori baholar olishni hohlaydilar, topshiriq yuzasidan ko'p bilimlarga ega ekanliklarini ko'rsatmoqchi va maqtanmoqchi bo'ladilar. Bu kuni ular orziqib kutadilar. O'qituvchi esa topshiriq berib uni nazorat qilmasa talabalar ning topshiriqlarni bajarishga bo'lgan ixloslari asta-sekin susayadi. Bora-bora ular topshiriqlarni butunlay bajarmay qo'yadilar. Shunday ekan, o'qituvchi faqat topshiriqni o'z vaqtida tekshirishi va uni auditoriya jurnalida qayd qilib turishi lozim. Topshiriqlarni nazorat qilishning bir qator shakllari mavjud. Ular joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazorat deb yuritiladi.

Joriy nazorat muntazam ravishda xox u nazariy, xox amaliy bo'lsin, har bir darsda amalga oshiriladi. Uni yangi materiallarni bayon etish jarayonida, shuningdek, dars oxirida o'tkaziladi. Yangi materialni bayon etish jarayonida talabalar ni darsdagi faolligi va topshiriqni bajarishdagi sa'i-harakati uchun baholar qo'yiladi. Nazoratning ikkinchi turida o'quvchining topshiriqni qanday darajada bajarganligi tekshiriladi va baholanadi. Bunda talabalar ning darsdagi faolligi ham hisobga olinishi mumkin.

Amaliy ishlarni baholash bevosita talabalar tomonidan bajarilgan tasviriy ishlar (rasm, haykal, qurish-yasash) asosida nazariy bilimlarni baholash esa savol-javob, suhbat tarzida amalga oshiriladi.

Joriy nazorat darsning boshlang'ich qismida, o'tgan darsda unga berilgan topshiriqlarni tekshirish maqsadida ham o'tkaziladi.

Talabalar ning o'zlashtirishini nazorat qilish va ob'ektiv baholash uchun joriy nazoratni tez-tez o'tkazib turishi lozim. Amaliy ishlarni har bir darsda har bir talaba faoliyatini nazorat qilish va baholash imkoni bor. Ularni ma'lum qismini darsning boshlang'ich qismida, bir qismini dars davomida, qolgan qismini, talabalar ishlarini yig'ib olib o'qituvchi darsdan so'ng tekshirsa bo'ladi.

Talabalar ning darsdagi faolligini taqdirlash, qiziqishini oshirish maqsadida ular tomonidan bajarilgan ishlarnigina emas, topshiriqlarni bajarishga bo'lgan munosabatlari, harakati uchun ham baholar qo'yish mumkin. Shuningdek, har qanday baho qo'yganda butun auditoriyani nima uchun shunday baho qo'yilganligidan xabardor etish lozimki, talabalar baho mezonlarini ongli ravishda tushunib yetsinlar. Talabalar ning topshiriqlarni bajarishga bo'lgan munosabatlariga qo'yilgan baholar faqat ijobiy emas, salbiy bo'lishi ham mumkin. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, pasaytirilgan baholar asoslagan holda va talabalar ni tushkunlikka tushirib yuboradigan bo'lmasligi lozim. Bir topshiriqni baholashda talabaning avvalgi darslardagi o'zlashtirishlarini ham hisobga olish lozim. Muntazam yaxshi o'zlashtirib kelgan talabani avvalgi muvaffaqiyatlari va harakatlarishi hisobga olib, bu galgi qoniqarsiz ishiga yomon baho qo'ymasa ham bo'ladi.

Oraliq nazorat dasturdagi u yoki bu bo'limning tugashi va chorak davomida bajarilgan ishlarning yakunini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Oraliq nazorat savol-javob, suhbat, test, insho, amaliy tasviriy ishlarni tahlil etish kabi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Oraliq nazoratda faqat chorak davomida qo'yilgan baholarni umumlashtirish bilan chegaralanib qolmasdan, talabalarga qayta tekshiruv topshiriqlari ham beriladi. Bu topshiriqlar talabalar tomonidan mustaqil ravishda bajariladi va ular tasviriy, shuningdek yozma insho shaklida bo'ladi. Talabalarni qayta tekshiruv topshiriqlari olingan baho natijalari umumlashtirilib yagona oraliq nazorat baholari qo'yiladi. Yagona oraliq nazorat baholarini qo'yishda o'qituvchi talabalar ni tasviriy san'atdan darsdan tashqari ishlarini bajarishdagi xarakatlari, faolligi va yutuqlarini hisobga olishi lozim va u talabalar ni bu sohadagi yangi ishlarga ilhomlantiradi, baholarni ob'ektivligini ta'minlaydi.

Yakuniy nazorat o'quv yili davomida Talabalarning tasviriy faoliyatlari natijalarini aniqlash va umumlashtirish maqsadida o'tkaziladi. Yakuniy nazoratning bu turida baholar talabalarni qayta tekshiruv natijalari, ularning auditoriyadan va oliy ta'limdan tashqari olib borgan ishlari, ularning bu fanga qiziqishlari, harakatlari asosida qo'yiladi.

Ba'zan shunday bo'ladiki, talabaning o'zlashtirishi yaxshilanib boradi yoki aksincha yomonlashib boradi. Bunday holda o'quvchining so'nggi baholari, qayta tekshiruvdan olgan baholari hal qiluvchi rol o'ynaydi.



Ayrim hollarda tasviriy san'atdan baholarni biroz ko'tarib qo'yish hollari uchrab turadi. Buni inkor etish mumkin emas. Lekin, u asoslangan holda bo'lishi lozim. Bunga quyidagi hollarda rioya qilish muhim:

1. Talabaning shu fanga qiziqishi katta, harakati kuchli.
2. Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradi.
3. Auditoriyadan tashqari ishlarda faol ishtirok etadi.
4. Tasviriy san'at to'garagiga qatnashadi.
5. Darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ishlaydi (kitob o'qiydi, rasm ishlaydi, ko'rgazma va muzeylarga boradi, rassomlar bilan aloqalari bor.)

### **3. Amaliy mshg'ulotlarda talabalar faoliyatlarini baxolash mezonlari.**

Amaliy mshg'ulotlarda talabalar faoliyatlarini baholash maqsadida nazoratning quyidagi turlari qo'llaniladi:

1. Og'zaki so'rov.
2. Mashq.
3. Tasviriy-ijodiy mustaqil ish.
4. Yozma (matnli) mustaqil ish.
5. Test.
6. Uy vazifasi.

1. Og'zaki so'rov. Nazoratning bu turida Talabalarning tasviriy amaliy, me'morchilik san'atlaridan nazariy bilimlari (kompozitsiya, yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva), maxsus atamalar, rassom va xaykaltaroshlarning ishlatadigan asosiy ish qurollari va materiallari, tasviriy san'atning tur va janrlari, mashhur rassomlar va ularning asarlari haqidagi tushunchalari hajmi aniqlanadi. Og'zaki so'rov frontal va individual tarzda amalga oshiriladi hamda u talabalar ni tez-tez nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, og'zaki so'rov talabalar ni tasavvuri, tafakkuri, xotirasi va nutqini rivojlantirishga ham yordam beradi. Nazoratning bu turida hikoya qilish, tavsif berish, sharhlash va boshqa usullardan foydalanish samaralidir.

2. Mashqlar. Nazoratning bu turida Talabalarning qalam, mo'yqalam, stek va boshqa ish qurollari, badiiy materiallar bilan ishlash malakalari va ko'nikmalarining darajasi aniqlanadi. Bu ish ko'proq naturaga qarab rasm ishlash va kompozitsiya mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'ladi.

3. Tasviriy-ijodiy mustaqil ishlar. Nazoratning bu turida talabalar ni badiiy tafakkuri va qobiliyatlari, rivojlanish darajalari aniqlanadi. Bu ish ko'proq rangtasvir, dekorativ ishlar va haykaltaroshlikdan kompozitsiyalarni bajarishda qo'llaniladi.

4. Yozma (matnli) mustaqil ish. Mustaqil ishning bu turida talabalar tomonidan olingan bilimlarni qanchalik o'zlashtirilganligi aniqlanadi. U bevosita tasviriy san'atning san'atshunoslik asoslari kursi bilan bog'liq bo'lib, unda talabalar chaynvord, krossvordlar yechadilar, viktorina savollariga javob qaytaradilar, tasviriy san'atdan insho va referatlar yozadilar.

5. Test sinovlari. Nazoratning bu turida talabalar tomonidan tasviriy san'atning nazariy asoslari, maxsus atamalar, rassom, haykaltaroshlar va ularning asarlari, ish qurollari va ishlatadigan materiallari, talabalar tomonidan rang nomlarini o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Testlardan foydalanish tasviriy san'at darslarining barcha turlari (naturadan rasm ishlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari) bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

6. Uy vazifasi. Uy vazifalari auditoriyada o‘tilgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy ishlarni bajarish, naturaga qarab ranglama va qoramalar ishlash, mashqlarni bajarish, auditoriyada tugallanmay qolgan ishni tugatish, tevarak-atrofdagi ko‘rinish va hodisalarni kuzatish, auditoriya ishiga doir adabiyotlar o‘qish, muzey va ko‘rgazmalarga, san‘at yodgorliklariga borish, kelgusi dars uchun materiallar to‘plash yoki tayyorgarlik ko‘rish, auditoriyada o‘tilgan mavzular bo‘yicha insho, referatlar yozish, krossvord, chaynvordlar yechish, viktorina savollariga javob qaytarish, san‘atkorlar, ota-onalar bilan topshirilgan mavzuda suhbatlar qilish, san‘at asarlarining reproduksiyalari va foto nusxalarini, illyustratsiya va rasmlarni to‘plash yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladi.

Uy vazifalari tasviriy san‘at mashg‘ulotlarining barcha turlariga taaluqli bo‘lib, u nafaqat yangi materiallarni o‘zlashtirish, balki o‘tilganlarni mustahkamlash, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, malakalar va ijodiy qobiliyatlarni o‘stirishga xizmat qiladi.

Talabalarining tasviriy ishlari va bilimlarini baholashda bir qator mezonlar qo‘llaniladi. Tasviriy faoliyatning har bir turida baho mezonlari ishlatiladi. Xususan:

1. Borliqni idrok etish. 2. Badiiy qurish–yasash ishlari. 3. Naturadan ishlangan rasmlar. 4. Naturaga qarab ishlangan haykallar. 5. Rangtasvir kompozitsiyalari. 6. Dekorativ kompozitsiyalar. 7. Xaykaltaroshlik kompozitsiyalari. 8. San‘atshunoslik asoslari.

#### Borliqni idrok etish

- borliqni mustaqil kuzata olishi;
- tevarak-atrofnii bilishga qiziqishi;
- narsalarning tuzilishi haqidagi tasavvuri;
- narsalarning rangi haqidagi tasavvuri;
- narsalarning shakli haqidagi tasavvuri;
- narsalarni o‘lchovlari haqidagi tasavvuri;
- tabiat va borliqdagi narsalarni go‘zalligini sezishi;
- tevarak-atrofdagi mavjud narsalarning turlari haqidagi tasavvuri;
- narsalarning xarakteri (yuradi, uchadi, o‘rmaydi v.b.) ni bilishi;

#### Badiiy qurish-yasash

- badiiy qurish-yasashga oid ish qurollarini bilishi;
- badiiy qurish-yasashga doir ish qurollari bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi;
- badiiy qurish-yasashga doir ish qurollari bilan ishlashni o‘zlashtirilganligi;
- tasvirni qog‘oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- tasvirni mustaqil bajarilganligi;
- ishga ijodiy yondoshuvning mavjudligi;
- ishni bajarishdagi estetik didi;
- ishning kompozitsiyasi;
- ishda tasvirlangan narsalarning shakllari;

- kompozitsiya uchun materiallarni (badiiy,tabiiy, tashlandiq materiallar v.b.) to'g'ri tanlanganligi;
- kompozitsiyadagi narsalar o'lchovi va o'lchov nisbatlari;
- ishning toza va tartibli bajarilishi.

#### Naturaga qarab ishlangan haykallar

##### Naturaga qarab ishlangan rasmlar

Rasmni qog'oz yuzasida joylashuvi (komponovka);

- ishni mustaqil bajarilish darajasi;
- naturaning o'lchovi, o'lchov nisbatlari;
- natura va natura bo'laklarining shakllari;
- qalam bilan ishlash malakalari;
- mo'yqalam bilan ishlash malakalari;
- narsalardagi yorug'soyalarni tasvirlanishi;
- narsalar rangini tasvirlanishi;
- narsalarning perspektiv tasviri;
- ishning toza va tartibli bajarilishi.

##### Naturaga qarab ishlangan rasmlar

- ishni mustaqil bajarilganligi;
- haykal o'lchovlari va o'lchov nisbatlari;
- haykal va uning bo'laklarining shakllari;
- haykaltaroshlik asboblari va qo'l bilan ishlash malakalari;
- haykaldagi hajmning tasvirlanishi;
- ishning toza va tartibli bajarilishi;

##### Rangtasvir kompozitsiyasi

- rasmni qog'oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- ishni mustaqil bajarilishi;
- rasm mazmunini uning mavzusiga mosligi;
- bajarilgan ishdagi badiiy-estetik did;
- rasm kompozitsiyasi;
- ishga ijodiy yondoshuv;
- narsa va hodisalarning o'lchov va o'lchov nisbatlari;
- narsa va hodisalarning shakli;
- rasmda ranglar yechimi;
- rasmda narsalar tuzilishining yechimi;
- qalam va mo'yqalam bilan ishlash malakalari;
- ishda perspektiva qonunlariga rioya qilinganligi;
- rasmni toza va tartibli bo'lishi.

##### Dekorativ kompozitsiya.

###### 1.Namunadan ko'chirilgan dekorativ ishlar.

- tasvirni qog'oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- ishini mustaqil bajarilish darajasi;
- bezak elementlarining shakli;
- bezak elementlarining o'lchami va o'lchov nisbatlari;

- bezak elementlarining stilizatsiyasi;
- rang yechimi;
- bezak elementlarining shakli;
- qalam bilan ishlash malakalari;
- mo'yqalam bilan ishlash malakalari;
- ishning toza va tartibli bajarilishi.

## 2. Ijodiy ishlangan dekorativ kompozitsiya.

- ishni mustaqil bajarilish darajasi;
- rasmni qog'oz yuzasida joylashuvi (komponovka);
- bezak elementlarining o'lchov va o'lchov nisbatlari;
- bezak elementlarining stilizatsiyasi;
- bezak elementlarining shakli;
- ranglar yechimi;
- o'quvchini ishga ijodiy yondoshganligi;
- ishni bajarishdagi badiiy-estetik did;
- ish kompozitsiyasi;
- dekorativ ishlarning asosiy vositalaridan savodli foydalanish (ritm, simmetriya);
- qalam bilan ishlash malakalari;
- mo'yqalam bilan ishlash malakalari;
- ishning toza va tartibli bajarilganligi.

## haykaltaroshlik kompozitsiyasi

- ishning mustaqil bajarilishi;
- haykalni mavzuga mosligi;
- haykal kompozitsiyasi;
- ishni bajarishdagi badiiy-estetik did;
- haykal bo'laklari va ularning o'lchovlari hamda o'lchov nisbatlari;
- ishdagi narsalarning hajmi;
- haykaltaroshlik asboblari bilan ishlash malakalari;
- ishning toza va tartibli bo'lishi.

## San'at asarlarining tahlili.

Talabalar bilishlari lozim:

- asarning nomi;
- asarning muallifi;
- asarning yaratilgan yili;
- asarning mazmuni;
- asarda ilgari surilgan g'oya;
- asar kompozitsiyasi;
- asarning tasviriy savodxonlik darajasi (rang, perspektiva, yorug'soya qonunlari, anatomiya, o'lchov va o'lchov nisbatlari v.b.)
- maxsus atamalar;
- asar saqlanayotgan joy;
- asarni yaratishda rassomning qo'llagan tasviriy texnikasi;
- asarni yaratishda rassom qanday tasviriy materiallardan foydalanganligi.

## Nazorat test savollari.

№1

<b>1. Kul rang qaysi ranglarga kiradi?</b>
<b>1. Axromatik ranglar</b>
2. Xromatik ranglar
3. Sovuq ranglar
4. A va G.

№ 2

<b>Naturaga qarab tasvirlashni qanday tushunasiz?</b>
1. Qo'yilmani o'ziga qarab tasvirlash
2. Miniatura ishlash
3. Qo'yilmani xayoldan ishlash
4. Kompozitsiya tuzish

№ 3

<b>Sovuq ranglar qaysi qatorda?</b>
1. Yashil, havorang, zangori
2. Qora, jigarrang, kulrang
3. Qizil, sariq, oq
4. Yashil, qizil, zarg'aldoq

№ 4

<b>Illyuzionizm oqimi qanday oqim?</b>
1. Voqelikni asl mazmunini tasvirlashdan uzoqlashish
2. Borliqni xayoldan ishlash
3. Illyustratsiya ishlash
4. Voqelikni asl mazmunini tasvirlash

№ 5

<b>Me'morchilikka oid iboralarni toping?</b>
1. Arka, peshtoq, ayvon, minora.
2. Inter'er, barelef, ornament.
3. Sgraffito, grafika, qalam tasvir.
<b>4. Ester'er, dekoratsiya, faye.</b>

№ 6

<b>Urol Tansiqboevning mashhur asari qaysi?</b>
1. Mening qo'shig'im

2. Issiqko'lda oqshom
3. Uzbekistonda mart
4. Qayroqqum GESi

**№7**

<b>Zarg'aldoq rang qaysi bo'yoqlar aralashmasidan hosil bo'ladi?</b>
1. Sariq va qizil
2. Sariq va zangori
3. Yashil va jigarrang
4. Qizil va qora

**№8**

<b>Kitob grafikasida ijod qilgan rassomlar qaysi qatorda?</b>
1. V.Kaydalov, T. Muxamedov
2. A.Mo'minov, G.Abduraxmanov
3. M.Nabiev, Ya.Salpinkidi
4. A.Mo'minov, Ya.Salpinkidi

**№9**

<b>Perspektiva iborasining ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri yoritilgan?</b>
1. Borliqdagi narsalarni inson ko'zidan uzoqlashgan sari kichrayishi
2. Tabiatdagi buyumlarni inson qo'zidan uzoqlashgan sari o'zgarmasligi
3. Tabiatdagi buyumlarning har qanday sharoitda o'zgarmasligi
4. Chizmachilik fani

**№10**

<b>Etyud iborasining ta'rifi qaysi qatorda?</b>
1. Qisqa muddatda bo'yoqlarda bajarilgan ish
2. Tushda bajarilgan ish
3. Uzoq muddatda qalamda bajarilgan ish
4. Pastelda bajarilgan ish

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

31.Hasanov R. Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi. O'quv qo'llanma.- Toshkent, 2003.

32.Kuziev T. Abdirasilov S. Nurtaev U. Sulaymanov A. Tasviriy san'at. 5-auditoriya, darslik.-Toshkent, 2020.

33. Axmedova N.R. Jivopis Sentralnoy Azii XX veka: traditsiy, samobytnost, dialog. Osobnosti formirovaniya i razvitiya. - T.,2004.

34. Stepanova Ye.M. Metodicheskie osnovy risunka. Yekatinburg URFU 2016 B.14
35. Paranyushkin R.V., Trofimov Ye.N. Risunok figury cheloveka «Lan» Sankt-Peterburg 2015 B.24
36. A.Stepanova, I.Sergeevoy .Uchimsya risovat akvarelyu. Moskva Izdatelstvo AST 2017 B.16
37. B.Edwards Otkroyte v sebe xudojnika. Rabochaya tetrad Minsk. «Popurri» 2014 B.23
38. Jennifer Lilya Fashion Illustration Art. Copyright © 2015.B.3 R.Sh.Halilov “Qalamtasvir”Toshkent. 2016. Navro‘z B.9
39. R.Xudoyberganov Rangshunoslik asoslari Toshkent G.Gulom 2006. B.11
40. B.Tojiev, N.Isaxodjueva. Rangtasvir va kompozisiya(Natyurmort) Toshkent 2014 TDPU B.34

**7-AMALIY MASHG‘ULOT. Mavzu: Oliy ta’limda maxsus va mutaxassislik fanlarni o‘qitishning pedagogik jarayonini loyihalash. Amaliy mashg‘ulotlarni “Ustoz-shogird”tizimi asosida loyihalashtirish.**

**Ishning maqsadi:** Oliy ta’limda maxsus va mutaxassislik fanlarni o‘qitish jarayonida amaliy mashg‘ulotlarni “Ustoz-shogird”tizimi asosida tashkil etish. Yoshlarni halol mehnat qilishga, ularni turli kasb-hunar sirlarini mukammal egallashga o‘rgatish shuningdek talabalarni “Ustoz-shogird”tizimi asosida tarbiyalash.

**Reja:**

**1.Oliy ta’limda maxsus va mutaxassislik fanlarni o‘qitishning pedagogik jarayonini loyihalash.**

**2. Ustoz-shogird odobi an’analari mezonlari**

**1.Oliy ta’limda maxsus va mutaxassislik fanlarni o‘qitishning pedagogik jarayonini loyihalash.** "Ustoz-shogird pedagogikasi" an’alaridan foydalanishga oid zamonaviy qarashlar deyilganda, ajdodlar tomonidan qoldirilgan ma’naviy merosimiz bo‘lmish "Ustoz-shogird pedagogikasi" an’alarining mazmuni va mohiyati nazarda tutiladi.

Ma’lumki, Sharqda azal-azaldan kasb-hunar ulug‘langan, ustoz-shogird odobi va ustozning shogirdga bo‘lgan mehr-oqibati juda yuqori qo‘yilgan. «Ustoz-shogird pedagogikasi» an’alaridan foydalanishni ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o‘rganishdan avval, unga oid ayrim tushuncha va terminlarni aniqlashtirib olish lozim. Xususan, «ustoz», «shogird», «odob», «hunar», «hunarmand» kabi terminlarning izohli lug‘ati 1-ilovada keltiriladi.

Buyuk allomalarimiz doimo kasbga ega bo'lishni, ilm olishni, savodli bo'lish kabilarni da'vat etib kelganlar. Xususan, Hadisu Sharifda quyidagilar ta'kidlangan.

- kasbning eng yaxshisi kishining o'z qo'li bilan bajarilgan ishi va halol mehnatidir;
- ilm o'rganish har bir musulmon uchun farzdir;
- bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshidir;
- qaysi bir olimning ilmidan so'ralganda qizg'anib gapirib bermasa, qiyomatda og'ziga o'tdan tizgin solib qo'yiladi;
- avvalo olim bo'! Ilmu ulamolarni sevuvchi bo'!;
- sadaqaning afzali musulmon kishining ilm o'rganib, so'ng boshqa musulmon birodarlariga ham o'rgatishidir.

Payg'ambar Dovud alayhissalom - temirchilik, Arastudan keyingi ikkinchi muallim deya shuhrat topgan qomusiy olim Forobiy - bog'bonchilik, shoir Sakkokiy - pichoqchilik, shoir Zavqiy esa mahsido'zlik bilan tirikchilik o'tkazishgan. Hoja Bahovuddin Naqshband ham hunarmandchilik bilan shug'ullanib, u Turkistonda birinchilardan bo'lib, odamlarni hunar o'rganishga va hunar bilan shug'ullanishga chorlaganlar. U qalin ipakli mato-kimxob to'qish bilan tirikchilik qilar, shogirdlariga ham hunar o'rgatar edi. Alisher Navoiy «Nasoim ul-muhabbat» da tasavvuf pirlari va shayxlari haqida so'z yuritar ekan, Hoja Abdulla Ansoriy - etikdo'z, Shayx Abubakr Habboz - novvoy, Shayx Omuliy - qassob, Shayx Ashariy - g'isht teruvchi, Shayx Bannon - hammol, Shayx Abuxasan - duradgor bo'lganligini aytadi va qator misollar keltiradi.

Ma'lumki, milliy qadriyatlarimizda ustoz-shogird odobiga alohida bir insoniy amal, san'at sifatida qaralgan, bu odoblarda nazarda tutilishi lozim bo'lgan fazilatlar bir qarashda mayda amallarga o'xshasa-da, aslida yaxshi hunar sohibi bo'lishlikning insoniy shartlaridandir. Bu o'gitlar hozirgi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan juda ibratli va dolzarbdir.

Sharqning buyuk allomalari, olimlari, shoirlari va fozillari jamiyat hamda ilm taraqqiyotiga qanchalik hissa qo'shgan bo'lsalar, ularning har biri hunar va ilm egallashda kattaning, ya'ni ustozning o'rni, shogirdlik burchi masalalarini ham bee'tibor qoldirmaganlar. Fors-tojik adabiyotining buyuk namoyondasi Rudakiy (884-954) kishiga birinchi muallim ustoz ekanligini, «Hayot saboqlarin etolmasa yod, uni o'rgatolmas hech qanday ustod» desa, Ibn Sino (980-1037) ning yoshlarni hunarli bo'lishga chorlagan quyidagi durdona nasihati ibratlidir: «Oltin olmaginu o'rgangin hunar, hunarning oldida xasdir oltin-zar». Sharq xalqlarida ilm o'rgatuvchilar va ustozlarga nisbatan izzat-hurmatda bo'lish »farzandlar ongiga singdirilgan. Xususan, nozikta'b adib, nuqtadon olim, XV asr ma'rifatparvarlari darg'alaridan biri bo'lgan Husayn Voiz Koshifiy: "Ustoz va muallimlar hurmatini



o'rniga qo'ygan bu dunyoda ham, oxiratda ham saodat topar",-deb yozgan edi. Uning fikricha, to'rt narsa saodat dalilidir: to'g'ri so'z, tavoze', halol kasbu hunardagi mehnat, sir saqlash. Ya'ni, biror kasbga o'rganish yoki hunarni o'rgatish mashaqqatli mehnat ekanligi olim qarashlarida markaziy o'rinda turgan.

**Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505).** (Xuroson) «Futuvatnomai sultoniyyohud javonmardlik tariqati» asarida ustoz-shogird odobi haqida to'xtalib shunday degan: «Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so'rasalar, samo va toatdir deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so'rasalar, nimaiki ustoz aytsa, uni jon qulog'i bilan eshitish, chin ko'ngli bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalga ado etishdir deb ayt».

Koshifiy ustozlik shartlariga ham to'xtalib: «Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmagay»-degan. Kimki ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, uning ishi va amali samara bermaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l ... Agar komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazxabli, o'z aybini ko'radigan dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi».

Mashhur faylasuf va mutafakkir, qomusiy ilmlar bilimdoni **Abu Nasr al-Forobiy (873-930)** ustoz-murabbiyga shunday talab qo'yadi: «Ustoz o'z shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki, ortiqcha zulm shogirdga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordiyu ustoz juda yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sohib ham qoladi. U ustozlarga bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida quyidagi «qattiq» yoki «yumshoq» usullardan foydalanishni maslahat beradi:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.
2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.

U o'qituvchining tarbiya usullarini hukumat (davlat) va shohlarning xalqni tarbiyalash va boshqarishdagi usullariga o'xshatadi, ularni qiyoslaydi. Har ikkalasida ham yumshoqlik va majburlov zarurligini uqtiradi.

Xususan, Abu Nasr al-Forobiyning o'z davri uchun katta xizmatlaridan biri shundaki, u kishilarni ilm-ma'rifatli bo'lishga, halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi. Insonni «Ojiz banda», «Hech narsaga qodir bo'lmagan mavjudod» kabi yerga uruvchi diniy aqidalarga zid o'laroq, mutafakkir "nazarida inson eng oliy kamolot bo'lib, «aql-idrok ziyosiga ega, o'zi uchun zarur bo'lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir».

Forobiy, inson o'z ijtimoiy vazifasini bajarishi uchun, birinchidan, kundalik hayotida atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi zarurligini, ikkinchidan, u mehnat va kasb-hunar ko'nikmalarini, axloqiy fazilatlarni hosil qilishi lozimligini ta'kidlab, shunday degan: «Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganyda edi podshohlar ham o'zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo'lib qolar edi. Kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lmas ekan, axloq-odob, rasm-rusum, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo'r qudrat talab qilinadi. Bu esa ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharlar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiyasi esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir».

**Buyuk alloma Ibn Sino (980-1037)** o'quvchiga bilim berish ustozlarning mas'uliyatli burchi ekanligini ta'kidlaydi. U ustozlarning qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, ularga shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;
- bolalarga berilayotgan bilimning qanday o'zlashtirib olinayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- bolaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata olish;
- bilimlarni balalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning balalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

**Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (Shayx Sa'diy) (1184-1292)** ta'lim-tarbiyada ustozlarning talabchanligi, bilim va tarbiya berishda qattiqqo'l bo'lishning tarafdori bo'ladi. U «Guliston» asarida yana ustoz-shogird odobiga oid quyidagi hikoyatni keltiradi: «Bir odam kurash san'atida zo'r mahorat qozondi, u 360 xiylani bilar va har kuni bir xiylani ishlatib ko'rar edi. Shogirdlaridan biriga 359 xiylani o'rgatdi. Ammo, bir xiylani o'rgatmadi: ustozining hurmatini bilmagan shogird, ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu so'z podshoga yoqmaydi. Ularni kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz oxirgi xiylasini ishlatib shogirdini yengadi. Ustoz hurmatini bilmagan shogird esa, xaloyiq va podshoning nafratiga uchraydi».

Shuningdek, Sa'diy Sheroziy o'z davrining dono murabbiy shoiri va ulug' ruhshunosi ham bo'lgan. Murabbiy-ruhshunos shoir bolalar tabiatini juda ham chuqur his qilgan holda, ularni yoshlikdan mehnat qilib, ilmu hunar o'rganishga undaydi.

Shoir ilmu hunarni hamma narsadan yuqori qo‘yar ekan, «Guliston» asarining «Tarbiya ta’siri» deb nomlangan yettinchi bobida quyidagi hikoyani keltiradi: «Bir hakim o‘gullarig‘a mundog‘ pand berur erdikim: «Ey jon farzandlarim, hunar o‘rganinglar, nedinki, mulk va molg‘a e’timod yo‘qsurur. Siym va zar xatar mahallidadur-yo o‘g‘ri barchasin birdin olur va yo hokim oz-oz olib yo‘q etar. Ammo, hunar chashmai ravon va davlati bepayondurkim, agar hunarmand odam davlatdin tushsa, hech g‘am va alami yo‘qdir. Nedinkim, hunar oning zotida ulug‘ va har yerdakim borsa, sohibi qadr bo‘lur majlisning yuqorisida o‘lturur va hunarsiz kishi gadoylik qilur va har joyg‘akim borsa, beqadr va bee’tibor bo‘lur»,- deydi.

Sa‘diy ilmu hunarga juda yuqori baho beradi. Shoir ilmu hunar o‘rganish yo‘lida har qancha mashaqqatdan qochmaslik lozimligini uqtiradi.

**Sohibqiron Amir Temur (1336-1405)** ham o‘z hukmronligi davrida ilm ahllari, ustoz, mudarrislarga hurmat bilan qaraydi. Kishilarga mansab berishda ham ularning ilmlarini hisobga oladi. Ko‘plab maktab, madrasa ochadi, ularga muallim va mudarrislar tayin etadi. Uzining ustozlarini juda qadrlaydi.

**Alisher Navoiy (1441-1501)** ijodida ham ustoz-shogird odobi masalalariga keng o‘rin beriladi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun mudarris, ustoz va murabbiylarning o‘zlari ham bilimli va tarbiyali bo‘lishi zarurligini uqtiradi. Nodon, mutaassib, johil ustozlarni tanqid qilib, ular ma’lumotli, o‘qitish yo‘llarini biladigan bo‘lishi zarur deydi. Masalan: «Mahbub ul-qulub» asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularning o‘ta qattiqqo‘l, johil va ta‘magirliklari haqida: «Maktab tutuvchi gunohsiz yosh bolalarga jafo qiluvchidir»,-deb yozadi. Shu bilan birga ustoz mehnatining og‘irligini holisona baholaydi: "Uning ishi odam tugul, hatto devning ham qo‘lidan kelmaydi. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilar edi, u esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi"-deydi. Lekin shunisi ham borki, bolalar orasida fahmi, idroki ozlari bo‘ladi. Ustoz bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda, bolalarda uning haqi ko‘p, agar shogird ulg‘aygach, podshohlik martabasiga erishsa ham, o‘z ustoziga qulluq qilsa arziydi.

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,  
Aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy ustozlarning hurmati qanchalik joyiga qo‘yilsa, ularga bo‘lgan talab ham shunchalik oshishi, ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil, dono, kamtar, ma’naviy pok bo‘lishlari zarur ekanligi haqida, pgunday deydi: «Mudarris kerakki g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko‘rgazmasa, yaramasliklardan qo‘rqsa va nopoklikdan qochsa».

Ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganishning afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to'g'risidagi o'gitlar hadis, pandnoma, rivoyat, hikoyat, doston, maqol va boshqa ko'rinishlardagi ma'naviy meros sifatida hozirgi davrgacha yetib kelgan.

Bunday yozma manbalarga 1U-U1 asrlarda yaratilgan «Avesto», XI asrda Kaykavus tomonidan yozilgan «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Baxt-saodatga erishuv» asari, Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Mineralogiya» asarlari, XI asrda Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» (Turkiy so'zlar (lug'ati) devoni) asari, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari, Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarlarida kasb-hunar o'rganishning afzalliklari va mehnat tarbiyasi haqida fikr yuritiladi. Dastlab odamzodda mehnat orqali ijod qilish qobiliyati ham tarkib topa boshlagan. Mehna' faoliyati sekin-asta murakkablashib borib, ijodkor insonning qaror topishida hamda kishilik jamiyatining taraqqiyotida juda muhim hisoblangan. Mehnat insonni ulug'laydi va ijodni vujudga keltiradi. Insonning mehnat jarayonini hosil qilgan dastlabki ko'nikma va malakalari ajdoddan-avlodga o'tib kelgan.

Oddiy mehnatkash xalq yaratgan va ajdoddan-avlodga o'tib kelayotgan mehnat va kasb-hunar tarbiyasiga oid qarashlar, g'oyalar, tajribalar, urf-odat va

an'analar xalqning o'zi yaratgan maqol, masal, rivoyat, doston kabi xalq og'zaki ijodi namunalarida o'z ifodasini topgan.

Mehnat va kasb-hunar to'g'risidagi xalq maqollari hamda Sharq mutafakkirlarining hikmatli so'zlari ta'lim muassasaslari o'quvchilari ongiga dars mashg'ulotlari, tarbiyaviy tadbirlari jarayonida singdirilib boriladi. Albatta, bunda mehnatning tarbiyaviy ta'siri va eng avvalo o'quvchilarda kasb-hunarga bo'lgan muhabbat tuyg'usi shakllanadi.

O'zbek xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasi va kasb-hunar egallash - bola kamolotining bosh omili sifatida talqin qilinadi. Shubhasiz, xalq maqollarida yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash bilan birga, kasb-hunar egallashga da'vat ham markaziy o'rinni egallaydi. Masalan: «Hunar-hunardan unar», «Hunar to'yg'azar, ot mindirib, to'n kiygazar», «Hunar-oqar buloq, ilm-yonar chyroq», «Hunarli yigit-mevali daraxt», «Hunari borning oltin bilagi bor», «Hunar-tuganmas xazina». Qadimda kulollar, yog'och va ganch o'ymakorlari, temirchi ustalar va boshqalar o'z shogirdlariga kasb egallash ishlarini unutmay, davom ettirishlarini vasiyat qilganlar. Ko'pni ko'rib, tajriba orttirgan ustalar o'z mehnat sir-asrorlari va malakalarini keyingi avlodga o'rgatganlar.

Xalq ijodidagi maqol va rivoyatlardan yoshlarni tarbiyalash vositasi sifatida keng foydalanish mumkin. Shu jihatdan qaralganda quyidagi rivoyat ibratlidir.

Dehqon o‘limi oldidan uchala o‘g‘lini o‘z oldiga chaqirib, har biriga alohida: «Uzumzordagi toklardan birining tagiga tilla ko‘mganman, lekin hozir qaysi birining tagiga ko‘mganimni eslolmayapman»- deydi. Aka-ukalar otasining nasihati bo‘yicha tillani rosa qidiradilar. Natijada uzumzordagi toklarning hammasi kovlanib tashlanadi. Ammo, tillani hech kim topa olmaydi. Qizig‘i shundaki, shu yili toklar odatdagidan ikki-uch barobar ko‘p hosil beradi. Uzumzordan tushgan daromad aka-ukalarni boyitib yuboradi. Shundan so‘nggina aka-ukalar otalarining qilgan pandu nasihatlarini eslab, uni hech qanday tilla ko‘mmaganligini, balki bilaturib, bolalarining faqatgina halol mehnat qilishlari va buning evaziga boyishlari uchun shunday deganligini tushunib yetganlar.

Ma‘lum bo‘ldiki, rivoyatlar mehnat va kasb-hunar o‘rganishda o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma‘naviy taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan pedagogik masala sifatida ilgari suriladi. Masalan: «Shogirdning intizomi», «Ustoz-otangdek ulug‘», «Kekkaygan shogird», «Hunar haqida xalq rivoyatlari», «Ustoz va nopok shogird» kabi mazmundagi rivoyatlardan yoshlar dunyoqarashining shakllanishi, mehnat va kasb-hunar egallashi hayotiy ehtiyoj ekanligi, odob-axloq qoidalaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishlari hamda halollik, nopoklik kabi tushunchalarni tushunib yetishlarida tarbiyaviy vosita sifatida foydalanish mumkin. Ularni dars mashg‘ulotlari jarayonida, tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish vaqtida, oilada, yoshlar davrasida, ya‘ni ular suhbatida keng qo‘llanilsa, ta‘lim-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq dostonlarida ham mehnatsevarlikka, kasb-hunarga o‘rgatishni bolalarga yoshlik chog‘laridanoq boshlash lozimligi ta‘kidlangan.

Masalan:«Yodgor» dostonida: «Eldan el ketsa mehnat, elga el qo‘shilsa davlat» deb, o‘lkani obod qilish uchun hamkorlikda mehnat qilinishi nazarda tutilgan. «Rustamxon» dostonida Tog‘ay obrazi orqali mehnatkash xalqqa xos insonparvarlik fazilatlarini va mehnat ahlining ma‘naviy qiyofasi, orzu-umidlari quyidagicha tasvirlanadi: «Tog‘ay har kimning xizmatini qilgan, hammomga o‘t yoqib kun o‘tkazib kelayotgan, bironing haqidan qo‘rqan, hech kimga zarar yetkazmagan, kim kambag‘al bo‘lsa, shuning bilan topishib ko‘nglini olgan; to‘g‘ri yo‘ldan qolmagan, egri yo‘lga bormagan, o‘g‘rilikni bilmagan, umrida xiyonat ishni ko‘ngliga ham olmagan, yangi chopon kiymagan, yirtiq-yamoq, janda-jundadan boshqani kiymagan, ot tugul eshak minmagan, yayovlik bilan umrini o‘tkazib kelayotgan odam

Xullas, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida mehnat tarbiyasi va kasb-hunar to‘g‘risida gap yuritilar ekan, uni amalga oshirish uchun xalqimizda qadim zamonlardan beri qo‘llanilib kelinayotgan va sinovdan o‘tgan, hozirgacha o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan usul va vositalar aks ettirilgan. Xalq pedagogikasida mehnatsevarlik

va kasb-hunar o'rgatish g'oyalarini yosh avlod ongiga singdirish, ularni xalq an'alariga befarq qaramaslikka o'rgatish o'qituvchi va murabbiylarning muqaddas burchi hisoblanadi.

**Abu Rayhon Beruniy (978-1048)** ham mamlakatning obodonligini, kishilarning baxt-saodati va kamolotini uning halol mehnat qilishida va kasb-hunar o'rganishida deb biladi.

Beruniyning «Geodeziya», «Mineralogiya» asarlarida ham o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Masalan: «Mineralogiya» asarining «Temir haqida»gi bobida temirni ishlash usullari, po'lat ishlab chiqarish texnologiyasi haqidagi ma'lumotlar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Buyuk olim, mineralog, fizik, kimyogar sifatida moddalarning solishtirma og'irliklarini deyarli hozirgi hisoblarga yaqin o'lchamda aniqlagan. Buning uchun u maxsus va xilma-xil qoliplar yasagan.

Abu Rayhon Beruniy: "Kishining eng birinchi va zarur ehtiyoji mehnatdir. Faqat aql-idrok va mehnatning jonlanishigina kishilar hayotini belgilab beradigInsonning asosiy burchi va vazifasi-mehnat qilishdir, chunki istalgan narsaga mehnat sarflash orqali erishiladi», -deydi.

Beruniy mehnat va kasb-hunar kishilar tomonidan erkin, ya'ni ixtiyoriy ravishda qobiliyatiga qarab tanlanishi zarurligini ta'kidlab: «Birovni zo'rlik bilan yollab ishlatish doimiy bo'lmaydi, to'g'ri ham kelavermaydi»,-degan. Fikrimizcha, ushbu satrlarda olim majburiy mehnatning samarasiz va beqarorligini ko'rsatgan. Chunki, erkin, ijodiy mehnat foydali bo'lishi bilan birga, kasbni ham takomillashtiradi, hunarmandni ulug'likka ko'taradi.

Xullas, Beruniy insonning halol mehnat qilishi va kasb-hunar egallashi tufayli aql-zakovati, qobiliyati, qudrati oshib borishiga ishonadi. Bu bilan u mehnatsevarlik o'z kasbini ardoqlashdek fazilatlarni g'oyatda qadrlaydi.

XI asrning boshlarida yashab, ijod etgan mashhur tilshunos olimlardan biri Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'otit-turk» (Turkiy so'zlar devoni) asariga kirgan qo'shiq va maqollarida ovchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, dehqonchilik mehnati va hayotini aks ettiradi. Olim bu asaridan joy olgan bir qator maqolalarida mehnat - insonning yashash omili va kamolot manbai ekanini ta'kidlaydi.

Atoqli, ma'rifatparvar shoir va mutafakkir Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (Saodatga yo'llovchi bilim) nomli asarida shahar va qishloq, o'troq va ko'chmanchi xalqlarni ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqon, hunarmand, chorvador, olim, tabib va boshqalar haqida so'z yuritiladi.

Mutafakkir shoir hunarmandlar haqida: «Juda zarur kishilardir ... temirchi, tikuvchi, etikchi, suvchi, to'quvchi, egarchi, toshchi, o'qchi, kamonchilarning

foydasi katta... bu dunyoda ular yaxshilik keltiradilar. Ular juda ko'p, ajoyib narsalarni ishlaydilar»,- deydi.

Yusuf Xos Hojib o'z bolalarini foydali mehnatga o'rgatmaslik, ortiqcha erkalatish oqibatida, ularning kelgusida noloyiq xatti-harakalar qilishga to'g'ridan-to'g'ri aybdor bo'ladigan ota-onalarni qattiq qoralaydi. U: «Kimning o'g'li yoki qizi taltaytirib yuborilgan bo'lsa, buning uchun u oxiri qattiq yig'laydi»,-deb ta'kidlab, har bir ota-ona o'z farzandiga yoshligidan hunar o'rgatishi kerakligini qayta-qayta uqtiradi.

XI asrda yashab ijod etgan Kaykavusning «Qobusnoma» nomli asari jahon pedagogikasida muhim o'rin tutadi. Kaykavus o'z asarida ta'lim-tarbiya va odob-axloqqa oid masalalar haqida fikr yuritadi.

Kaykavus tomonidan yozilgan «Qobusnoma»da: «Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' yetkurmas. Bilursanki, xori mug'ilon (tikanli buta) ning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur»,-deyilgan. Ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy boylik yaratishi zarurligi uqtiriladi.

Kaykavus «Qobusnoma»ning «Hunar afzalligi, baland qadr va oliy tab' bo'lmoq zikrida» degan bobida farzandlarni mehnat qilishga undaydi: «Bilimni egallamoq uchun mehnat qilish, badanni dangasalikdan qutqarish foydalidir. Chunki, dangasalik, ishyoqmaslik badanning buzilishiga, kasallanishiga sababchi bo'ladi. Agar mehnat qilib badanni o'zingga buysundirmasang, sog'lom va baland martabali bo'la olmaysan ...»,- deydi.

Yuqorida Sharq allomalarining ustoz-shogird odobi hamda kasb-hunarni qadrlashga oid ayrim fikrlari keltirildi. Aslida bu tahlil yana davom etishi mumkin Zero, azal-azaldan Sharkda ilm ham, hunar ham e'zozlangan. Ularning o'rgatuvchilariga cheksiz ehtiromlar bildirilgan, yaxshi hunar egallagan yosh qadrlanib, unga g'amxo'rliklar qilingan.

Buyuk allomalarning ustoz-shogird odobi to'g'risidagi qarashlari, ularning hozirgi kundagi amaliy va nazariy ahamiyati o'z kuchini yo'qotmagan. Mazkur tadqiqotda masalaning ana shu xususiyatiga e'tibor berildi. Jumladan, mavjud manbalar bo'yicha ilmiy tahlillar qadimda ajdodlarimiz ustoz-shogird odobi asosida yoshlarga hunar o'rgatish bo'yicha boy tajribaga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Lekin, keyingi yillarda ajdodlarimizning boy merosidan hamda bu boradagi tajribalaridan ham to'liq foydalana olinmayapti. Buning sabablaridan biri - ta'lim muassasalarida ustoz-shogird odobi an'analaridan foydalanishga e'tibor berilmaganligida.

Bundan tashqari, ajdodlarimiz tajribasi, bevosita «Ustoz-shogird odobi» an'analaridan foydalanishning mohiyati alohida yoritilgan adabiyotlarni ham yetarli deb bo'lmaydi. Bunday kamchiliklar mavjud tajribalarni keng ko'lamda yoyishdagi nomuvofiqliklar umumta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari, oliy o'quv yurtlari, shaxsiy tashabbus bilan shogirdga hunar o'rgatayotgan ustaxonalarda usta va shogirdning sharqona odobining o'rgatilmashligi o'quvchi-yoshlar axloqi, ma'naviyati hamda bilim darajasining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'zbek xalq amaliy bezak san'ati qadimiyligi va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Mamlakatimizning yer usti va tuproq ostidagi qismi o'lgan bir tarixiy muzeydir. Asrlar davomida orttirilgan madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'atining eng rivojlangan turlaridan: ganjkorlik, naqqoshlik, yog'och, suyak o'ymakorligi, toshtaroshlik, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik kabilarni o'rgatish, o'rganish texnologiyasi, ustalarning haqiqiy nomlari, o'ziga xos maktablari, yaratgan uslublari sho'ro tuzumi davrida asta-sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qoldi.

Bugungi kunda mustaqil mamlakatimizda xalqimizning asrlar bo'yi yaratgan ijodiy mehnati natijasi bo'lmish amaliy bezak san'atini ko'z qorachig'idek asrash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, yoshlar estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochildi. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav DehlaviY, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va musavvirlarning betakror madaniyat durdonalari, xalq ustalari yaratgan nodir asarlar ruhida yoshlarni tarbiyalash, ustachilik va hunarmandchilik sirlarini ularga meros qoldirishga chaqirganlar.

Buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxassis olimlar yordamiga tayanib, matematika, geometriya, me'morlik, astronsZmiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san'at, xattotlik kabi sohalarni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi.

Amir Temur va temuriylar davrida xalq hunarmandchiligi, qolaversa, madaniyati yuksak darajada rivoj topdi. Temurning amri bilan turli mamlakatlardan ustalar, me'morlar olib kelinib, betakror binolar qurildi va bog'u rog'lar barpo etildi.

Yoshlarni halol mehnat qilishga, ularni turli kasb-hunar sirlarini mukammal egallashga o'rgatib borilishi xalqimiz taraqqiyoti tarixida, har xil davrlarda mutafakkir olimlar, nazariyotchi va amaliyotchilar tomonidan tadqiq etilib, fikr va mulohazalarini o'z asarlarida bayon etganlar.



Hozirgi davrda ijod etgan va ijod etib kelayotgan olimlarimizdan professor S.S.Bulatov o'zining «O'zbek xalq amaliy bezak san'ati» nomli o'quv-metodik qo'llanmasida o'zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turlari., ular haqidagi ilmiy va tarixiy ma'lumotlar haqida amaliy ish usullarini bayon etgan hamda bu san'at turlarini o'rganish va o'rgatishga doir nazariy-metodik yo'l-yo'riqlar berilgan.

Muallifning olib borgan kuzatishlari va tadqiqotlari asosida ganchkorlik, naqqoshlik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilam to'qish, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kulolchilik, pichoqchilik, kigiz bosish, savatchilik, bo'yrachilik kabi xalq amaliy san'ati turlarining tarixi, ish jarayonlari va uslublari, jihozlar, asbob-uskunalar, xom ashyolar, ularni tayyorlash va ishlatish rang-barang tasviriy lavhalar misolida tadqiq etiladi.

Bu san'at turlarini o'rganish yuzasidan mashg'ulotlarni tashkil etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar, dasturlar berilgan hamda xalq amaliy san'ati vositasida o'quvchilarni badiiy, estetik tarbiyalashning nazariy va amaliy vazifalari bayon etilgan.

P.A.Goncharova o'zining «Buxoro zardo'zlik san'ati» nomli kitobida zardo'zlik hunarining tashkil etilishi, saroy zardo'zlik ustaxonalari, xususiy ustaxonalar, zardo'zlik uchun zaruriy ashyo va asbob-uskunalar, mahsulot ishlab chiqarish texnikasi, zardo'zlik naqshlari va ularning tuzilishlari haqida fikrlari bildirilgan. Shuningdek, mazkur kitobda zardo'zlikka oid barcha xom ashyo va jihozlar rangli hamda tasviriy lavhalar misolida keltirilgan. Q.Qosimovning «Naqqoshlik» nomli qo'llanmasida naqqoshlik to'garagi rahbariga to'garak ishini tashkil etish va o'tkazishda amaliy yordam beriladi. Kitobdagi metodik tavsiyalar va illyustratsiya materiallari o'quvchilarga naqqoshlik san'atining jozibasini anglatish va ularda ana shu san'at sirlarini o'rganishga qiziqish uyg'otish imkonini beradi.

Mahmud Usmonovning «San'atim-saodatim» nomli kitobida ganchkorlik san'ati O'zbekiston me'morchiligi salnomasida muhim o'rin tutishi haqida yozilgan. Ko'hna tarix yodgorliklari bo'lmish osori atiqalarni kuzatar ekanmiz, o'ymakorlik san'ati oddiy paxsa devorlardan boshlanib, keyinroq ganchkorlik bezakldrga o'tganini ko'ramiz. Bizning davrimizga kelib ganchkorlik amaliy bezak san'atiga talab va ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Mazkur kitobda atoqli san'atkor Mahmud Usmonovning ijodiy yo'li, shogird tarbiyalashdagi faoliyati, hayot tajribalari haqida fikrlar bildirilgan.

Sharqshunos olim va shoir Mahmud Hasaniy qirqdan ortiq ilmiy, tarjima va tabdil asarlarning muallifidir. Uning «Odob bo'stoni va axloq gulistoni», «Odobnoma» risolalari odob-axloq masalalarini o'z ichiga olgan hikmat, hikoyat

va masallardan tashkil topgan. Tarjimonning ushbu kitoblari uzoq yillik mehnat samarasi bo'lib, hali hech yerda nashr qilinmagan ko'plab qo'lyozma asarlardan saralab tarjima qilingan.

Olima Oynisa Musurmonova o'zining «Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi» nomli qo'llanmasida umumiy ta'lim maktablarida adabiyot va turmush odobi fanlarini o'qitish jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash zamirida yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslarini yoritgan.

Tarjimon Sh.Shomuhamedovning «Donolar bisotidan» nomli kitobiga kiritilgan purhikmat baytlar jahon adabiyoti xazinasiga ajoyib durdonalar qo'sha olgan fors-tojik (klassiklari) namoyondalari, ulug' faylasuf shoirlar, dono bobolarimiz bisotidan olingan. Unda Abulqosim Firdavsiy, Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkir olimlar inson tabiatining musaffoligi, inson xulqining yuksakligi uchun kurashishimizda bizning safimizda yelkadosh bo'lib turadilar.

Matlabbeqa Ulug'bek qizining «Hikmatlar guldastasi» nomli kitobi xalq hikmatlari va maqollaridan iborat bo'lib, u yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Keksa muallima va tarbiyachi Matlabbeqa Ulug'bek qizi xalq orasida yurgan hikmatli so'zlar va maqollarni ushbu kitobga jamlagan. Unda axloq-odobga doir muammolar yechimi o'z ifodasini topgan. Shuningdek, muallif o'z fikr durdonalarini ham mazkur majmuaga kiritgan.

Ulfat Mahkamov o'zining «Axloq-odob saboqlari» nomli asarida mustaqil O'zbekistonni buyuk davlatlar orasidan joy olishida, yoshlarni ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda zarur bo'lgan iymon, e'tiqod, insonparvarlik, Vatanga mehr-muhabbat singari insoniy fazilatlar - axloq-odob saboqlari haqida qiziqarli hikoya qiladi.

H.Uzoqov, E.G'oziev va L.Oripovalarning «Oila etikasi va psixologiyasi» qo'llanmasi va «Oila axloqi va odobi» nomli kitobida Urta Osiyo mutafakkirlarining oila axloqi va odobiga, tarbiyasiga doir qarashlarni aks ettirgan ayrim asarlaridan parchalar keltirilgan.

Olim A.Q.Munavvarovning «Oila pedagogikasi» nomli kitobida oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda o'zbek xalq pedagogikasi va an'alarining ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati ochib berilgan. O'zbek oilalarining tarbiya berish imkoniyatlari va ta'sir ko'rsatish vositalari, shuningdek, umumiy va xususiy tomonlari shu kun talabi asosida yoritilgan. Hozirgi zamon o'zbek oilalari tarbiyasi samaradorligini oshiruvchi yo'l va vositalar imkoniyat darajasida ko'rsatilgan hamda tavsiyalar berilgan.

Malla Ochilov o'zining «Muallim - qalb me'mori» nomli kitobi bilan o'zbek pedagogikasi ravnaqiga juda katta hissa qo'shgan. Uning ma'naviy-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalariga bag'ishlangan monografiya va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalari va tarjima asarlari pedagogika jamoatchiligi hamda keng xalq ommasiga ma'lum.

«Muallim - qalb me'mori» nomli saylanmasiga olimning ilmiy-amaliy jihatdan mukammal ishlari jamlangan. Xususan, o'qituvchi odobi, pedagogik ta'lim, kamolot qirralari hamda pedagogika tarixiga oid qator pedagogik ma'lumotlar keltirilgan.

Malla Ochilov va Nigora Mallaevna Ochilovalarning «O'qituvchi odobi» nomli qo'llanmasida Markaziy Osiyoda muallimlik kasb odobining tarixiy ildizlari, o'qituvchining muhim axloqiy fazilatlarini, kasb odobining tuzilishi, pedagogik faoliyatining axloqiy tavsifi yoritilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida muomala odobi qoidalarini bayon etishga ko'proq e'tibor berilgan.

Malik Murodovning «Oltin sandiq ochildi» nomli kitobida o'zbek xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi hamda Sharq allomalarining axloq-odobi, tarbiyasi haqidagi asarlaridan kelib chiqib, ibratli fazilatlar, xislatlar qanday bo'lishi kerakligi haqida o'ziga xos bir tarzda so'z yuritiladi.

A.Haqqulovning «Ta'mir san'ati» nomli kitobida g'oyat muhim mavzu - tarixiy-madaniy yodgorliklarni qadrlash va ularni kelgusi avlodlarga beqamu ko'st yetkazib berish masalasi ko'tariladi. Kitob, asosan muallifning ta'mir sohasida uzoq yillar davomida olib borgan kuzatishlari zaminida tugilgan maqolalardan tuzilgan. Bu maqolalarda Samarqandning qadimiy yodgorliklarini tariximizda tutgan o'rni, ta'mir san'atining murakkab muammolari haqida qiziqarli hikoya qilinadi. Bundan tashqari, mazkur to'plamda o'quvchi uchun ibratli va bevosita yodgorliklar takdiri bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar ham keltirilgan.

O'zbekiston psixolog olimlarining ham ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida pedagogik jarayonda ustoz-shogird o'rtasidagi munosabatlar o'rganilgan. Bunday ishlarga professor E.G'oziev, V.M.Karimova rahbarligida tayyorlanayotgan dissertatsiyalarni misol keltirish mumkin. E.G'oziev boshchiligida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari orasida kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish ustalarining o'quvchilarga psixologik ta'sir ko'rsatish xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan A.G'.Rahmonov ishlarini ham misol keltirish mumkin. Ushbu ishning maqsadi va tadqiqot predmeti kasb-hunar kolleji o'quvchilarini kasbga moslashish jarayonida ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan o'zaro munosabatlari pedagogik-psixologiyani ishonchli testlari va uslublari vositasida tekshirishdan iboratligi aniqlangan. Shuningdek, professor V.M.Karimova rahbarligida tayyorlangan dissertatsiyada ustoz-shogirdning o'zaro munosabatlariga oid

ijtimoiy-psixologik fenomenlar mustaqil tadqiqotning predmetiga aylantirilib, ularning mexanizmlari, ustozning shogird bilan samarali kommunikativ faoliyatining mezonlari aniqlangan.

Ilmiy tahlillar shundan dalolat beradiki, ta'lim-tarbiya muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlash uchun «Ustoz-shogird odobi» an'analarini o'rganish va o'rgatish masalalari tadqiqotchilar diqqat markazidan chetda qolgan ko'rinadi. Shu bois, ushbu muammoning yechimini topishni maqsad qilib qo'yish lozim bo'ldi. Bunda, o'rganilayotgan muammo kasb-hunar kollejlarda o'qitiladigan amaliy bezak san'ati yo'nalishi negizida ishlab chiqilgan «Ustoz-shogird odobi» maxsus kursi o'kuv dasturiga asoslangan holda mukammal o'kuv-uslubiy majmuani yaratish maqsad etib qo'yildi.

Amaliy bezak san'ati - bezak san'ati; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoq, o'yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, tahlillardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, kasb-hunar kollejlarda o'qitiladigan amaliy bezak san'ati yo'nalishi bo'yicha ham alohida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmayotganligidan dalolat beradi.

Amaliy bezak san'ati yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlariga oid maxsus fanlar, jumladan «Ustoz-shogird odobi» maxsus kursi o'quv dasturining tahlili shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyoda kasb-hunarni o'rganishda «Ustoz-shogird odobi» an'analari azal-azaldan madaniy, ma'naviy meros sifatida ajdoddan-avlodga o'tib, ulug'lanib kelingan. Shu bois, u hozirgi davr pedagogikasi va metodikasining dolzarb uslubiy muammolaridan biri hisoblanadi.

**2.Ustoz va shogird odobi an'analari mezonlari.** O'zbekiston xalqining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak». Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator xujjatlari Vatanimizni har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda Respublika hukumati tomonidan, ta'lim tizimini tubdan

isloh qilish maqsadida 1997 yili «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati va fan bobidagi ko'p asrlik an'analari, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi, deyilgan.»

Bizning ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, qadimda, ajdodlarimiz usta-shogird an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatish bo'yicha boy tajribaga ega bo'lganlar. Lekin, biz keyingi vaqtlarda ajdodlarimizning boy merosdan, hamda tajribalaridan to'liq foydalana olmayapmiz. Shulardan biri ustoz-shogird an'analari chuqur o'rganmaganligimizdir. Ajdodlarimiz tajribalari yoritilgan adabiyotlarni ham yetarli deb bo'lmaydi. Bundan tashqari ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o'rgatilayotgan joylarda, chunonchi; oliy o'quv yurtlarida, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida, shaxsiy usta-shogird an'anasi asosida o'rgatayotgan ustaxonalarda ustoz-shogird odobi to'liq o'rgatilmaslgi, o'quvchi-yoshlarimizni axloq-odobiga va bilim darajasiga, umuman, ularning ma'naviyatini shakllantirishga salbiy ta'sir etayotganligining guvohi bo'lamiz. Shuning uchun ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosdan to'g'ri va unumli foydalanish, chunonchi, ishlab chiqarilgan «Ustoz va shogird odobi an'analari» asosida o'quvchi-yoshlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarida quyidagi ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi: ajdodlarimiz ma'naviy merosiga bo'lgan hurmat-e'tibori kuchayadi; o'z ota-onasiga, ustoziga, o'rtoqlariga, xullas, insonlarga bo'lgan hurmati oshadi. Ularning shu hunarni qiyomiga yetkazib o'rganishlarida asos bo'lib xizmat qiladi.

«Ustoz va shogird odobi an'analari» mavzusi yoritilgan 16 ta ko'rgazmali quroldan iborat to'plam oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, maktablarda sinfdan, maktabdan tashqari muassasalarda tashkil etilgan hunarmandchilik ustaxonalarida va boshqa muassasalarda foydalanilsa maqsadga muvofiq blar edi. Ushbu ustoz va shogird odobi an'analari mezonlarini ma'naviyat xonalarida, ustaxonalarda, ijodiyot xonalarida devoriy ko'rgazma sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir. U har bir kasb-hunar o'rganayodtan shogirdlarning yonida bo'lishi lozim.

### Shogirdning odob qoidasi

1. Uz ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni o'z kasbini sevish
2. Uz ishiga e'tiqod qo'yish va unga ishonish
3. Ustoz oldida hokisor bo'lish, o'zining salbiy odatini tark etish
4. Ko'rish lozim bo'lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish
5. Eshitishi mumkin bo'lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik
6. Barcha noloyiq ishlardan qo'l tortish

7. Ustozga zid bo'lgan kishilar bilan muomala qilmaslik

### Shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari

1. Ustozga itoatli bo'lish
2. Ustoz an'analarini davom ettirish
3. Ustozning pand nasihatlariga amal qilish
4. Ustozga taqlid qilish
5. Sabr-toqatli bo'lish
6. Irodali bo'lish
7. Ustozning yuzini yerga qaratmaslik, aksincha uning obro'sini ko'tarish
8. Ustoz sha'niga iliq so'zlar aytish
9. Ustozning dushmani bilan do'st tutinmaslik
10. Ustozning oila a'zolarini hurmat hilish
11. Ustozning qarindosh urug'larini hurmat qilish
12. Ustozning ruxsatisiz hech narsaga qo'l tekkizmaslik
13. Birovning narsasiga ko'z olaytirmaslik
14. Ustozga cheksiz hurmat bilan munosabatda bo'lish

### Shogirdning eng yaxshi xislatlari

1. Ustoz qabuliga kirganda yoki ustozni ko'rganda birinchi bo'lib salom berish
2. Ustozning oldida kam gapirish va boshini egib turish, ko'zni har tomonga yugirtirmaslik
3. Agar maslahat so'ramoqchi bo'lsa, oldin ustozdan ijozat olish
4. Ustoz javob aytganda e'tiroz etmaslik
5. Ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik
6. Utirib-turish odobini to'liq saqlash

### Shogirdlar ruhiy olamining muhim zamini

Vatanparvarlik, o'rtoqlik, do'stlik, hamkorlik, hamjihatlilik, sadoqat, mehr-muruvvat, kasb tanlash imkoniyatini, milliy iftixor, insonparvarlik, xushmuomalalik, ozodalik, pokizalik, samimiylik, ziyraklik, tashabbuskorlik, insoflilik, rostgo'ylik, or-nomuslilik, andishalilik, kattalarni hurmat qilish, sof muhabbatni qadrlash, vazminlik, to'g'rilik, millatlarni hurmat qilish, ota-onani hurmat qilish

### Shogirdning bir-biriga munosabatlar mezonlari

1. Uzaro ko'rkam xulq bilan samimiy munosabatlarda bo'lish
2. Intizomli bo'lish
3. Bir-birining aybini oshkor qilmaslik
4. Erinchoq va yalqov bo'lmaslik
5. Do'stining omonatiga hiyonat qilmaslik, ziyon-zahmat yetkazmaslik

6. Munofiq va riyokor bo‘lmaslik, adovat, xasad, g‘iybat, ig‘vo qilmasliq, yolg‘on so‘zlamalik

7. Bir-biriga yordam berish

8. Do‘stining muvaffaqiyatidan quvonish

### Ustozning shaxsiy fazilatlari

Sahiylik, odoblilik, mehr-muruvvatlilik, marhamatlilik, ochiq yuzlilik, shirin muomalalilik, sabr-toqatlilik, talabchanlik, iffatlilik, itoatlilik, qanoatlilik, to‘g‘ri so‘zlilik, poklik, muloyimlik, rostgo‘ylik, o‘rtoqlik, do‘stlik, hamkorlik, hamjihatlilik, sadoqatlilik, vatanparvarlik, insonparvarlik, samimiylik, ozodalik, pokizalik, ziyraklik, tashabbuskorlik, insoflilik, or-nomuslilik, andishalik, kattalarni hurmat qilish, sof muhabbatni qadrlash, vazminlik, millatlarni hurmat qilish, ota-onani hurmat qilish, mehr-shavqatlilik va boshqalar.

### Ustozning kasbiy fazilatlari

Oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni shogirdlarga o‘rgata olishi (uquvchanlik); barcha hunar va fan turlari yuzasidan muayyan bilimga ega bo‘lish; qisqa daqiqalarda shogirdlarni idrok qila olish fazilati; shogirdlarni uyushtira olish va boshqarish iste’dodi; ixcham va ma’noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo‘lgan nutq; o‘zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro‘ orttirishi, uquvchanligi, muomala va muloqot o‘rnata olish; insonning qiyofasi, harakatlari va qilgan ishlari asosida kelajagini oqilona tasavvur qilishdan bashorati; bir necha ob’ektlarga bir davrning o‘zida shaxsiy munosabatni bildirish uquvi; imon-e’tiqodga, faol hayotiy jarayonlarga yo‘naltirish qobiliyati; tashabbusga, ijodga ilhomlantira olish; bilimdonlik, ta’lim va tarbiya ishlarini oldindan ayta olish, tadqiqotga layoqatlilik, ya’ni o‘z hunariga yangiliklar kirita olish, o‘z hunariga qiziqishi va uni yoshlarga sidqi dilidan o‘rgata olish; sohasi bo‘yicha o‘zidan keyin sodiq shogirdlar qoldirishi va boshqalar.

### Ustozning shogirdlari, ota-onalariga bo‘lgan munosabati

1. Farzandga hunar o‘rgatish uchun zimmasiga olgan vazifasini bajarish
2. Uz va’dasi ustidan chiqish
3. Ota-onaga farzandning qobiliyati, hulq-odobi to‘g‘risida ochiq gapirish:

### Ota-onalarning ustozga bo‘lgan munosabati

1. Ustozga muruvvat ko‘rsatish
2. Ustozning farzandiga bergan tanbehini to‘g‘ri tushunish
3. Farzandining hunar o‘rganishida kerakli narsalarni yetkazib berish
4. Ustozni rozi qilish

### Hunarmandlarning odob qoidasi

1. Uz hunarini iflos va shubhali daromadlardan asraydilar
2. Hunarni boylik orttirish manbai deb emas, balki hayotda munosib o‘rin egallash maqsadida o‘rganadilar
3. O‘z ishining ustalariga doim hurmat va ehtiromda bo‘ladilar
4. Nopok yo‘llar orqali boylik to‘plovchilar bilan aloqa qilmaydilar
5. Ishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaydilar va tanlangan kasblarga befarq bo‘lmaydilar
6. Mahsulotlarning asl bahosini bilmaganlar bilan to‘g‘ri muomalada bo‘lish
7. Agar oldi-berdi tarozi bilan bog‘liq bo‘lsa kam bermaslik va ko‘p xaq olmaslikka intiladilar
8. Agar ish hisobchi bilan bitadigan bo‘lsa, o‘zlarining xissasidan yuqori qo‘ymaydilar

#### Hunarmandlarning kasb madaniyati

1. Hunarni jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish maqsadida o‘rganish
2. Hunarni mehnatsiz daromadlardan asrash
3. Ustozlar an‘anasiga ehtiromda bo‘lish
4. Mehnatsevar bo‘lish
5. Intizomli bo‘lish
6. Muvaffaqiyatsizliklardan tushkunlikka tushmaslik

#### **Nazorat test savollari.**

1. Ustozning shaxsiy fazilati ?
2. Ustozning kasbiy fazilatlarini sanang?
3. Muloyimlik deganda nimani tushunasiz?
4. Vatanparvarlik tuyg‘usi deganda nimani tuchinasiz?
5. Ustoz haqida rivoyatlar bilasizmi?

#### **Test savollari.**

**# Jahon tarixida rasm chizish ga o‘rgatish metodikasi bo‘yicha dastlabki samarali mehnat qilingan mutaxassislar qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?**

- + Pamfil, Chennini, Alberti, Leonardo da Vinchi
- Dyupyui, Ashbe, Prang, Russo
- Gete, Shmidt, Prang, Bryullov
- Tedd, Kulman, Karrachi, Renuar

**# «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qaysi ismida tasviriy san’atni o‘qitish bilan bog‘liq fikrlar bayon etilgan?**



- + Uzluksiz ta`limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida.
- « Iqtidorli bolalar va iste`dodli yoshlar» qismida.
- « Umumiy o`rta ta`lim» qismida.
- «Shaxs» qismida

**# Milliy g`oyani o`quvchilarga singdirishda tasviriy san`atning qaysi turlari ko`proq ahamiyat kasb etadi?**

- + San`atshunoslik asoslari, borliqni idrok etish, kompozitsiya
- Kompozitsiya, badiiy urish-yasash, san`atshunoslik asoslari
- Borliqni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash, badiiy-qurish, yasash
- Naturaga qarab tasvir ishlash, kompozitsiya, badiiy qurish-yasash

**# Rasm chizishga o`rgatishda «Naturadan chizish metodi» qaysi olimlar tomonidan kiritilgan?**

- + Komenskiy, Russo, Gete
- Pestalossi, Shmidt, Gete
- Kulman, Prang, Baumgart
- Ausberg, Braunshvig, Tedd

**# Rasm chizishga o`rgatishdagi «Geometrik metod» vakillari qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?**

- + F.Dyupyui, I.Pestalossi, I.Shmidt
- Ausberg, Kulman, Prang
- Baumgart, Tedd, Braunshvig
- Gete, Komenskiy, Russo

**# Rossiyada birinchi bor yaratilgan «Kurs risovaniya» nomli darslik muallifi kim?**

- + A. Sapojnikov
- V. Beer
- A. Voskresenskiy
- P. CHistyakov

**# XX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada tasviriy san`atni o`qitish metodikasiga doir samarali mehnat qilgan pedagog-olimlar kimlar?**

- + N.Rostovsev, V.Kolokolnikov, V.Kuzin
- A.Karlson, G.Orlovskiy, R.Korguzalova
- A.Brajnikova, T.Belyaev, B.Nosov
- G.Labunskaya, V.Sherbakov, A.Shimanskaya

**# O‘quvchilar badiiy ijodiga doir Rossiyada «Erkin tarbiya» nazariyasining vakillaridan biri kim?**

- + A.Bakushinski
- D.Kardovskiy
- V.Beer
- N.Radlov

**# O‘zbekistonda birinchi bor tasviriy san’at darsligi qachon chop etilgan?**

- + 1969 yilda
- 1964 yilda
- 1995 yilda
- 972 yilda

**# O‘zbekistonda oliy ma’lumotli rassom-o‘qituvchilar tayyorlovchi fakultet qoshidagi bilim qachon va qaysi institut qoshida ochilgan?**

- + 1955 yilda nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida
- 1950 yilda arshi davlat pedagogika institutida
- 1966 yilda Namangan davlat pedagogika institutida
- 1950 yilda Samarqand davlat pedagogika institutida

**# O‘zbek grafik rassomlaridan Iskandar Ikromovning tasviriy san’at o‘qituvchilariga yordam tariqasida 1932 yilda chop ettirgan ishi qanday ataladi?**

- + Rasm chizishga o‘rgatish qullanmasi
- Maktabda rasm darslari
- Rasm chizishni o‘rganish kerakmi?
- Rasm chizishni o‘rganing

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Bulatov S.S. Ustoz-shogird pedagogikasi. Monografiya. Toshkent-2020 yil.
2. Azixodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2003 - 174 b.
3. Axlidinov R.Sh. Sotsialno-pedagogicheskie osnovy upravleniya kachestvom obshchego srednego obrazovaniya (na mater. Natsional. programmy po podgotovke kadrov): Avtoref. dis. ... dokt.ped.nauk. – T.: 2002. – 44 s.

4. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ... ped. fan. dok. – Toshkent: 2004. - 314 b.
5. <http://www.istedod.uz/>
6. <http://www.pedagog.uz/>

## V. GLOSARIY

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Algoritm</b> <b>Algorithm</b>	Modul ta’limi tarkibiy bo‘laklarining o‘zaro joylashishi hamda Texnologik jarayonni amalga oshirish ketma-ketligining avvaldan belgilangan tartib-qoidalari	Rules initially established to realize an interposition of parts of module education and sequence of technological process
<b>Aralash model</b> <b>Mixed model</b>	Masofaviy ta’limning turli shakllari, bir necha shakllarning integratsiyasiga asoslangan model	Model based on various forms distance learning and integration of some forms
<b>Aralash o‘qitish</b> <b>Blended learning</b>	Onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta’lim olishga asoslangan o‘qitish shakli	A form of teaching based on a group learning under the supervision of a teacher using online study materials
<b>“Assesment” texnologiyasi</b> <b>“Assessment technology”</b>	Talabalarining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students
<b>Axborotli loyihalar</b> <b>Information projects</b>	O‘quv jarayonini tashkil etish yoki boshqa ta’limiy xarakterga ega buyurtmalarni bajarish maqsadida nazariy axborotlarni yig‘ishga yo‘naltirilgan loyihalar	Projects intended for collecting theoretical information aiming at realization of scientific projects or organization of educational process
<b>Validatsiya</b> <b>Validation</b>	Ta’lim mahsuloti, ta’lim xizmatlari yoki ta’lim tizimi iste’molchilari ehtiyojlarining	Satisfaction of interests of customers in educational

	qondirilishi	and service system
<b>Vebinar texnologiya</b> <b>Webinar technology</b>	Webtexnologiyalar asosi (onlayn tadbirlar va ta'lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqea yok hodisalar bo'yicha Internet tarmog'i orqali tashkil etiladigan to'g'ridan to'g'ri uzatiladigan lavha (translyasiya)lar	Broadcasting organized via Internet transmitting live seminars, conferences, debates, presentations, negotiations, meetings, trainings, various events with the help of Web technologies
<b>Dars ishlanmasi</b> <b>Lesson planning</b>	Ta'limiy mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat	An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence
<b>Dasturiy ta'lim</b> <b>Program education</b>	1) o'qitishning talaba, talabalar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi, ular tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirishda duch kelish ehtimoli bo'lgan muammolar, o'quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri	1) education organized considering interests and needs, outlook of students, problems that appear in assimilation of study materials by students, and opportunities of the academic subject; 2) one of the pedagogical technologies
<b>Dramatik uyinlar</b> <b>Dramatic games</b>	Psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar	Games intended for solving psychologic and social issues
<b>Didaktik uyinlar</b> <b>Didactic games</b>	O'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini	A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of

	oshiradigan o‘quv faoliyati turi	processes, events, objects that are being studied
<b>Ijodiy loyhalar</b> <b>Creative projects</b>	Indiviual yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta’lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko‘rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilar)ni yaratishga yo‘naltirilgan loyihalar	The projects intended to creat new educational products (activity report, exhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and electronic journals, computer programmes) that have creative characteristics based on cooperation and individual activity
<b>Imitatsion o‘yinlar</b> <b>Imitation games</b>	Ishlab chiqarish korxonalarini, ish o‘rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko‘chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo‘naltiradigan o‘yinlar	Activities aimed at effective preparing students for certain activities based on imitation of activity carried out by employees of organizations, companies, factories
<b>Invigilator</b> <b>Invigilator</b>	Masofaviy ta’lim asosida tashkil etiladigan o‘qitish natijalarini nazorat qiluvchi mutaxassis-pedagog	A specialist-pedagog who controls the results of teaching in the frames of distance learning
<b>individual ta’lim</b> <b>Individual</b>	Ta’lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta’lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter,	Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or educational

<b>education</b>	televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilano‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan ta‘lim	means (literature, computer, television, radio, etc.) during educational process
<b>Innovatsion ta‘lim</b>  <b>Innovative education</b>	Talabada yangi g‘oya, me‘yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me‘yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta‘lim	Education that allows to develop skills and qualities of a student
<b>Innovatsion ta‘lim</b>  <b>Innovative activity</b>	Yangi ijtimoiy talablarning an‘anaviy me‘yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni echishga qaratilgan faoliyat	An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards
<b>Innovatsiya</b>  <b>Innovation</b>	Muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat	An activity aimed at changing the internal structure of a certain system
<b>Interfaol ta‘lim</b>  <b>Interactive education</b>	Talabalarining bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarini o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta‘lim	The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knowledge

<p><b>Ishbilarmonlik</b> <b>Business games</b></p>	<p>Ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka va sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar</p>	<p>Activities organized in order to master skills in running a certain activity, process or relationships and their effective and proper organization</p>
<p><b>“Keys-stadi” texnologiyasi</b> <b>“Case study” technology</b></p>	<p>Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya</p>	<p>A technology that forms skills in earching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems</p>
<p><b>Komp'yuter ta'limi</b>  <b>Computer education</b></p>	<p>Talabalarining o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'lim</p>	<p>The education organized based on the computer technologies, telecommunication means and programme and methodological provision as an activity model of a pedagog that comprises collecting and transferring information in controlling the activity of an independent education and self-control of students</p>
<p><b>Komp'yuter ta'limi texnologiyalari</b>  <b>Computer education technologies</b></p>	<p>Talabalarining o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat</p>	<p>A set of forms, means and methods of education organized based on the computer technologies, telecommunication means and programme and methodological provision as an activity model of a</p>



	faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'limning shakl, metod va vositalari majmui	pedagog that comprises collecting and transferring information in controlling the activity of an independent education and self-control of students
<b>Konsorsium</b> <b>Consortium</b>	Masofaviy ta'limni tashkil etuvchi ikki universitetdan iborat birlashma	A union of two universities that organize a distance learning
<b>Loyhalash</b> <b>Projecting</b>	Boshlang'ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat	An action aimed at developing the essence of an activity or process, activity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means
<b>Loyha</b> <b>Project</b>	Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli	A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness
<b>Loyha metodi</b> <b>A method of project</b>	O'quv jarayonini individuallashtirish, talabanning o'zini mustaqil namoyon qilishini rejalashtirish, o'z faoliyatini oqilona tashkillashtirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta'lim metodlari	A set of educational methods that allow individualization of educational process, independent planning of students' performance, control and proper organization of an activity

	majmui	
<b>Loyha ta'limi</b> <b>A study of project</b>	Ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a plan and aim that have educational characteristics
<b>Masofaviy ta'lim</b> <b>Distance learning</b>	Muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va etkazib berishdagi an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at using study resources based on innovational form, method and means in organizing study services, expanding and delivering study products with the help of certain information communication means (video, audio, computer, multimedia, radio, television, etc.)